

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA-MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**BUXORO OZIQ-OVQAT VA YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI
INSTITUTI**

KAFEDRA : PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ta'lif sohasining V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo`nalish
(mutaxassislik)lari uchun

"PSIXOLOGIYA"

FANIDAN MA'Ruzalar matni

Buxoro – 2010

T U Z U V CH I :

**Bux. OO va YESTI, "Pedagogika va
psixologiya"
kafedrasining k. o`qituvchisi**

Mavlonov J.X.

TAKRIZCHILAR:

**Buxoro davlat universiteti,
“Psixologiya va pedagogika”
kafedrasi mudiri**

psix. f.d. BARATOV Sh.R.

**Bux. OO va YESTI, "Pedagogika va
psixologiya"
kafedrasi k. o`qituvchisi**

p.f.n. HALIMOV E.Z.

SO`Z BOSHI

Respublikamizda mavjud ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni jahon andozalari darajasiga ko’tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini yaratish, har tomonlama rivojlangan, komil avlodni tarbiyalash borasida katta ishlar olib borilmoqda.

Kadrlar tayyorlash bo`yicha milliy dastur va uni amalga oshirishni ta’minlashga yo`naltirilgan barcha meyoriy hujjatlarda o’sib kelayotgan yosh avlodning intellektual imkoniyatlarini, individual-psixologik xususiyatlarini o`rganishga va shu asosda ta’lim va tarbiya ishlarini rejalashtirish va qayta qurishga katta e’tibor berilgan. Bu esa, boshqa fanlar bilan bir qatorda, yosh avlodni tarbiyalashda psixologiya fanining ham alohida o`rni mavjudligini ko`rsatmoqda.

Mazkur kursni o`qitishdan maqsad, bakalavriatning "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo`nalishi bo`yicha ta’lim olayotgan talabalarni kelgusi kasbiy faoliyatlarida kerak bo`ladigan hozirgi zamon psixologiyasining nazariy va amaliy bilimlarni berish.

Psixologiya kursining vazifasi talabalarni o`quv-tarbiya jarayonini o`rganish va boshqarishda qullaniladigan shaxs psixologiyasi, psixik jarayonlar, yosh davrlari psixologiyasi, pedagogik psixologiyaga oid bilimlar, ko`nikma va malakalar bilan qurollantirish.

Kursni o`rganish davomida talabalar psixika va uning taraqqiyoti, shaxsning shakllanishi, shaxsning faoliyati va bilish jarayonlari, ta’lim va tarbiya jarayonining psixologik qonuniyatları haqida bilimlar oladilar.

Psixik hodisalar, psixik jarayonlar, holatlarni klassifikatsiya qilish, ularning yuzaga chiqishini, rivojlanganlik darajasini diagnostika qilish, psixologik bilimlarga asoslanib o`z pedagogik faoliyatini, o`quvchilarning bilish faoliyatini, ta’lim va tarbiya jarayonini to`g’ri tashkil qilish va boshqarishga doir ko`nikma va malakalarga ega bo`ladilar.

Ushbu ma’ruzalar majmuida V 16.00.00 - "Kasbiy pedagogik tayyorgarlik" yo`nalishi bo`yicha talabalar o`rganishi uchun psixologiya kursining umumiyligi bulimiga doir mavzular kiritilgan. Bu mavzularda o’tiladigan o`quv materiallarining asosiy mohiyati berilgan bo`lib talab uchun chuqur bilim olishga yo`llanma beradi va mashg’ulotlarga o’tiladigan mavzu bo`yicha yetarli ushuncha bilan kelish imkonini beradi.

Ma’ruza 1. PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI VA FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O`RNI

Reja:

1. Psixologiya fanining predmeti.
2. Psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi.
3. Psixik hodisalar va ularning shakllari.
4. Psixologik nazariyalarning yo`nalishlari.
5. Hozirgi zamon psixologiya fani va uning fanlar tizimida tutgan o`rni.

Tayanch iboralar:

Psixologiyaning fan sifatida yuzaga kelishi. Psixologiyaning asosiy tushunchalari: psixik aks ettirish, psixik hodisalar, jarayonlar, holatlar, shaxsning xususiyatlari. Ilmiy psixologiyaning nazariy asoslari. Psixologiyaning fan sifatidagi taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Hozirgi zamon psixologiyasining muhim, asosiy yo`nalishlari, turli qarashlar, oqimlar. Psixologiyaning fan sifatidagi vazifalari. Yoshlarning ma’naviyatini shakllantirish va ta’lim-tarbiya jarayonini jahon andozalariga mos ravishda, ilmiy asosda tashkil qilishdagi roli. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o`rni.

PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI

Har bir fan boshqa fanlardan o`z predmeti bilan farq kiladi. Boshqa fanlardan farqli ravishda, psixologiya fanining predmeti, u bahs yurituvchi hodisalarining o`ziga xos xususiyatlarini aniqlash va tushunish qiyinroq. Buning sababi psixik hodisalarining o`zgachaligi, odamni qurshab turgan tashqi olamdagи hodisalardan farq qilishida. Psixologiyaning predmeti *psixika* deb atalmish turli hodisalar (idrok, xotira, tafakkur, iroda va h.k.) bo`lib, ular voqelikdagi haqiqiy hodisa va faktlarga qarama-qarshi qo`yib kelingan. Psixologiyaning predmetiga bo`lgan munosabat uning nomida aks ettirilgan. "*Psixologiya*" so`zi ikki grekcha SO`Z ("*psyuxē*" - "*jon, ruh*", "*logos*" - "*ta’limot*") birikmasidan iborat bo`lib "ruh, jon" haqidagi ta’limot degan ma’noni anglatadi. Psixik hodisalarining barchasi "psixika", "odam psixikasi", "kishining ichki dunyosi", "ruhiy hayoti" kabi nomlar bilan ataladi.

Psixologiyaning rivojlanish tarixida psixologik bilimlarning to`planishi ikki yo`nalishda amalga oshgan:

1. Hayotiy psixologiyaning rivojlanishi.
2. Ilmiy psixologiyaning rivojlanishi.

Psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar, psixik holatlar haqidagi bilimlar hali ilmiy bilimlar yuzaga kelmagan juda qadim zamonlardayoq hayotiy tajriba asosida yuzaga kelgan. Bu bilimlar turli amaliy faoliyat, hamkorlik, o`zaro munosabatlar jarayonida shakllanib avloddan-avlodga o`tib, tilda, xalq ijodiyotida, maqollarda, san’at asarlarida o`z ifodasini topgan. Masalan, odam xotira jarayonlar haqida ilmiy bilimga ega bulmasa ham biror matnni takror-takror o`qish uni yaxshi esga olib qolishga yordam berishini biladi. Bunday bilimlar keng tarqalgan bo`lib, ular atrofdagi odamlarning xulq-atvorini tushunishda, kishi o`z faoliyatini tashqi olamga, voqelikka to`g’ri, mos tashqil qilishiga xizmat qilgan.

Ammo psixologiyadagi hayotiy bilimlarning hammasining ostida haqiqat, qonuniyat yotadi deb bo`lmaydi. Ikkinchidan, ko`pchilik hayotiy bilimlardan turli kasblarga doir amaliy faoliyatda (pedagogika, tibbiyot, ishlab chiqarishda) foydalanib bo`lmaydi. Bu sohalarda ob'ektiv va ishonchli bilimlar talab qilinadi. Bunday bilimlar ilmiy bilimlardir.

Ilmiy psixologiya hayotdagи psixik faktlarni miqdor (reaktsiya tezligi, xotira hajmi, diqqatning ko`lami va h.k.) va sifat jihatdan (idrokning konstantligi, tafakkurning mustaqilligi, xotiraning anglanganligi va h.k.) o`rganadi. Ilmiy psixologiya psixik faktlarni o`rganish va ularni tasvirlash bilan cheklanib qola olmaydi. Ilmiy bilish hodisalarni tasvirlashdan ularni tushuntirib berishga o`tishni talab qiladi. Buning uchun o`rganilayotgan psixik hodisa qaysi qonuniyatga buysunishini aniqlash va o`rganish lozim. Chunki barcha psixik hodisalar doimo va bir xil tarzda yuzaga chiqmaydi. Bu hodisalar yuzaga chiqishi ma'lum qonuniyatlarga bog'liq. Shu sababli ba'zi hatti-harakat shakllari, odatlar kishining hayotga moslashishiga yordam bersa, boshqalari sharoit o`zgarganda o`zining maqsadga muvofiqligini yo`qotadi va hatti-harakatni yangidan shakllantirishni talab qiladi. Hatti-harakatni samarali ravishda qayta qurish uchun uning mexanizmlarini bilish lozim.

Hodisalar o`rtasidagi qonuniy bog'liqlikni bilishning o`zi ana shu qonuniyatni keltirib chiqaradigan mexanizmlarni ochib bera olmaydi. Psixik faoliyat mexanizmlari u yoki bu psixik protsessni yuzaga keltiruvchi aniq anatomik hamda fiziologik apparatlarning ishi bilan bog'liq bo`lganligi tufayli psixologiya bu mexanizmlarning tabiatini va ta'sir masalalarini boshqa fanlar (fiziologiya, biofizika, bioximiya, kibernetika va boshqalar) bilan birgalikda aniqlaydi.

Shunday qilib, *hozirgi zamon psixologiya fani psixik hodisalarni, ularning mexanizmlarini, ular ostida yotgan qonuniyatlarni o`rganuvchi fandir.*

Psixologiya o`quv predmeti va fan sifatida farqlanadi.

Psixologiya fan sifatida kishining psixikasini o`rganish, psixik hodisalar asosida yotgan yangi qonuniyatlar ochish, ruhiy hayotga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish, turli psixik hodisalarning mexanizmlarini o`rganish bilan shug'ullanadi.

Psixologiya o`quv predmeti sifatida esa talabalarni, o`quvchilarni, turli soha mutaxassislarini psixologiya fani tomonidan ochilgan yangiliklar, amaliy natijalar bilan tanishtiradi. Psixologiya o`quv predmeti sifatida psixologiya fanining barcha jabhalarini qamrab olmaydi, u faqat ma'lum yo`nalishdagi ishlarni yoritadi. Masalan, pedagoglar tayyorlovchi o`quv yurtlarida psixologiya fanida ta'lim va tarbiya jarayonini tashqil qilish va boshqarish bilan bog'liq muammolarning psixologik tahlili va yechimlari aks ettiriladi.

PSIXOLOGIYANING FAN SIFATIDA RIVOJLANISHI

Psixologiya tashqi olamni faol ravishda sezgilar, idrok, tafakkur, hissiyot va boshqa shaklda aks ettiruvchi psixik jarayonlar va psixik hodisalar haqidagi fandir. Ko`p asrlar davomida psixologiya tavsifiy bilimlar sohasi sifatida shakllandı.

Qadimgi zamonalardan boshlab ijtimoiy hayot ehtiyojlari har bir kishidan boshqa kishilarning psixologik xususiyatlarini, ularning xarakterlarini, xulq-atvorini o`rganishni va hisobga olishni taqoza qilgan. Hayot davomida boshqalarning xulq-atvorini kuzatish, ulardan amalda foydalanishga intilish jarayonida kishi ruhiy olamida (psixikasida) ko`p tushunarsiz, ba'zan sirli hodisalarga duch kelganlar. Bunday hodisalar jonning ishi deb

tushunilgan. Ularning tasavvuricha, jon o`z mohiyatiga ko`ra o`lmas, boqiy, ko`rinmas, hidsiz, ilohiy (xudo tomonidan berilgan) xususiyatdir. Tana jon uchun vaqtinchalik joy. Jon tanadan chiqib ketishi, qaytib kelishi mumkin. Jon tanani boshqaradi deb hisoblaganlar. Kishilar hayotida uchraydigan hodisalar (masalan, tush qurish, alahsirash, jahl, o`lim va h.k.) jonning faoliyati va xususiyati bilan tushuntirilgan. Masalan, tush ko`rish - jonning tanada chiqib ketishi va boshqa jonlar bilan uchrashishi, ulim - jonning qaytib kelmasligi bilan tushuntirilgan.

Jonning o`zini turlicha tasavvur qilganlar. Gretsialik mutafakkirlardan Geraklit (eramizdan oldingi YI asr) jonni "uchquncha"dan, Demokrit (eramizdan oldingi Y asr) "olov atomi"dan iborat deb hisoblaganlar. Shu bilan birga tabiatni o`rganish, aniq va tibbiy fanlardagi rivojlanish, kishi tanasi tuzilish haqidagi bilimlarning boyishi natijasida psixika (jon) haqidagi bilimlar ham ilmiylashib borgan. eramizdan oldingi YI asrda yashab o`tgan grek vrachi Alkmeon anatomiya hamda tibbiyot sohasidagi tajribalarga asoslanib, psixikaning organi MIYa degan fikrni ilgari surdi. Keyinchalik ko`pchilik olimlar (shu jumladan Aristotel' ham) psixikaning asosiy organi yurak bo`lsa kerak degan fikrni himoya qilganlar. Meditsina fanining "otasi" Gippokrat (eramizdan oldingi Y asr) temperament haqidagi (sharqda temperament "mijoz" deb yuritilgan) ta`limotni yaratdi. Ularning fikricha kishi temperamenti kishi tanasidagi "sharbatlar" (suyukliklar) aralashmasi va ularning nisbati bilan tushuntirilgan. Shunday qilib psixikani ilmiy tushunishga katta qadam qo`yilgan.

Ko`pchilik adabiyotlarda psixologiya fanining asoschilaridan biri ("otasi") makedoniyalik mutafakkir Aristotel' (eramizdan oldingi IY asr) deb ko`rsatiladi. Aristotel' jonning rivojlanishi tirik tabiatning rivojlanishi bilan muvofiq boradi degan g`oyani ilgari surdi va himoya kildi. Unga qadar jon va tirik tana ikki xil narsa degan qaralar edi. Aristotel' jon va tananing birligi haqidagi g`oyani maydonga tashladi. U psixika haqidagi fikrlarini "Jon haqida" nomli risolasida aks ettirdi. Bu risola psixologiya fani sohasida maxsus yozilgan birinchi asar hisoblanadi. Aristotel' tomonidan yoritilgan sezgilar, ularning turlari, assotsiatsiyalar haqidagi fikrlar bugungi kunda ham o`z dolzarbligini yo`qotgani yo`q.

eramizdan oldingi II asrda rimlik vrach Galen fiziologiya va meditsina sohasida erishilgan yutuqlarni umumlashtirib, psixikaning fiziologik asoslari haqidagi tasavvurlarni birmuncha boyitdi.

XYII asr biologik va psixologik bilimlar taraqqiyotida yangi davrni olib berdi. Tana va jonni tushunish sohasida tubdan o`zgarishlar yuz berdi. Inson tanasi mashinaga o`xshatiladi. Tana ham mashina singari ishlaydi deb qaraladi. Buyuk frantsuz mutafakkiri Dekart hatti-harakatlarning reflektor ("refleks" so`zi frantsuz tilidan kirib kelgan bo`lib "**aks ettirish**" degan ma`noni anglatadi) xarakteri haqidagi g`oyani ilgari surdi.

XIX -XX asrga kelib barcha fanlar sohasida (ayniksa biologik va aniq fanlar) erishilgan yutuqlar ta`siri ostida psixologiya fanida, psixikani tushunishda juda katta o`zgarishlar ruy berdi.

XIX - XX asrda psixologiya mustaqil, eksperimental fan sifatida rivojlandi. Bunga tabiiy fanlar sohasida, ayniksa biologiya, sezgi organlari fiziologiyasi, psixofizika va psixofiziologiya, oliv nerv faoliyati fiziologiyasining rivojlanishi, hamda

psixologiyaga pedagogika, meditsina, ishlab chiqarishning talabining kuchayishi sabab buldi.

Psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi tarixini to`rt bosqichga bulish mumkin:

I. Psixologiya jon, ruh haqidagi fan sifatida. Psixologiyaga bundan 2500 yil avval shunday ta`rif berilgan. U davrda inson hayotidagi ko`plab tushunarsiz voqealarni jon, ruh va uning xususiyatlariga bog`lab tushuntirishga uringanlar.

II. Psixologiya ong haqidagi fan. Tabiiy fanlarning rivojlanishi ta`siri ostida XYII asrda paydo buldi. Kishining fikrlash, his qilish, istaklarining nomoyon bo`lishini ong deb atadilar. Psixologiya fanining eng asosiy tadqiqot metodi - o`z-o`zini kuzatish va tahlil qilish hisoblangan.

III. Psixologiya xulq-atvor haqidagi fan sifatida. XX asrda shakllangan bo`lib, psixologiyaning asosiy vazifasi bevosita kuzatish imkoniyati bo`lgan psixik hodisalar, ya`ni kishining xulq-atvori, xarakatlari, reaktsiyasi kabilarni o`rganish hisoblangan. Kishining hatti-harakatlari ostida yotgan motivlar hisobga olinmagan.

IV. Psixologiya psixik faktlarni, psixik hodisalarning mexanizmlari va qonuniyatlarini o`rganuvchi fan sifatida. Hozirgi zamon psixologiya fani psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi, falsafa, tabiiy va tibbiy fanlar, aniq fanlar sohasidagi ko`plab boy tajribalarga asoslanib shakllangan.

PSIXIK HODISALAR VA ULARNING SHAKLLARI.

Psixologiya fanining taraqqiyoti jarayonida uning o`rganish ob`ekti ham aniqlashib bordi. Hozirgi zamon psixologiya fani "jon, ruh"ni emas, balki insonning ichki dunyosini, ya`ni uning psixik olami va psixik xususiyatlarning yuzaga chiqishini o`rganadi. Inson psixikasining barcha shakllari umumiyligini qilib psixik hodisalar deb ataladi. Odatda psixik hodisalarning uchta katta guruhi farqlanadi: psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar (sifatlar) va psixik holatlar.

Psixik jarayonlar - ob`ektiv voqelikning sub`ektiv aks ettirilishi shakllari. Psixik jarayonlar yordamida tashqi olam o`rganiladi, turli bilim, ko`nikma va malakalar shakllantiriladi. Psixik jarayonlarning quyidagi asosiy turlari farqlanadi: sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, tasavvur, emotsiyalar, iroda. Ular quyidagi uch guruhga birlashtiriladi: bilish jarayonlari, emotsiyonal (hissiy) va irodaviy xususiyatlar.

Psixik xususiyatlar (sifatlar) - shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bo`lib, ular bir kishini boshqalardan ajratib turuvchi, ular faoliyatining tipologiyasi, o`ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Psixik xususiyatlar (sifatlar) kishining nisbatan turg'un xususiyatlardir. Ular individual hayot davomida asta sekinlik bilan va kam darajada o`zgaradi. Faqat juda katta ta'sirga ega bo`lgan, favkuloddagi ta'sirlar ostidagina psixik xususiyatlar keskin o`zgarishi mumkin. Psixik xususiyatlarga temperament, xarakter, qobiliyatlar kiradi.

Psixik holatlar - kishi psixikasining dinamikasini, vaqt davomidagi o`zgarishini aks ettiradi. Psixik holatlar turli tashqi yoki ichki omillar ta'siri ostida yuzaga keladi va faoliyatning (o`qish, mehnat, o`yin) samaradorligiga ta'sir qiladi. Shu bilan birga psixik holatlar ma'lum faoliyatning natijasiga munosabat oqibati shaklida ham yuzaga keladi. Psixik holatlarga holatlarga toliqish, bezovtalik, g'azab, stress, monotonlik, depressiya, affekt, kayfiyat va boshqalar kiradi.

Yuqorida ko`rsatilgan barcha psixik hodisalar o`zaro chambarchas bog'liq va bir butun psixik faoliyatning tomonlari sifatida birgalikda yuzaga chiqadi.

Hozirgi davrda psixologiya fani bo`yicha o`quv qo`llanmalarda ko`rsatilmagan yana bir guruh psixik hodisalar mavjud. Bu guruh hodisalarni yuqorida tahlil kilingan uch guruhning birortasiga ham bevosita taalluqli deb bo`lmaydi. Bundan tashqari bu hodisalarning ko`pchiligining mohiyati, mexanizmlari to`liq o`rganilmaganligi uchun ular g`ayritabiyy, ilohiy, sirli hodisalar sifatida qarab kelinokda. Ularning barchasini **parapsixologik** hodisalar deb to`rtinchli guruhga birlashtirish mumkin. **Parapsixologik hodisalarga** tush ko`rish, gipnoz, telepatiya, telekinez, levitatsiya va boshqa turli-tuman ekstrasensor hodisalar kiradi. Bu hodisalarning ba`zilarining tabiat, mexanizmlari qisman o`rganilgan bo`lsa, boshqalari esa turli fan sohalari mutaxassislarini qiziqtirib kelayotgan muammolar qatorida turibdi.

PSIXOLOGIK NAZARIYALARING YO`NALISHLARI.

Psixologiya fanining ko`p yillik taraqqiyoti davrida bir qancha yo`nalishlar maydonga keldi.

Psixologiya oqimlaridan biri **BIXEVORIZM** (inglizcha behaviour - so`zidan olingan bo`lib, xulq-atvor ma`nosini bildiradi) dastavval AQShda hayvonlarni kuzatish sifatida yuzaga keldi. Uning nomoyondalari - D.Uotson (asoschisi), e.Torndayk.

Bixevorizmning asosida psixologik tadqiqotning predmeti sifatida psixikani, ongi inkor qilish yotadi. Ularning fikricha psixologiyaning o`rganish predmeti **XULQ-ATVOR**dir. Bixevoristlarning fikricha, psixologiyaning vazifasi stimulga (turtki, qo`zgatuvchi) (S) ga qarab bunga qanday javob, reaktsiya (R) bo`lishini, va aksincha reaktsiyaga qarab uning stimulini aniqlash va aytib berishdan iboratdir. Klassik bixevorizmning formulasi S - R demakdir. Klassik bixevorizm mexanistik yo`nalish bo`lib, bu yo`nalish tarafdorlari kishining xulq atvorini oddiy mexaniq, bir taraflama tushuntirishga harakat qilganlar. Lekin hayotda bir stimul ko`plab, turli-tuman reaktsiyalar, harakatlarni tug`dirishi va aksincha bir xil reaktsiyaning asosida bir-biriga o`xshamagan turli stimullar yotishi mumkin. Stimul va reaktsiya orasidagi bog`lanishlar atrof muhitning ta`siriga, kishining ichki dunyosiga, ongiga, qiziqishlari va boshqalarga bog`liq holda yuzaga chiqadi.

Shulardan kelib chiqqan holda neobixevoristlar (yangi bixevoristlar) o`z sxemalariga ko`p variantlilikni kiritganlar (S - R yoki R2, yoki R3 va h.k.)

FREYDIZM. Asoschisi venalik psixiatr va psixolog Z.Freyd. Ko`pchilik psixologik oqimlar orasida eng ta`sirga ega bo`lgan oqimlardan biri. Ularning fikricha odamning xulq-atvori va hatti-harakatlari ikkita printsipga "rohatlanish printsipi" (hayvonlar instinktiga o`xhash jinsiy moyillik ko`zda tutilgan) va "reallik printsipi" (jamiyat talabiga mos kelmaydigan, uyat va man qilingan o`zining jinsiy hirslariga erk bermasligi)ga bo`ysunadi. Rohatlanish va reallik printsiplarining to`qnashishi natijasida qondirilmagan mayllar ongsizlik (ong osti) sohasiga siqib chiqariladi. Ammo ular butunlay yo`qolmaydi, balki ongsizlik sohasidan turib kishi xulq-atvori va hatti-harakatlariga ta`sir qilib, ba`zan boshqarib turadilar.

HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYA FANI VA UNING FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O`RNI

Hozirgi vaqtida psixologiya o`zining alohida predmetiga, o`zining maxsus vazifalariga va o`zining maxsus tekshirish metodlariga ega. Psixologiya sohasiga taalluqli bir qancha psixologik tashqilotlar, o`quv yurtlari, nashriyotlar mavjud. Psixologlarning ilmiy assotsiatsiyalari, psixologlar jamiyatlari ish ko`rmoqda. Psixologik muammolar bo`yicha respublikamizda va xalqaro konferentsiyalar, kongresslar yig`ilib turibdi. Psixologiya fanini, uning ilmiy va amaliy ahamiyatini hozirgi kunda hamma tan olmoqda. Ma'lumki, psixologiya fani XX asrda falsafa fani tarkibidan mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. O`z-o`zidan ravshanki bu bilan psixologiya falsafadan chetda qolib, undan butunlay uzoqlashgani yo`q. Hozirgi zamon psixologiya fanining asosini falsafadagi ilmiy-falsafiy tasavvurlar, turli falsafiy qarashlar tashqil qiladi. Shu bilan birga psixologiya sohasida erishilayotgan ilmiy va amaliy yutuqlar o`z navbatida falsafa fanini, falsafiy amaliyot va nazariyani boyitadi.

Psixologiya fani faqatgina falsafa bilan emas, balki tabiiy fanlar bilan ham uzviy bog`liq. Bu borada psixologiya fanining rivojlanishiga fiziologiya sohasidagi yutuqlarning (miya faoliyati, nerv tizimi, oliy nerv faoliyati, psixikaning reflektor tabiatni, psixik jarayonlarning neyrofiziologik mexanizmlari haqidagi bilimlar) ta`sirining rolini oshirib baholash juda qiyin.

Tabiiy fanlar sohasida olingan bilimlar psixologiya fanining tabiiy-ilmiy asosini tashqil qiladi.

Hozirgi zamon texnik taraqqiyoti kishi psixikasiga katta talablar qo`yadi. Barcha sohalarda psixik omillarning roli oshib bormoqda. Kishining xotirasiga, tafakkuriga, idrokiga, temperamenti xususiyatlariga, reaktsiya tezligini hisobga olishga e'tibor kuchaymokda. Chunki odamning ishda jiddiy xatolarga yo'l qo`ymasligi, ishni buzmasligi uning psixik va shaxsiy fazilatlariga ko`p jihatdan bog'liq. Shu sababli "Odam - mashina" tizimini to`g'ri tashqil qilishda psixologiya fanining ahamiyati ortib bormoqda. Bu esa texnik fanlar va psixologiya o`rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishiga, bir-biriga kirishib ketishiga olib kelmoqda.

Psixologiya va pedagogika o`rtasidagi aloqalarni alohida ko`rsatib o`tish lozim. Garchi psixologiya va pedagogika o`zaro bog'liq fanlar bo`lsada, ular orasidagi aloqa ko`p yillar mobaynida ko`p jihatdan psixologiyaning pedagogikaga "moslashuviga", pedagogika esa psixologiya sohasida erishilgan "tayyor ma'lumotlarni" yuzaki hisobga olish tarzida bo`ldi.

Har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash vazifasi va psixologiya sohasida qo`lga kiritilgan yutuqlar ta'lif va tarbiya jarayonini takomillashtirishda psixologiyaning imkoniyatlaridan keng foydalanish imkonini beradi.

Psixologiya oldida turgan vazifalardan biri, pedagogik amaliyotda qullanilayotgan qoidalarni (ta'lif va tarbiya mazmuni, metodlari, usullari va h.k.) psixologik jihatdan asoslab berishdangina iborat emas. Psixologiya pedagogik amaliyotdan oldinda borishi, pedagogika uchun yangi yo'llar ko`rsatishi lozim. Psixologiyaning yordamisiz pedagogika o`z oldiga qo`yan ko`plab vazifalarni muvaffaqiyatli hal qila olmaydi. Chunki texnik taraqqiyot, o`zlashtirilishi lozim bo`lgan informatsiyalar hajmi va o`zlashtirish suratining keskin oshishi, mustaqil va ijodiy fikrlashga talabning oshishi amalda psixologik bilimlardan keng foydalanishni taqoza qiladi.

Ma’ruza 2. HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYA FANINING TUZILISHI VA METODLARI

1. Hozirgi zamon psixologiya fanining predmeti.
2. Hozirgi zamon psixologiya fanining metodlari.
 - a) Kuzatish
 - b) Eksperiment

Psixologik tadqiqot o`tkazish bosqichlari.

Tayanch iboralar.

Hozirgi zamon psixologiya fanining tuzilishi, uning asosiy tarmoqlari. Psixologiya fanining ilmiy tekshirish metodlari. Kuzatish. eksperiment: laboratoriya va tabiiy eksperiment. Psixodiagnostika metodlari va ularning qo`llanilishi: suhbat, anketa, faoliyat jarayoni va uning mahsulotlarini tahlil qilish. Test metodi va uning qo`llanilishi.

HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYA FANINING TUZILISHI

Hozirgi zamon psixologiya fani amaliyotning turli sohalari bilan bog’langan, g’oyat tarmoqlanib ketgan fanlar tizimidan iborat. Psixologiya fanining barcha sohalarini quyidagi asoslar bo`yicha klassifikatsiya qilish mumkin:

- 1) konkret faoliyatning psixologik tomoni;
- 2) taraqqiyotning psixologik tomoni;
- 3) insonning (taraqqiyot va faoliyat sub’ekti sifatida) jamiyatga bo`lgan munosabatining psixologik tomoni.

Konkret faoliyatning psixologik tomoni bo`yicha psixologiya fanining bir qator sohalarini ajratib ko`rsatish mumkin.

MEHNAT PSIXOLOGIYASI. Mehnat psixologiyasi inson mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashqil qilishning psixologik asoslarini o`rganadi. Odamning kasb uchun muhim ahamiyatga ega xususiyatlarini, mehnat malakalarining shakllanishi va taraqqiyoti qonuniyatlarini o`rganish, ishlab chiqarish vositalarining turli xususiyatlari (rangi, mosligi, joylashishi) ish joyi kabilarning kishiga (mehnatkashga) ta’sirini o`rganish mehnat psixologiyasining vazifasiga kiradi.

Mehnat psixologiyasining taraqqiyoti jarayonida uning tarkibidan bir qancha mustaqil sohalar ajralib chiqdi. Shulardan biri **INJENERLIK PSIXOLOGIYASI**. Injenerlik psixologiyasi inson va mashina o`rtasidagi vazifalarni taqsimlash, ularning vazifalarini muvofiqlashtirish kabi muammolarni o`rganadi. Psixologiyaning bu sohasi asosan avtomatlashtirilgan tizimlarni boshqaruvchi operatorlarning faoliyatini o`rganadi. Keyingi yillarda mehnat va injenerlik psixologiyasi tarkibidan avval aviatsiya, keyinchalik kosmik psixologiya ajralib chiqdi.

PEDAGOGIK PSIXOLOGIYANING predmeti ta’lim va tarbiya jarayonlarining qonuniyatlarini o`rganishdan iborat. Bu soha o`quvchilarda tafakkurning tarkib topishini, intellektual faoliyat malakalari va usullarini o`zlashtirishni boshqarish muammolari, ta’lim samaradorligiga ta’sir qiluvchi psixologik omillarni, pedagoglar va o`quvchilar orasidagi munosabatlarni, o`quvchilardagi individual tafovutlar va ularni

hisobga olishni, psixik taraqqiyotdan orqada qolgan bolalarga ta’lim va tarbiya berish kabi muammolarni o’rganadi. Pedagogik psixologiyaning ta’lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, pedagogik faoliyat psixologiyasi, anamol rivojlangan bolalarga ta’lim va tarbiya berish psixologiyasi kabi ko`plab tarmoqlari mavjud.

MEDISINA PSIXOLOGIYASI. Psixologiyaning bu sohasi tibbiyot xodimlarning faoliyatini, bemorlarning xulq-atvorini o`rgandi. Meditsina psixologiyasi quyidagi qismlarga bo`linib ketgan: *neyropsixologiya* - psixik hodisalarning miyadagi fiziologik tuzilmalarini, asoslarini, mexanizmlarini o`rganadi; *psixofarmakologiya* - davolashda qo`llaniladigan turli xil dorilarning kishi psixikasiga ta’sirini o`rganadi; *psixoterapiya* - bemorlarni davolashda turli psixik ta’sirlardan foydalanishni; *psixoprofilaktika* va *psixogigiena* - turli psixik kasalliklarning kelib chiqishi, ularni profilaktika qilish masalalarini o`rganadi.

YURIDIK PSIXOLOGIYA - huquq tizimida turli tadbirlarni amalga oshirish mobaynida yuzaga keladigan ko`plab masalalarini ko`rib chiqadi. Uning tarmoqlari: sud ishi psixologiyasi, kriminal psixologiya, penitentsiar yoki axloq tuzatish mehnati psixologiyasi.

HARBIY PSIXOLOGIYA - jangovor harakatlar sharoitidagi odamning xulq-atvori, boshliqlar va ularning qo`l ostidagilarning o`zaro munosabatlarining psixologik tomonlari, "psixologik urush" olib borish va unga qarshi kurash kabi masalalarini o`rganadi.

SPORT PSIXOLOGIYASI - sportchi va uning shaxsiy xususiyatlari, ularni psixologik jihatdan tayyorlash shart-sharoitlari va vositalari, sport musobaqalarini tashqil qilish va o`tkazish kabi masalalarini o`rganadi.

SAVDO PSIXOLOGIYASI - xaridorlar psixologiyasini, talablarini, ularning individual xususiyatlarini hisobga olish, xizmat ko`rsatishning psixologik omillari, reklamalarni tayyorlash, ularning xaridorga ta’siri kabi masalalarini o`rganadi.

YOSH DAVRLARI PSIXOLOGIYASI - psixik xususiyatlarning yosh davomidagi dinamikasini, psixik taraqqiyot qonuniyatlarini o`rganadi. Yosh davrlari psixologiyasi quyidagi tarmoqlarga ega: bolalar psixologiyasi, o`smirlar psixologiyasi, o`sipin yoshlar psixologiyasi, katta yoshli kishilar psixologiyasi, gerantopsixologiya (qariyalar psixologiyasi).

SOSIAL PSIXOLOGIYA (ijtimoiy psixologiya ham deb yuritiladi) - kishilar orasidagi munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan psixik hodisalarni o`rganadi. Uning predmeti turli xildagi uyushgan va uyushmagan, rasmiy va norasmiy birlashmalardagi shaxslararo munosabatlarni o`rganish. Sotsial psixologiya ijtimoiy kayfiyatni, taqlid qilish hodisasini, "psixologik yukish"ni, guruhlarda tabaqlananish va liderlik hodisalarini o`rganadi.

Shu tartibda psixologiya fanining boshqa sohalarini ham ko`rib chikish mumkin. Biz ulardan ba’zilarni sanab o’tish bilan cheklanamiz xalos. Bularga differentials psixologiya, siyosiy psixologiya, iqtisod psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, anomal taraqqiyot psixologiyasi va uning tarmoqlari, qiyosiy psixologiya (zoopsixologiya ham deb yuritiladi) va boshqalar.

PSIXOLOGIYA FANINING ASOSIY PRINSIPLARI

Hozirgi zamon psixologiya fanining quyidagi printsiplari ko`rsatib o`tish mumkin: determinizm printsipi, ong va faoliyat birligi printsipi, psixikaning faoliyatda rivojlanishi printsipi.

Determinizm printsipiga ko`ra, psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi va yashash sharoiti o`zgarishi bilan o`zgaradi. Agar hayvon psixikasi haqida gapiradigan bo`lsak, uning taraqqiyoti biologik qonuniyatlar asosida ruy beradi. Inson psixikasining taraqqiyotiga esa ishlab chiqarish usullari, ijtimoiy tarixiy omillar ta'sir qiladi.

Ong va faoliyat birligi - ong va faoliyat bir-biriga qarama-qarshi emas, ular bir butunlikni tashqil qiladilar. Ong faoliyatning ichki rejasini, uning dasturini tashqil etadi.

Psixikaning faoliyatda rivojlanishi printsipiga ko`ra psixika taraqqiyot mahsuli, faoliyat natiasi deb qaraladi. Faoliyat jarayonida (o`qish, o`yin, mehnat) odam ijtimoiy tajribani o`zlashtiradi, bu esa psixik taraqqiyotning faqat insongagina xos shaklini tarkib toptiradi.

HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYA FANINING METODLARI

Barcha fanlar kabi psixologiya fani ham o`zining tadqiqot ob`ektiga va o`z tadqiqot metodlariga ega. Psixologiyaning tadqiqot metodlari juda turli-tuman bo`lishiga qaramay ularning barchasi umumiylab talablarga va qoidalarga bo`ysunadi. Bular tadqiqotning dialektik metod bilan, ob`ektiv ravishda olib borilishi va genetik printsipga amal qilishdir.

DIALEKTIK METODga ko`ra barcha psixik hodisalarini o`zgarishda va shu psixik hodisa bilan bog`liq bo`lgan boshqa narsa va hodisalarga bog`lab o`rganilishi shart.

Ilmiy psixologik metodlarning OB`EKTIVLIGI. Psixikani o`rganishda psixik hodisalar paydo bo`lishining ob`ektiv shart-sharoitlari va ob`ektiv nomoyon bo`lishlari tekshiriladi. Bu talab bajarilmasa maxsus tayyorgarlikka ega psixolog ham ilmiy jihatdan asosli ma'lumotlar to`play olmaydi.

GENETIK printsipga amal qilishning mohiyati shundan iboratki, o`rganilayotgan har qanday psixik hodisaga protsess tarzida qaraladi. O`rganilayotgan psixik faktning tarixini, taraqqiyot momentlarini, bu momentlarning o`rin almashishlarini o`rganishdan iborat.

Hozirgi zamon psixologiya fani bir qancha aniq, tekshirilib, sinovdan o`tkazilgan, samarali metodlarga ega. Ularning asosiyalariga qisqa to`xtalib o`tamiz.

KUZATISH METODI - psixologiya fanida qadimdan keng qo`llanilib kelayotgan metodlardan biridir. Hayotiy psixologiyada aytarli barcha faktlar kuzatish yordamida to`planadi. Ular asosida dono xulosalar, maqollar, matallar to`plangan. Kuzatish metodining ikki turi farqlanadi: o`z-o`zini kuzatish va tashqi kuzatish.

O`z-o`zini kuzatish o`z vaqtida psixologiyaning eng asosiy metodi deb hisoblangan. Chunki, bu nuqtai-nazar tarafdarlari fikricha, kishining haqiqiy ruhiy holatlarni kishining o`zi biladi va tushunadi xolos. Boshqa kishi bu hodisalarini oxirigacha hech qachon tushuna olmaydi. Haqiqatda esa o`z-o`zini kuzatish sub`ektivlikka egadir. O`z-o`zini kuzatish shu sababli psixologiyaning yagona ishonchli metodi bo`la olmaydi.

Tashqi kuzatish - bir kishining boshqa kishi tomonidan kuzatilishi. Kuzatishning bu turi turli vositalar (fotoapparat, kinokamera, xronometraj va boshqa murakkab kuzatish va ma'lumotlarni aks ettirish vositalari) ko`llab olib boriladi.

Kuzatish psixik hodisalarining tashqi alomatlarini tasvirlash bilan cheklanib qolmay, balki bu hodisalarining psixologik tabiatini tushuntirib bersagina, u haqiqiy psixologik tadqiqot metodi bo`la oladi. Kuzatishning mohiyati faktlarni qayd etish emas, balki ana shu psixologik faktlarning sabablarini ilmiy tushuntirib berishdan iborat. Hayotiy kuzatishda ham odamlar kuzatadilar va ma'lum xulosalarga keladilar.

Ilmiy psixologik kuzatish turmushdagi kuzatishdan farq qiladi va olingan natijalarni ilmiy tahlil qilishga yo`naltirilgan.

Ilmiy kuzatish quyidagi talablarga javob berishi shart (talablar):

- gipoteza (faraz)ning mavjudligi uni tekshirish;
- kuzatishning aniq reja asosida olib borilishi;
- kuzatilayotgan kishining kuzatish va uning maqsadini bilmasligi (yashirinligi);
- kuzatishning tizimli tarzda olib borilishi;
- kuzatishning ob'ektivligi (kuzatuvchining shaxsiy munosabatlari, hissiyotlari natijada aks etmasligi lozim).

EKSPERIMENT - yangi psixologik faktlarni olishning va ob'ektiv ilmiy bilishning asosiy qurollaridan biri. eksperiment metodi keyingi yillarda psixologiya fanining eng yetakchi metodlaridan biriga aylandi.

Eksperiment - kishini maxsus jihozlangan laboratoriya sharoitlarida o`rganish. Psixologik eksperiment psixologik faktni aniq nomoyon qilishga yordam beradigan sharoitni yuzaga keltirish maqsadida tadqiqotchining tekshiriluvchi faoliyatiga aralashishini taqoza qiladi. eksperimentning ustunlik tomonlaridan biri, eksperimentator tajriba davomida eksperimentning borishini nazorat qiladi va boshqarishi, bir necha marta takrorlashi mumkin.

eksperiment metodining ikkita asosiy turi farqlanadi: laboratoriya eksperimenti va tabiiy eksperiment.

Laboratoriya eksperimenti laboratoriya sharoitida maxsus psixologik jihozlar yordamida o`tkaziladi. Tekshiriluvchi kishining nima qilishlari lozimligi ularga oldindan ogoxlantirib kuyiladi.

Tabiiy eksperiment (1910 yilda A.F.Lazurskiy tomonidan tavsiya qilingan) mohiyatiga ko`ra, eksperiment sharoitida tekshiriluvchiga o`zi ustida tajriba olib borilayotganini bildirmaslikka qaratilgan bo`lib, tadqiqotni odatdagি tabiiy sharoitga ko`chiradi. eksperimentning yuqoridaq ikki turidan tashqari psixologo-pedagogik eksperiment va shakllantiruvchi eksperiment deb ataluvchi ikkita turi mavjud bo`lib, ular pedagogikada keng qo`llaniladi.

FAOLIYAT NATIJALARINI PSIXOLOGIK TAHLIL QILISH - psixologik metodlarning bir ko`rinishidir. Faoliyat natijalarini tahlil qilish jarayonida natijaning o`zi emas, balki shu natijani hosil qilish bilan bog`liq faoliyat psixologik jihatdan baholanadi. Bu metod, ayniqsa, bolalar psixologiyasida keng qo`llaniladi. Bolalarning chizgan rasmlarini o`rganish orqali ularning psixikasi va taraqqiyoti haqida ma'lumotlar olinadi.

Yuqorida ko`rsatilgan metodlar asosan tadqiqot maqsadida qo`llaniladi. Bundan tashqari ba`zi psixologik metodlar sinash maqsadida ham qo`llaniladi. Bunda maqsad psixologiya faniga, ilmiy bilimlarga biror yangilik kiritish, qonuniyat ochish emas. Bu metodlarning o`rganilayotgan shaxsda biror xususiyatning mavjudligi, uning taraqqiyot

darajasi, turli meyorlarga mos kelishi darajasini aniqlashdir. Shunday metodlarning barchasi umumiy nom bilan TEST deb yuritiladi.

TEST - qisqa muddat ichida bajariladigan, standart vazifalardan iborat. Ularning natijalarini sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish orqali kishida o`rganilayotgan psixik funktsiya va xususiyatlarning nechoglik takomillashganligi va rivojlanganlik darajasi baholanadi. Testlar yordamida kishining biror kasbga layoqatliligi, aqliy rivojlanish darajasi, bilim darajasi o`rganiladi. Testlarning samaradorligi ularni tuzish uchun asoslanilgan metodologiya, test tuzilishining ko`plab talablarga javob berishi, o`tkazish sharoiti va talablarning adekvatligi bilan aniqlanadi.

Bulardan tashqari psixologiya fanida ANKETA, SUHBAT, BIOGRAFIK metodlar keng qo`llaniladi.

PSIXOLOGIK TADQIQOT O`TKAZISHNING ASOSIY BOSQICHLARI

Har qanday tadqiqot va o`rganishlar o`z maqsadiga, yo`nalishiga, qo`llanilayotgan vositalarning xususiyatiga, amaliy yoki nazariy ahamiyatiga ko`ra turlicha o`tkaziladi. Shu bilan birga ularning umumiy tomonlari ham mavjud. Masalan, har qanday tadqiqot to`rt bosqichda o`tkaziladi.

Birinchi bosqich - *tayyorgarlik* bosqichi. Bu bosqichda material turli vositalar bilan o`rganiladi, o`rganilayotgan hodisalar haqida dastlabki materiallar to`planadi. To`plangan materiallar tahlil qilinadi. Bu bosqichda tadqiqotchida ma'lum gipoteza (faraz) paydo bo`la boshlaydi. Bu faraz tadqiqot jarayonida yoki tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi. Har qanday tadqiqotning samadorligi, to`g`ri tadqiqot yo`lini tanlash ko`p jihatdan tayyorgarlik bosqichiga bog`liq.

Ikkinci bosqich - bevosita **tadqiqot** o`tkazish bosqichi. Bunda tadqiqotning konkret metodikalari ishga solinadi. Bu bosqichda tadqiqotchi o`z tadqiqotlar maqsadidan kelib chiqqan holda bir yoki bir necha konkret metodikalardan (eksperimentlardan) foydalanadi. Tekshirish (eksperiment) o`tkazilib zaruriy tadqiqot (eksperimental) ma'lumotlar yig`iladi.

Uchinchi bosqich tadqiqot davomida to`plangan ma'lumotlarni miqdor **jihatdan ishlab** chiqish. Psixologiya fanida, bu bosqichda ko`plab samarali matematik metodlardan, statistik usullardan foydalaniladi.

Tadqiqotning to`rtinchi bosqichi **olingan natijalarni tushuntirib berishdan** iborat. Bu bosqichda to`plangan va matematik metodlar yordamida ishlab chiqilgan ma'lumotlar psixologik nuqtai-nazardan izohlanadi va tadqiqot gipotezasining to`g`ri yoki noto`g`riliği uzil kesil hal qilinadi.

Ma’ruza 3. BIOLOGIK EVOLYUSIYADA PSIXIKANING PAYDO BO`LISHI VA RIVOJLANISHI.

Reja:

- 1. Psixika materiya evolyutsiyasining natijasi sifatida.**
- 2. Seskanuvchanlik va tropizmlar.**
- 3. Instinktlar, ko`nikmalar va hayvonlarning aqliy hatti-harakatlari.**
- 4. Inson va hayvonlar psixikasi o`rtasidagi farqlar.**
- 5. Inson ongi.**

Tayanch iboralar:

Psixikaning paydo bo`lishi haqidagi nazariyalar. Psixikaning funktsiyalari: signallik va boshqaruv. Psixikaning evolyutsion taraqqiyoti: seskanuvchanlik, tropizmlar. Hayvonlar olamida psixikaning taraqqiyot shakllari; instinktlar, ko`nikmalar, intellektual hatti - harakatlar.

Psixik funktsiyalarning muhit va organlarning tuzilishi bilan bog`liqligi. Psixika va muhit. Miya va psixika.

Inson ongi. Ong taraqqiyotida mehnatning roli. Ongning psixologik xarakteristikasi va tuzilishi.

PSIXIKA MATERIYA EVOLYUSIYASINING NATIJASI SIFATIDA.

Psixikaning paydo bo`lishi materiyaning uzoq taraqqiyoti bilan tushuntiriladi. Jamiki materiya, jonsiz anorganiq materiyadan tortib, to materiyaning yuksak hamda murakkab shakli - inson miyasigacha moddiy olamning umumiy xususiyati bulmish aks ettirish xususiyatiga, ya’ni ta’sirlarga javob qaytarish qobiliyatiga ega. Aks ettirish shakllari materiyaning yashash shakllariga bog`liqdir.

Jonsiz tabiatda harakat jiism yoki moddalarning o`zaro mexaniq, fizik yoki ximiyaviy munosabatlari tarzida nomoyon bo`lishi mumkin. Masalan, suvning daryo qirg’oqlarini, qoyalarni yuvishi va yemirishi, quyosh nurining oynadan aks etishi (sinib qaytishi).

Tirik materiyaga o`tishda harakatning shakllari sifat jihatdan o`zgaradi. Tirik materiyaga aks ettirishning biologik shakllari xosdir. Tirik materiyada aks ettirishning yangi shakli - psixik aks ettirish paydo bo`ladi.

Materiyaning evoltsiyasida jonsiz materiyadan jonli materiyaga o`tishni turli nazariyalar turlicha tushuntiradilar.

Shular orasidan akademik A.I.Oparin tomonidan ilgari surilgan nazariyani ko`rsatib o`tish mumkin. Oparin gipotezasiga muvofiq, bundan taxminan 2 milliard yillar muqaddam atmosferada kislorod ajralib chiqqan. Bu organiq moddalarda fotoximik reaksiya va fotosintez jarayonlarning yuzaga kelishiga sabab bo`lgan. Oqibatda KOASERVATLAR deb atalgan faol oqsil molekulalari paydo bo`lgan. Koatservatlarda hayotning asosiy belgilari - assimilyatsiya va dissimilyatsiya jarayonlari paydo bo`lgan. Koatservatlar tashqi muhitdagi "ozuq" moddalarni tanlab o`zlashtirganlar. Ular YaShASH UCHUN ZARUR BO`LGAN (BIOTIK) MODDALARGA ma’lum darajada SESKANISH bilan javob bergenlar va hayot faoliyati uchun bevosita kerak bo`lmagan (ABIOTIK) moddalarga nisbatan INDIFFERENT (BEFARQ) munosabatda bo`lganlar.

SESKANUVCHANLIK VA TROPIZMLAR

Biz yuqorida ko`rib o`tgan SESKANUVCHANLIK o`simliklardan tortib hayvonlargacha mavjud. Seskanuvchanlik tirik organizlarning biologik ahamiyatga ega bo`lgan (biotik) ta`sirlarga javob qaytarish qobiliyatidir. Sodda, bir hujayrali tirik organizmlardayoq elementar seskanuvchanlik xususiyati bo`lib, ular tashqi muhit ta`siriga harakat bilan javob qaytaradilar.

Biotik faktorlarga maxsus harakatlar bilan javob qilish usullariga TROPIZM yoki TAKSISlar deb ataladi. Tropizmlar har xil bo`ladi: **fototropizm** - tirik organizmning yorug'lik ta`siri ostida harakatga kelishi; **termotropizm** - tirik organizmning issiqlik ta`siri ostida harakatga qilishga moyilligi; **xemotropizm** - tirik organizmning ma'lum fizik-ximiyaviy muhitni tanlab olishga bo`lgan moyilligi; **topotropizm** - tirik organizmning mexaniq qo`zgatuvchi ta`siri ostida harakatga kelishi va h.k. O`simliklar olamida aks ettirishning biologik shakli faqatgina tropizmlardan iborat.

Hayvonlarda ta`sirlanishning yangi turi - **SEZUVCHANLIK** yuzaga kelgan. Seskanuvchanlikdan sezuvchanlikka o`tish boshqacha hayot tarixi bilan bog'liqdir.

A.N.Leont'evning gipotezasiga ko`ra, *"genetik jihatdan qaraganda, muhitning organizmni boshqa ta'surotlar bilan bog'lovchi, organizmni muhitda mo`jal olishga yordam beruvchi, signallik vazifasini o'tovchi ta`sirlarga javob ta'siridan bo`lak narsa emas"*.

Yuksak tashqil topgan hayvonlarda sezuvchanlik taraqqiy etadi, sezgi organlari (a'zolari) tarkib topadi. Narsalarning aslida befarq, ya`ni organiq ehtiyojlarni qondirmaydigan belgilari (xidlari, shakllari, ranglari) signallik ahamiyatiga ega bo`ladi. Shu sababdan hatto eng sodda hayvon ham ma'lum sharoitda faqat biotik qo`zgatuvchilarga emas, balki ayni shu konkret vaziyatda biotik qo`zgatuvchining paydo bo`lganidan signal beruvchi abiotik, indifferent qo`zgatuvchilarga ham javob bera boshlashi mumkin.

Yashash usulining o`zgarishi bilan ko`p hujayrali organizmlarda tanalarining tuzilishi ham murakkablashib boradi, ma'lum turdag'i qo`zg'atuvchilarni aks ettiruvchi maxsus organlar - SEZGI ORGANLARI rivojlanadi, AKS ETTIRISH SHAKLLARI ham anchagina murakkablashadi.

Nerv tizimi taraqqiyoti nerv tizimi taraqqiyoti, sezgi organlarning taraqqiyoti bilan, hayvonlarning hayot kechirishi tarziga moslashuvchanlik, ijro qiluvchanlik bilan birga, axborot olish jarayonida bevosita ishtirok etadigan harakat organlari taraqqiyoti bilan mustahkam bog'langandir.

Hayvonlar olamida aks ettirishning turli xildagi barcha shakllari orasidagi umumiylilik va ularning hatti-harakatlarining mexanizmlarini hisobga olgan holda hayvonlarning INSTINKTIV harakatlari, KO`NIKMALAR va AQLIY (intellektual) hatti-harakatlari farqlanadi.

INSTINKTLAR

Instinktlar hayvonlar hatti-harakatlarining murakkab, tug'ma shaklidir. Masalan: quşlarning in yasashda cho`p, loy tanlashi, o`rgimchaklarning to`qish san'ati. Asalari o`z kataklarida go`yo puxta hisob qilib turganday, aniq reja bilan quradi. Bundan tashqari asalarilarda bir-biriga xabar berish qobiliyati mavjud. Instinktlar bir qator moslashuv harakatlari tizmasidan iborat. Bir harakatning tugallanishi boshqa harakatni

vujudga keltiradi. Instinkтив harakatlar yuzaki kuzatganda o`zining "maqsadga muvofiqliligi" bilan kishini hayratda qoldiradi. Biroq bu "maqsadga muvofiq" hatti-harakatlarda maqsadni anglashni uchratmaymiz. Instinktlar ma'lum tashqi qo`zg`atuvchi(lar)ning ta'sir ko`rsatishiga javob tariqasida yuzaga keladi. Instinkтив hatti-harakat deyarli o`zgarmaydi, lekin bu harakatning biron ta'min qismi o`zgarib qolsa, u har gal maqsadga muvofiqligini yo`qotadi. Masalan, agar asalarilarning asal saklash uchun yasalgan uyalarini orqa tomonidan qirqib qo`yilsa (ya`ni tagi teshib qo`yilsa), bunday holda asalari ma'lum miqdordagi asalni tagi teshik uyaga solib, garchi asal uyaning tagidan allaqachon oqib ketgan bo`lsa ham, uyaning og`zini ustki tomonidan mum bilan berkitib quya beradi. Harakatlarning instinkтив shakllari faqat doimiy sharoitlarda maqsadga muvofiqliqlar. Shuni qayd qilib qilib o`tish kerakki, garchi ma'lum instinktlar bir turdag'i barcha organizmlarga xos bo`lsa ham, lekin ularni amalga oshirish alohida organizmlarda biroz boshqacharoq bo`ladi. Instinkтив hatti-harakatlarning ana shunday nisbatan har xil tarzda amalga oshirilishi yashash sharoiti keskin o`zgargan holda organizmlar turining saqlanib qolishiga imkon beradi.

KO`NIKMALAR

Yuksak taraqqiy etgan hayvonlar hayotida, xususan sut emizuvchilarda hatti-harakatning yanada aynanroq aks ettirishga yordam beruvchi yangi, ildamroq shakllari ko`proq rol o`ynaydi. Bular - ko`nikmalar (harakatning individual tarzda orttirilgan shakllari). Ko`nikma deganda hayvonlarda shartli bog'lanishlar asosida yuz beruvchi va avtomatik ravishda sodir bo`luvchi harakatlar tushuniladi. Instinktlar singari ko`nikmalar ham taraqqiyotning turli bosqichlarida uchraydi. Lekin yaqqol ifodalangan ko`nikmalarni faqat bosh miyaning po`stiga ega bo`lgan hayvonlardagina ko`rish mumkin.

Hayvonlar ko`nikmalarining tarkibiga kiruvchi harakat elementlari hayvon mansub bo`lgan turning tajribasini qayta tiklovchi tug`ma harakatlardan ham takrorlash jarayonida mustahkamlangan tasodifiy harakat namunalaridan iborat bo`lmog'i mumkin. Hayvonlarda hosil qilingan (bo`lgan) ko`nikmalar sharoit murakkablashishi yoki o`zgarishi bilan o`zi ham o`zgarishi, yangi, o`zgartirilgan sharoitga ko`chishi mumkin. Ko`nikmalar bir-birlaridan muhim jihatdan farq qilishlari mumkin: bir holatda ko`nikmalar o`zlarining avtomatizmlariga ko`ra instinktlarga yaqinlashsalar, boshqa bir holatda intellektual harakatlarga yaqinlashadilar.

HAYVONLARNING INTELLEKTUAL HARAKATLARI

Ayrim narsalar o`rtasidagi murakkab munosabatlarning aks ettirilishi intellektual harakatlarning asosini tashqil qiladi. Yuksak darajada taraqqiy etgan hayvonlar narsalar o`rtasidagi munosabatlarni paykay (baholay) oladilar va mazkur vaziyatga qarab, uning natijasini oldindan ko`ra oladilar. Bunday harakatni aqliy (intellektual) harakat tipi deyish mumkin.

Olimlar yuksak darajada taraqqiy etgan hayvonlar orasida primatlarni (odamsimon maymunlarni) alohida o`ringa qo`yadilar. Ularning faoliyatining aktivligi, buning ustiga ularda ko`zning yuksak darajada taraqqiy qilganligi ularning idrok doiralarini beqiyos ravishda kengaytiradi, tajriba boyliklarini nihoyatda oshirib yuboradi, ko`nikmalarning tarkib topishi hamda harakat shakllarining vujudga kelishi uchun boshqa hayvonlardagiga qaraganda baquvvat asosni yuzaga keltiradi.

Maymunlar intellekti (aqli) ularning murakkab masalalarni yecha olishlari bilan ajralib qolmay, balki ular faoliyatining yo`nalishi bilan ham xarakterlanadi. Maymunlar qo`llariga tushib qolgan narsalarni soatlar davomida mayda bo`laklarga ajratadilar, odamlarni har xil usullar bilan o`z qafaslari oldiga jalb qiladilar, yerda sudralib ketayotgan hashoratni kuzatib tura oladilar. Maymunlar xulq-atvordagi bunday xususiyatlarning kelib chiqishiga ularning yashash usuli sabab bo`lgan. Boshqa hayvonlarga nisbatan maymunlarda harakatlarning taraqqiyot darajasi qo`l tipidagi oldingi oyoqlarning mavjudligi bilan ham bog`liqdir. "Qo`l"ning mavjudligi tufayli maymunlar tevarak-atrofdagi narsalar bilan juda murakkab munosabatlarga kirishish imkoniyatiga egadir.

Ma`lum sharoitlarda maymunlarda harakatlarning instinkтив shakllari ham nomoyon bo`ladi. Biroq yuksak darajada taraqqiy etgan maymunlarning instinkтив harakatlari taraqqiyotning pastki bosqichidagi hayvonlarning instinkтив harakatlaridan jiddiy farq qiladi. Masalan uy qurish jarayonida maymunlar materialni analiz qilib ko`rar ekan. Instinklarda tashqi sharoit hisobga olinar ekan.

Maymunlarda ko`nikma hosil qilishning ham o`ziga xosligi bor. Agar past darajada rivojlangan hayvonlarda ko`nikma tez shakllantirilsa, maymunlarda bu jarayon biroz murakkab kechadi. Maymunlarning "qiziquvchanligi" natijasida ularning diqqatini ko`pincha biror harakat va ob`ektga qaratish, to`plash qiyin.

INSON VA HAYVONLAR PSIXIKASI O`RTASIDAGI FARQLAR

Inson psixikasi bilan eng yuksak darajada taraqqiy etgan hayvon psixikasi o`rtasida juda katta farq borligiga hech qanday shubxa yo`q.

- Hayvonlar "*tili*" bilan inson tilini hech bir jihatdan taqqoslab bo`lmaydi. Hayvon o`z to`dasidagi boshqa hayvonlarga ayni choqdagi vaziyat va hodisalar haqida signal bera oladi xalos. Inson til yordamida boshqa odamlarga o`tgan, hozirgi, va kelgusi zamondagi narsalar haqida ma`lumot bera oladi, ijtimoiy tajribani uzata oladi.

- Hayvonlar va odam *tafakkuri* o`rtasidagi farq ham ular tili o`rtasidagi farqqa bog`liqdir. Yuksak taraqqiy etgan hayvonlarga faqat amaliy ("qo`l") tafakkuri xos, ularda abstrakt tafakkur yo`q. Shu sababli hayvon bevosita idrok qilinayotgan vaziyatning quli. Odamning hatti-harakatlari biron-bir konkret vaziyatdan abstraktlashishi va shu vaziyatning natijalarini oldindan ko`ra olish qobiliyatiga ega. Odamning abstrakt tafakkur qila olish qobiliyati uni muayan biron vaziyatga bevosita qaramlikdan qutqaradi.

- *Qurol yasash* va uni asrash qobiliyatiga egalik odamni hayvondan ajratuvchi farqlardan biridir. Konkret vaziyatdan tashqarida hayvon hech vaqt qurolni boshqa narsalardan farqlab, qurol sifatida ajratmaydi va uni keyinchalik qurol sifatida foydalanish uchun saqlab qo`ymaydi. Hayvondan odamning farqi shundaki, u ilgaridan o`ylab qo`yan reja asosida qurol yasaydi, qurolni tegishli maqsadlarda foydalanadi, va uni saqlab qo`yadi. Odam nisbiy doimiy buyumlar olamida yashaydi.

- Odam psixik faoliyatining yana bir farqi shundaki, inson o`zidan keyingi avlodlarga *ijtimoiy tajriba* qoldiradi.

- Odam va hayvonlar o`rtasidagi g`oyat muhim farqlardan biri ular *hissiyoti* o`rtasidagi farqdir. Albatta yuksak darajada taraqqiy etgan hayvonlar ham atrofida bo`layotgan voqealarga befarq munosabatda bo`lmaydi. Lekin faqat odamdagina boshqa

odamning qayg'u va shodligiga qo'shilish, hamdard bo'lish hissi rivojlangan. Faqat odamgina tabiat manzaralaridan lazzatlana oladi, faqat odamdagina intellektual hissiyot mavjud.

- Yana bir farq odam va hayvonlarning *rivojlanish sharoitlaridagi* farqdir. Hayvonlarning rivojlanishi biologik qonuniyatlarga asosida boradi. Odamning rivojlanishi, uning ongingin taraqqiyotida ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot qonunlari ustunlik qiladi.

ONG HAQIDA TUSHUNCHA

Ob'ektiv borliq inson miyasida turli xil darajada aks etadi. Ong psixikaning eng yuksak darajasi bo'lib, u faqat insongagina xosdir. Ong ijtimoiy-tarixiy sharoitda, mehnat faoliyatida boshqa odamlar bilan til yordamida munosabatda bo`lishi natijasida shakllangan. Ontogenetik taraqqiyot jarayonida ham ong ijtimoiy muhit ta'siri ostida faoliyat va muloqot jarayonida shakllanadi.

Ongning mohiyatini to`g'ri tushunish uchun uning tuzilishini ko'rib chiqish lozim. Ong quyidagi to`rt muhim psixologik xarakteristika bilan aniqlanadi.

I. Ongning birinchi xarakteristikasi uning nomida aks ettirilgan: *ong, anglash*. Inson ongi tevarak-atrof, tashqi va insonning o`zining ichki dunyosiga oid bilimlar to`plami, yig'indisidan iboratdir. Agar inson tashqi olam va o`zi ichki dunyosi haqida bilimlarni o`zlashtirish va anglashdek muhim xususiyatdan mahrum bo`lganda, unda hech qanday bilim va ong shakllanmagan bo`lar edi. Bizning bilimlarimiz ongning birlamchi asosini tashqil qiladi. Bilimlar turli psixik jarayonlar (bilimlar sezgi, idrok, diqqat va h.k. yordamida o`zlashtiriladi, xotirada saqlanadi, tafakkur jarayonida tahlil qilinadi) yordamida o`zlashtiriladi va boyitib boriladi. Bilish jarayonlaridan birining buzilishi, kasallanishi (batomom ishdan chiqishi haqida gapirmasak ham bo`ladi) ongning buzilishiga olib keladi.

II. Ongning ikkinchi xarakteristikasi - unda *sub'ekt va ob'ekt* o`rtasidagi farq o`z ifodasini topadi. Boshqacha qilib aytganda inson o`zini boshqalardan va tashqi olamdan farqlaydi, unda "men" va "men emas" tushunchasi mavjud. Odam organiq olam tarixida birinchi marta undan ajralib chiqdi va o`zini tashqi olam, tevarak-atrofdagi muhitga qarshi kuydi. Bunday xususiyatning paydo bo`lishining natijasi *insonning o`z-o`zini bilishi va uzligini anglashida, o`z-o`zini baholashida* aks etadi. Insongina o`zining tashqi olamdan, predmetlardan, boshqa kishilardan farqini, ustunligi va kamchiliklarini anglay oladi. Shunday anglash va taqqoslash kishining shaxs sifatida rivojlanishining asosini tashqil qiladi. Nafaqat alohida shaxsning, balki millatning, xalqning rivojlanishi ham uning uzligini anglashi bilan bog'liq.

III. Ongning uchinchi xarakteristikasi - *maqsad quyish va maqsadga yo`nalganlik* bilan belgilanadi. Har qanday faoliyat maqsadini aniqlash ongning funktsiyasi. Har qanday faoliyatni amalga oshirishda maqsad kuyiladi, faoliyat motivlari yuzaga keladi, irodaviy qarorlar qabul qilinadi, harakatlarni bajarish yo'llari ishlab chiqiladi va sharoitni hisobga olgan holda zaruriy tuzatishlar kiritib boriladi. Ma'lum sabablar ta'sirida maqsad ko`zlash yoki uni boshqarish, koordinatsiya qilishdagi buzilishlar ongning buzilishiga olib keladi.

IV. Ongning to`rtinchi xarakteristikasi - unda odamning ma'lum *munosabatlari* aks etishida. Inson o`z atrofida bo`layotgan voqealarga, ob'ektiv borliqqa, o`z faoliyati va uning natijalariga adekvat munosabatda bo`ladi. Bu munosabat uning his-tuygularida

nomoyon bo`ladi. His-tuygular va munosabatlarning o`zgarishi, noadekvatligi ongning buzilishidan darak beradi.

Til, o`zaro munosabatlar, faoliyat ongning yuqorida ko`rsatilgan barcha sifatlarining tarkib topishining zaruriy sharoiti hisoblanadi.

Psixologiya fanida "ong" tushunchasi bilan bir qatorda "*ongsizlik*", "*ong osti*" tushunchalari ham o`rganiladi va tahlil qilinadi. Ongsizlik psixikaning kuyi darajasi bo`lib, bunda qilinayotgan ishlarga hisobat berilmaydi, xulq-atvor va hatti-harakatlar ongli ravishda boshqarilmaydi. Ongsizlik sohasiga quyidagi psixik hodisalarini kiritish mumkin: uyqi holatidagi hodisalar (tush ko`rish); ilgari ongli bajarilgan, ammo ko`p takrorlanishi natijasida avtomatlashib ketgan hatti-harakatlar; faoliyatga undovchi, ammo anglanmaydigan mayllar va h.k. Kasal odam psixikasida yuzaga keladigan ba`zi patologik holatlar ham ongsizlik hodisalarini jumlasiga kiradi: alahlash, gallyutsinatsiya va shu kabilar.

Ma’ruza 4. SHAXSNING PSIXOLOGIK XARAKTERISTIKASI.

Reja:

- 1. Psixologiyada shaxs tushunchasi.**
- 2. Shaxs tuzilishida biologik va ijtimoiy omillar.**
- 3. Shaxs haqidagi psixologik nazariyalar.**
 - a) An’anaviy nazariyalar;
 - b) Yangi nazariyalar.
 - v) shaxs haqidagi eng yangi nazariyalar.

Tayanch iboralar:

Psixologiyada "shaxs", "individ", "individuallik" tushunchalari va ularning mohiyati. Shaxsnинг mohiyatini tushuntirishdagi turli xil oqimlarning qarashlari: biogenetik, sotsiogenetik kontseptsiyalar. Bexivorizm, Freydizm va h.k.

Shaxsning tuzilishi. Shaxs faolligi. ehtiyojlar shaxs faolligining manbai sifatida. ehtiyojlarning turlari. ehtiyojlarni tarbiyalash muammosi. Motiv shaxs ehtiyojining namoen bo`lishi sifatida. Faoliyat va xulq-atvor motivlari. Shaxsning yo`nalganligi. Shaxsning maslagi, iymoni, vijdoni, dunyoqarashi kabi ijtimoiy muhim xususiyatlarini shakllantirish. Shaxs rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari. O`qitishda va shaxs rivojlanishida uning yo`nalganligi roli.

PSIXOLOGIYADA SHAXS TUSHUNCHASI.

Inson, odam juda ko`plab fanlarning o`rganish ob`ekti bo`lib hisoblanadi. Ular odamlarning turli tomonlarini va hayot tarzini, rivojlanishini va boshqalarni o`rganadi. O`z ob`ektini belgilash va ta`riflash uchun turli tushunchalar qo`llaniladi. Psixologiya fani odamni jamiyatda, boshqalar bilan munosabatda bo`luvchi ongli faoliyat sub`ekti sifatida o`rganadi. Psixologiya fanida odamni ta`riflashda ko`plab tushunchalar qo`llaniladi. Shu jumladan "shaxs", "individ", "individuallik" tushunchalari ham qo`llaniladi.

Odamning insonlik jinsiga mansubligi INDIVID tushunchasi bilan ifodalanadi. Katta yoshdagi kishilar, chakaloklar, tilni va oddiy malakalarni o`zlashtira olmaydigan ruhiy kasallar (telbalar) ham individdir. Individ tushunchasida kishining biologik turga mansubligi aks ettirilgan. Barcha kishilar (odamlar) individdir.

"Individ" tushunchasida kishining nasl - nasabi ham mujassamlashgandir. Yangi tugilgan chakalokni ham, katta yeshdagi odamni ham, mutafakkirni ham, akli zaif ovsarni ham, yovvoyilik bosqichidagi kabilaning vakilini ham, madaniyatli mamlakatda yashaetgan yuksak bilimli kishini ham individ deb hisoblash mumkin.

Individ sifatida dunyoga kelgan kishi hayot jarayonida alohida sotsial fazilat kashf etadi, shaxs bo`lib yetishadi. Individ sifatida dunyoga kelgan odam keyinchalik, jamiyatdagina SHAXSGA aylanadi. Ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi, ijtimoiy taraqqiyotda ishtirok etuvchi odamgina shaxs deyiladi. Shaxsning eng asosiy belgisi - uning **ongli faoliyat egasi** ekanlidir. Ma'lumki kishi ongi faqat jamiyatda, boshqalar bilan o`zaro munosabatda, til yordamida ijtimoiy tajribani o`zlashtirishda shakllanadi. Binobarin shaxs ham faqat jamiyatdagina shaxsga aylanishi mumkin.

Shaxs tushunchasida odamning ijtimoiy xarakteri aks ettirilgan. Lekin shaxsni ijtimoiy muhitning passiv mahsuloti deb qarab bo`lmaydi. Shaxs ijtimoiy tajribani faol

ravishda tahlil qiladi, o`zlashtiradi, o`zi uchun o`zgartiradi - bu jarayon davomida o`zi ham shaxs sifatida shakllanadi. Shaxsning faolligi uning o`zi hayot uchun yo`l tanlashida, bu yo`lni egallashida, hayotda o`z mavkei va urnini anglashida ifodalanadi. Shaxs shakllanib borgan sayin tashqi ta`sirlar, shu jumladan ijtimoiy ta`sirlar ham uning ichki dunyosi, psixologiyasiga qarab turli odamlarga turlicha ta`sir qiladilar. Masalan bir xil baho turli o`quvchilarga turlicha ta`sir qiladi.

Shaxsni faqat psixologiya emas, balki sotsiologiya, tarix, san'atshunoslik, estetika, etika, pedagogika, meditsina, yuridik va boshqa fanlar ham o`rganadi.

Odamning shaxs sifatidagi asosiy belgisi: sotsialligi, ongi va tilidir.

Inson shaxsining xarakterli tomonlaridan biri uning INDIVIDUALLIGIDIR.

INDIVIDUALLIK - shaxs psixologik, ijtimoiy, fiziologik xususiyatlarining birikmalarining qaytarilmasligidir. Shaxsning individualligi uning xarakteri, temperamenti, psixik jarayonlarining dinamikasi, hissiyotlari, faoliyatining motivlari, qobiliyatlari va shunga o`xshashlarning yigindisiga bog'liq. Bo'larning hammasini birga qushib, mujassamlashtirsak, ikkita bir xil odam bo`lmagan va bo`lmaydi ham.

Har bir odam o`ziga mansub bo`lgan sinf millatiga xos ko`pgina umumiyligida sifatlarga ega bo`lishi bilan bir qatorda o`zining shaxsiy fazilatlariga egaki, bu sifatlar uni takrorlanmas individuallikka aylantiradi. Olamda ikkita bir xil kishi yo`q. Individuallik kishining o`ziga xosligini uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik temperament va xarakter xususiyatlarda, odatlarda, ustun darajadagi qiziqishlarda, bilish jarayonlarga oid fazilatlar (idrok, xotira, tafakkur, tasavvur) da, qobiliyatlarda, faoliyatning shaxsga xos uslubida va xokozalarda namoen bo`ladi. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o`zida mujassamlashtirgan odam yo`q - inson shaxsi o`z individualligi jihatidan betakordir.

Shunday qilib, individuallik inson shaxsiga xos fazilatlarning faqat bitta jihatni bo`lib hisoblanadi, xolos.

Ma'lumki odam jamiyatda turli guruhlarda (oilada, o`qishda, ishda, davrada) bo`ladi. Har bir guruhda o`ziga xos, ba`zan butunlay bir-biriga o`xshamaydigan rollarni o`ynaydi. Lekin shunga qaramay, ko`pincha odam har turli vaziyatlarda o`xshash sifatlarni nomoyon qiladi. Bir qarashda qarama-qarshi ko`ringan xususiyatlarning nomoyon bo`lishida umumiylilik bor.

Ana shu shaxs sifatlarining bir-biriga mosligi shaxsning YAXLITLIGINI ko`rsatadi.

Shaxsning psixologik tuzilishi, psixologik xususiyatlarining birikmlari har bir odamda NISBATAN DOIMIYLIKKA ega. Odamning psixik holatlari, o`zini tutishi o`zgarib tursa ham shaxsning psixologik kiyofasi ma'lum darajada barqaror bo`lib qolaveradi. Shaxs xususiyatlarining bunday nisbatan barqarorligi unga shaxs sifatida xarakteristika berish, uning ma'lum vaziyatlarda o`zini qanday to`tishini oldindan belgilashning asosi bo`lib xizmat qiladi.

SHAXS TUZILISHIDA BIOLOGIK VA IJTIMOY OMILLAR.

Shaxs xislatlarining bir butunligi va o`zaro bog`liqligi uning psixologik tuzilishini, dinamik strukturasini hosil qiladi. Shaxsni, uning tuzilishini o`rganishdan maqsad nima? Shaxsni, uning tuzilishini o`rganishdan maqsad uni boshqa odamlardan ajratib turuvchi individual xususiyatlarni aniqlashdir. Bu boradagi psixologik tadqiqotlar va nazariy ishlar asosida turli "shaxs tiplari"ning ajratishga, ularni o`rganishga olib keladi. Shaxslarning tipologiyasini yaratish turli odamlardagi individual psixologik xususiyatlarni topish va ulardagi umumiyligini belgilar, xususiyatlar asosida ularni ma'lum toifalarga birlashtirishga to`g`ri keladi.

Nazariyalar orasida shaxsda ikkita asosiy qism, ikkita omilni ajratuvchi yo`nalishlar ko`rinarli o`rin egallagan. Ular shaxs tuzilishida ikkita omil, BIOLOGIK va IJTIMOY omillarni ajratib ko`rsatadilar.

Ma'lumki shaxs ijtimoiy majudot bo`lishi bilan birga, o`zida tabiiy, biologik tuzilish belgilarini saqlab qoladi. Ammo bu ikki omilni bir-biriga qarama-qarshi qo`yib bo`lmaydi, ular birlikni tashqil qiladi, birgalikda yuzaga chiqadi.

Shaxs tashqi turmush sharoitlari ta'sirida shakllanadi. Ammo lekin bir sharoitda tarbiyalangan ikki bola ikki xil bo`ladi. Chunki ularning tabiiy qobiliyatlari turlicha bo`ladi. Demak shaxsning shakllanishiga sotsial omillardan tashqari biologik faktorlar ham ta'sir qiladi. Bu ikki narsa bir - biri bilan chambarchas bog`liq.

Psixologiya tarixida shaxs rivojlanishi va takomillashuvini harakatlantiradigan kuchlar va manbai masalasini hal etishning ikkita yo`nalishi mavjud bo`lgan. Bu yo`nalishlar rivojlanishning **biogenetik** va **sotsiogenetik** kontseptsiyalari nomini olgandir.

Biogenetik kontseptsiya inson shaxsining rivojlanishi biologik, asosan tabiiy omillar bilan belgilanishiga asoslanadi. Shuning uchun ham shaxsning rivojlanishi ichki sabab natijasida (o`z - o`zidan) sodir bo`lish xususiyatiga egadir. Shu nuqtai nazarga binoan kishi tabiatan hissiy ta'sirotlarning ruy berishidagi ba`zi bir xususiyatlarga, harakat sur'atining xususiyatlarigagina emas, balki sababiyatlarning muayyan kompleksiga ham moyil (birovlardan jinoyat qilishga boshqalarda ma'muriyatlik faoliyatida yutuqlar qozonishga moyillik va hakozo) bo`ladi. Kishida guyo uning psixik faoliyati shakllarigina emas, balki uning mazmuni ham tabiat tomonidan programmalashtirilgan, psixik rivojlanish bosqichlari va ularning ruy berish tartibi oldindan belgilab qo`yilgan emish.

Sotsiogenetik kontseptsiya shaxsni tevarak - atrofdagi ijtimoiy mohiyatning bevosita ta'siri natijasi deb, muhitdan olingan nusxa deb hisoblaydi. Bunda ham xuddi biogenetik kontsentsiyadagi kabi rivojlanib borayotgan kishining xususiy faolligini inobatga olinmaydi, uning tevarak atrofdagi vaziyatga moslashayotgan mavjudotga xos sust rol o`ynashigina mumkin deb hisoblanadi. Agar sotsiogenetik kontseptsiyaga amal qilinadigan bo`lsa, nima uchun ba`zi vaqtlargacha xildagi ijtimoiy muhitlarda har xil odamlar yetishib chiqishini tushuntirib bo`lmaydi.

Shaxsning rivojlanishining harakatlanuvchi kuchlari kishining faoliyatiga o`zgarib turuvchi ehtiyojlari bilan ularni qondirishning real imkoniyatlari o`rtasidagi ziddiyatlari bilan aniqlanadi.

ehtiyojlarni rivojlantirish, tanlash va tarbiyalash ularni hozirgi jamiyat kishisiga xos bo`lgan ma`naviy yuksaklik darajasiga olib chiqish kishi shaxsini shakllantirishning

asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shaxsning shakllanishi jamiyatda ruy beradi. Individning shaxs bo`lishi, yangi jamiyatni qurishning faol ishtirokchisi bo`lish kabi ehtiyoji aynan jamoada to`laqonli qondiriladi.

Shaxsning shakllanishida unga maqsadga yo`naltirilgan tarzda ta`sir o`tkazish tarbiya yetakchi rol' o`ynaydi. Tarbiya shaxsning rivojlantirishini jamiyat tomonidan qo`yilgan maqsadlarga muvofiq tarzda yo`llantirib boradi va uyshtiradi.

SHAXS HAQIDAGI PSIXOLOGIK NAZARIYALAR

Shaxs haqidagi psixologik nazariyalar uzoq vaqt davomida rivojlanib keldi. Buning natijasida ko`plab nazariyalar, yondoshishlar yuzaga keldi. Ular orasidan g`arb mamlakatlarida rivojlangan va tan olingan asosiy nazariyalarga to`xtalib o`tish lozim. Shaxs haqidagi barcha nazariyalarni rivojlanish bosqichiga ko`ra uch guruhga birlashtirish mumkin:

1. Shaxs haqidagi an'anaviy nazariyalar (V.Dil'tey, K.Levin, V.Shtern, Z.Freyd, K.Yung va boshqalar);

2. Shaxs haqidagi yangi nazariyalar (G.Ayzenk, D.Kettel, A.Maslou, G.Olport, K.Rodgers, K.Xorni va boshqalar);

3. eng yangi nazariyalar (e.Bern, K.Leongard, D.Mid, G.Sallivin, Sirs, e.Fromm va boshqalar).

Ko`rsatib o`tilgan nazariyalar quyidagi psixologik yo`nalishlarning tarkibida rivojlangan yoki ularning asosi bo`lgan:

Freydizmning psixoanalitik kontseptsiyasi, neofreydizm (yangi freydizm) va postfreydizm, bixevorizm va neobixevorizm, gumanistik psixologiya, interaktsionizm, ekzistensionalizm, sotsiologik nazariyalar, ekliktik nazariyalar va h.k.

AN'ANAVIY NAZARIYALAR

Shaxs haqidagi an'anaviy nazariyalar orasida FREYDIZM nazariyasi alohida o`ringa ega. Z.Freyd turli xil kasalliklarni (asosan nevroz bilan bog`liq bo`lgan) tahlil qilish natijasida bu kasalliklarning sabablari kasalning hayotida oldin ruy bergen va uning psixika (ruxiyati)ga yoki rivojlanishiga salbiy ta`sir ko`rsatgan voqealar degan xulosaga keldi. Bu ta`sirlar ko`pincha odamlar tomonidan utililadi va anglanmaydi, ammo ular kishilarning xulq-atvorlariga ta`sir qilishda davom etadilar, ba`zida xulq-atvorda buzilishga olib keladilar. Z.Freyd turli xil psixoterapevtik usullar yordamida ularni topish va ularni anglashga yordam berish samarali davolash usuli ekanligini aniqladi. Izlanishlar natijasida Z.Freyd odamning psixik hayotida uch darajani ajratdi: ongsizlik, ong osti (ong oldi) va ong.

ONGSIZLIK - instinkтив harakatlarning asosi. Ular orasida, ayniqsa, jamiyat tomonidan ta`kiklanganligi sababli anglanmaydigan bo`lib qolgan jinsiy mayllar (libido) alohida o`rin tutadi.

ONG OLDI - uning mazmunini kishi kiynalmay anglaydi.

ONG - ijtimoiy meyorlar, man kilinishlar (tabu). Ong doimo ongsizlik bilan kelishmovchilikda. Turli xildagi jinsiy va boshqa mayllarni yuzaga chiqarmaslikka harakat qiladi.

K.YUNG VA UNING PSIXOLOGIK QARASHLARI. Karl Gustav Yung (1875-1961) shveytsariyalik psixiatr, psixolog. Z.Freydning yaqin safdoshlaridan biri. U Z.Freydning izidan borib inson psixikasida "ong" va "ongsizlik" darajalarini ajratgan. Uning fikricha hatti-harakatni boshqarishda ongsizlik hal qiluvchi rol' o'ynaydi. Ongsizlik ikki xil shaklda mavjud: a) individual b) kollektiv (jamoa) - uning asosini oldingi avlodlar tajribasi tashqil qiladi. Bular asosan instinktlar, mayllar, arxetiplardan iboratdirlar.

Instinktlar va mayllar K.Yung tomonidan tug'ma ejtijoqlar sifatida qaraladi. Arxetiplar (kishilikning birlamchi obrazlari) talant, tush ko'rish, afsonalar, diniy qarashlar asosida yotadi. K.Yung kishilarning psixik yo`nalganligi asosida ularni ikki guruhga bo`ladi: introvertlar va estrovertlar.

Introvertlar - xulq-atvor sabablarini o`zidan axtaradi. Ular ijtimoiy passiv, tortinchok, o`z harakatlarini chuqur tahlil qilishga moyil, boshqalarga ko`p qo`shilishga intilmaydilar. Ektrovertlar- tashqi olamga yo`nalan. Ular impul'siv, tashabbuskor, dilkash, guruhga va jamoaga tez moslashuvchan.

K.Yung psixik funktsiyalarning ustunligiga ko`ra shaxslarning quyidagi tipologiyasini ko`rsatgan:

- a) tafakkur qiluvchi (fikrlovchi)
- b) hissiy
- v) ta'sirga beriluvchan (emotive)
- g) intuitiv

K.LEVINning "MAYDON NAZARIYASI". K.Levin (1890-1947) Germaniyada tugilgan va AKShda ko`p yillar samarali ishlagan. U barcha tashqi olam omillarini "fizik maydon" va odamning ichki olamini "psixik maydon" deb ajratadi. Uning fikricha bu ikkala maydon orasida o`zaro tortishish va itarish xususiyatlar mavjud. Bu xususiyatlar shaxsning ehtiyojlari va motivlariga bog'liq ravishda yuzaga chiqadi. Uning fikricha tashqi muhit va shaxsning ichki dunyosi orasidagi muvozanat buzilsa shaxs harakatlarida, xulq atvorida zurikish paydo bo`ladi. K.Levin tomonidan shaxsning guruhdagi o`rni, mavkei, liderlik hodisalari, nizolar o`rganilgan.

YANGI NAZARIYALAR.

Yangi nazariyalar orasida Gumanistik psixologiya alohida o`ringa ega. Bu yo`nalishga juda ko`plab olimlar o`z hissalarini kushganlar. Gordon L.Olport (1897-1967) shaxsning o`zligini ko`rsatishga, kamolatiga intilishi nazariyasini taklif qildi. U shaxsni ochiq, doimo rivojlanishdagi, o`sishdagi psixofiziologik tizim tariqasida qaraydi. Shaxsning asosiy xususiyati o`zligini anglashga, kamolga yetishga, o`zining barcha imkoniyatlarini hayotga tatbiq qilishga intilishidir deb qaraladi.

Gumanistik psixologiyaning ko`zga ko`ringan nomoyondalaridan biri Karl Rodjersdir (1902-1987). Uning fikricha shaxsning asosiy xususiyati, bu shaxsning hayot haqidagi o`z kontseptsiyasidir. Bu kontseptsiya odamning tashqi muhit bilan bilan munosabati jarayonida shakllanadi. Rodjersning nazariyasiga ko`ra quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- shaxslararo munosabatlar tenglikka asoslanishi, bir kishi ikkinchisiga tazyik o`tkazmasligi, har bir kishining mavqeい hurmat qilinishi lozim;
- shaxsning "uzagini" uning o`zi haqidagi bahosi tashqil qiladi. Bu baho tashqi muhit bilan o`zaro munosabatlar jarayonida shakllanadi;

- shaxsning "self" yoki "Men - kontseptsiya" ichki, organiq va ijtimoiy sezgilar orasidagi o`zaro mosligini aks ettiruvch'i xususiyat sifatida shakllanadi.
- shaxsning asosiy motivi "o`zligi"ni o`stirish motividir.

Shaxsning o'sishi esa ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar ta'siri ostida yoki tezlashadi yoki sekinlashadi.

Shaxsni o'sishga undovchi kuch, K.Rodjersning fikricha, "Men kontseptsiya" va "ideal Men" orasidagi tafovutdir.

Gumanistik psixologiyaning nomoyondalaridan yana biri Abraxam Masloudir (1907-1970). U ham K.Rodjers nazariyasiga xamoxang nazariya, "O`zligini (hayotga) tatbiq qilish" nazariyasini taklif qildi. Uning fikricha shaxsning o'sishga intilishi tug'ma, lekin ijtimoiy omillar ta'siri ostida aktuallashadi (harakatga keladi).

A.Maslou shaxs ehtiyojlarning 5 ta darajaga ega bo`lgan ierarxiyasini (tabaqalashgan) taklif qilgan.

1. Self-actualisation need - o`z-o`zini aktuallashtirish ejtiyoji (o`zligini ko`rsatish, o`zining imkoniyatlarini to`liq tatbiq qilish, umuman olganda komil inson bo`lish ejtiyoji);
2. Esteem need - hurmatga, tan olinishga bo`lgan ehtiyoj;
3. Needs for belongingness and love - ijtimoiy munosabatga, guruhga a'zo bo`lish ehtiyoji;
4. Safety needs - xavfsizlikka bo`lgan ehtiyoj;
5. Deficiency needs - fiziologik ehtiyojlar.

Psixologlar orasida biosotsial nazariyalarning tarafdorlari ham juda ko`p. Shu jumladan, G.Ayzenk. U shaxsning ikki ulchamli (asosli) modelini ishlab chiqdi. Bu modelda odam psixobiologik fenomen sifatida ko`rib chiqilgan. Shaxsning asosiy xususiyatlari ikkita asosiy mezon, shkala - "ekstravertlik - introvertlik" va "emotsional turg'unlik - neyrotizm" bilan aniqlanadi.

Biosotsial nazariyalar orasidan D.Kettelning "Shaxs xususiyatlarining faktorli kontseptsiyasi"ni ko`rsatib o`tish lozim. Olim bir-biri korrelyatsiyaga ega bo`lgan 16 birlamchi va bir qancha ikkilamchi va uchlamchi omillarni ajratib ko`rsatgan.

SHAXS HAQIDAGI ENG YANGI NAZARIYALAR.

Psixologiyada yangi nazariyalarning salmog'i juda katta. erik Bern (1902-1970) shaxsni rivojlantirishning amaliy va nazariy asosi sifatida xizmat qilishga yo`naltirilgan "transakt tahlil" nazariyasini taklif qildi. erik Fromm (1900-1980) gumanistik psixoanalizga asos soldi. Djordj Gerbert Mid (1863-1931) simvolik kommunikatsiyaning interaktsionistik nazariyasini ishlab chiqdi. Karl Leongard "Shaxs aktsentuatsiyalari" nazariyasiga asos soldi.

Keyingi yillarda Aleksandr Kellining (1905-1966) "Shaxs konstruktari" nazariysi juda keng tarkaldi va qo'llanilmokda. Bu nazariyaga asosan shaxsning bilish jarayonlarining kechishi uning kelajakdagi hodisalarini qanday "ko`ra olishi" (oldindan modellashtirishi, tasavvur qilishi) bilan aniqlanadi. A. Kellining fikricha har bir odam tadqiqotchi. U doimo o`zidagi "shaxs konstruktari", o`zining maxsus baholash shkalalari asosida reallikning obrazini tuzadi (hosil qiladi). Agar tuzilgan obraz haqiqatdan farq qilsa, to`g'ri kelmasa mavjud konstruktlar qayta quriladi. Barcha bilish

jarayonlarining samaradorligi, muvaffaqiyatli konstruktlar qurish kishining psixologik bilim darajasiga bog'liq.

Ma’ruza 5. SHAXS FAOLIYATI.

Reja:

- 1. Faollik va faoliyat haqida tushuncha.**
- 2. Ehtiyojlar va ularning turlari.**
- 3. Faoliyat va uning maqsadlari.**
- 4. Faoliyatni o`zlashtirish.**
- 5. Faoliyatning turlari.**

Tayanch iboralar:

Faoliyat haqida umumiy tushuncha. Hayvonlar faolligi va inson faoliyatining farqlari. Faoliyat va uning maqsadlari. Faoliyat motivlari. Faoliyatning tuzilishi. Ichki va tashqi faoliyatning o`zaro bog`liqligi: interiorizatsiya va eksteriorizatsiya. Faoliyatning tuzilishi. Faoliyatni o`zlashtirish; ko`nikma, malaka, odatlar. Ko`nikmalarning shakllanishi. Faoliyatning asosiy turlari: o`yin, mehnat, o`qish va muloqot.

FAOLLIK VA FAOLIYAT HAQIDA TUSHUNCHA.

Tirik mavjudotlarning atrofdagi olam bilan hayotiy ahamiyatga ega bo`lgan bog`lanishlarni ta`minlaydigan faoliyati ularga xos yalpi xususiyat hisoblanadi. Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo`nalishda harakat qilishga undaydigan ehtiyojlar uning faolligi manbai bo`lib hisoblanadi. ehtiyoj - jonli mavjudotning hayot kechirishining konkret shart - sharoitlariga uning karamligini ifoda etuvchi va bu shart sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatidir.

Kishining faolligi ham ehtiyojlarning qondirilishi jarayonida nomoyon bo`ladi. Odamning faolligi shakllari bilan hayvonning hatti harakatlari faolligi o`rtasidagi tafovutlar mavjud. Hayvonlar ehtiyojining qondirilishi jarayoni ularning muhitga yaxshiroq moslashuvini ta`minlaydi.

Odamning faolligi va faollikning manbai bo`lgan insoniy ehtiyojlar tamomila boshqacha manzara kasb etadi. Kishining ehtiyoji tarbiya jarayonida, ya`ni kishilar madaniyati olami bilan munosabatga kirishish jarayonida shakllanadi. Tabiatdan olinadigan buyum shunchaki oddiy ulja, ya`ni faqat biologik ma`noga ega OVQAT tarzidagi buyum bo`lmay qoladi. Odam qurollar yordamida buyumni tarixiy taraqqiyot mahsuli bo`lgan o`z ehtiyojlariga moslashtirgan holda tubdan o`zgartirishga qodirdir.

Ehtiyojlar qondirilishi jarayonida rivojlanib va o`zgarib boradi. Ular hozirgi zamon kishisida uning ajdodlarida bo`lganiga qaraganda boshqachadir. Uning avlodlarida ham boshqacha bo`ladi. Kishining ehtiyojlarini to`la-to`kis qondirish uni har tomonlama rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi, lekin bu yakkayu yagona shart emas, albatta. Kamolatga erishishning boshqa shart-sharoitlari (birinchi navbatda mehnat) mavjud bo`lmasa, o`z ehtiyojlarini osongina qondirish imkoniyati kishini ko`pincha inkirozga uchratadi. Mehnat bilan yo`naltirilmaydigan tekinxo`rlik ehtiyojlarini zid xulq-atvor (ba`zan esa jinoi hatti-harakat)ning manbai bo`lib qolishi mumkin va ayrim kishilarda shunday bo`lmoqda.

Jamiyat kishining tarbiyasiga nisbatan qo`yayotgan eng muhim talablardan biri mehnat qilish ehtiyojini ta`minlashdan iboratdir.

EHTIYOJLARNING TURLARI.

Ehtiyojlar kelib chiqishiga va predmetiga ko`ra farqlanadi. Kelib chiqishiga ko`ra ehtiyojlar TABIIY va MADANIY bo`lishi mumkin.

Tabiiy ehtiyojlarda kishining o`zining hayoti va o`z avlodlari hayotini saqlash va davom ettirish uchun zarur bo`lgan shart-sharoitlarga bog'liqligi ifodalanadi. Barcha odamlarda ovqatlanishga, suv ichishga, qarama-qarshi jinsning mavjud bo`lishiga, uqlashga, sovuqdan va haddan ziyod issiqdan saqlanishga va hokozolarga tabiiy ehtiyoj bo`ladi. Agar tabiiy ehtiyojlardan birontasi uzoq vaqt davomida qondirilmasdan qolsa odam mukarrar ravishda xalok bo`ladi yoki naslini davom ettirish imkoniyatidan mahrum bo`ladi. Garchand tabiiy ehtiyojlar (ularning soniga ko`ra) odamning hayvon ajdodlaridagi va ibtidoiy odamlardagi kabi tarzda qolgan bo`lsa ham, lekin ular o`z psixologik mohiyatiga ko`ra hayvonlarning tabiiy ehtiyojidan tubdan farq qiladi. ehtiyojlarni qondirishning usullari va qurollari o`zgaribgina qolmasdan, eng muhimmi, ehtiyojlarning o`zi o`zgarib bormoqda.

Madaniy ehtiyojlarda odamning foliyati insoniyat madaniyatining mahsulotlriga bog'liq ekanligi ifodalanadi; uning ildizlar butunlay kishilik tarixining sarhadlariga borib taqaladi. U yo bu xilda tarkib topgan madaniyat sharoitlarida biron bir tabiiy ehtiyojni qondirish vositasi bo`lib xizmat qiladigan narsalar (vilka va koshik, ovkatni yejish uchun ishlatiladigan chuplar) ham madaniy ehtiyojlar ob`ekti hisoblanadi. Agar kishining madaniy ehtiyojlari qondirilmasa u halok bo`lmaydi (tabiiy ehtiyojlarni qondirilmagan sharoitda ana shunaka bo`lishi mumkin edi), lekin undagi odamiylik sifatlari jiddiy zararlanadi.

Ehtiyojlar o`z predmetining xarakterga ko`ra MODDIY va MA'NAVIY bo`lishi mumkin.

Moddiy ehtiyojlarga kishining moddiy predmetlarga qaramligi (ovqatlanishga, qiyinishga, uy-joyga, maishiy turmush ashyolariga va boshqa narsalarga ehtiyoj sezish), ma'naviy ehtiyojlarda esa ijtimoiy ong mahsuliga tobeligi ifodalanadi. Ma'naviy ehtiyojlar ma'naviy madaniyatni yaratish va o`zlashtirishda o`z aksini topadi. Kishi o`z fikr - mulohazalari va tuyg'ularini boshqalar bilan baham qurishga, kitoblar va jurnallar o`qishga, kinofil'mlar qurishga, musiqa tinglashga va shu kabilarga ehtiyoj sezadi.

Ma'naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlar bilan uzviy bog'liqdir. Ma'naviy ehtiyojlarni qondirish uchun, moddiy ehtiyojlar predmeti hisoblanmish moddiy narsalar (kitoblar, gazetalar, yozuv va nota qog'ozlar, buyoklar va shu kabilar) talab qilinishi shubxasiz. ehtiyojlarning qondirilishi bilan bog'liq bo`lgan faoliyatga undovchi va uning yo`nalishini belgilovchi sabablar MOTIVLAR deb ataladi. Unda sub'ektning faolligi nomoyon bo`ladi. ehtiyojlar kishi faolligi va barcha turlarining mohiyatini, asosiy harakatlantiruvchi kuchini tashqil etarkan, u holda motivlar ushbu mohiyatning konkret, rang - barang ko`rinishlari sifatida nomoyon bo`ladi. Motivlar yoki motivlashtirish psixologiyada sub'ektning xulq - atvori va faoliyati yo`nalishini belgilab beradigan sabablar sifatida qaraladi.

Motivlar biri-biridan ehtiyojlar turlariga qarab farqlanadi. ehtiyoj motivlarda nomoyon bo`ladi. Murakkab faoliyat asosida bir vaqtning o`zida bir qancha motivlar yotadi. Inson hatti-harakatining asosida yotgan bunday motivlar guruhibiga motivlar tizimi deyiladi.

Motivlar anglanilgan va anglanilmagan bo`lishi mumkin. Anglanilmagan motivlar odatda MAYLLAR deb yuritiladi.

FAOLIYAT VA UNING MAQSADLARI HAQIDA TUSHUNCHА

Agar hayvonlarning hatti - harakati butunlay atrof muhit bilan belgilansa, kishining faolligi uning ilk yoshlaridanok butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga ko`ra yo`naltirib boriladi. Hatti - harakatning bu turi shu qadar o`ziga xoslikka egaki, psixologiyada uni atash uchun maxsus termin - FAOLIYAT termini qo`llaniladi. Faollikning bu, alohida maxsus insoniy turining farq qiluvchi psixologik belgilari nimalardan iborat? Bu farq qiluvchi belgilardan biri shundan iboratki, faoliyatning mazmuni uni keltirib chiqargan ehtiyoj bilangina belgilanmaydi. Basharti motiv sifatida ehtiyoj faoliyatga turtki berib, uni ragbatlantirar ekan, u holda faoliyatning shakllari va mazmuni ijtimoiy shart - sharoitlar, talablar va tajriba bilan belgilanadi. Masalan, kishini ishlashga undagan motiv (sabab) ovqatga nisbatan ehtiyoj tugulishidan ham kelib chiqishi mumkin. Lekin odam stanokni, masalan, uning ochligini bartaraf etish uchun emas, balki bu unga topshirilgan detalni tayyorlash imkonini bergani uchun ham boshqaradi. Uning faoliyati mazmuni shunchaki ehtiyoj bilan emas, balki maqsad bilan - jamiyat talab kilayotgan muayyan mahsulotni tayyorlash bilan belgilanadi. Kishining nima uchun muayyan tarzda harakat kilayotgani, u nimani kuzlab ish kilayotganiga mos kelmaydi. Uni faoliyatga undovchi xoxish istaklar, sabablar bilan ushbu faoliyatni yo`naltiruvchi bevosita maqsad bir - biriga to`g'ri kelmaydi.

FAOLIYATNI INTERIORIZASIYALASH VA EKSTERIORIZASIYALASH

Tashqi, real harakatdan ichki, ichki timsoliy harakatga o`tish jarayonini INTERIORIZASIYA (tom ma`nosi bilan aytganda, ichki tarzga aylanish) deb atashadi. Interiorizatsiya tufayli kishi psixikasi ma'lum bir vaqt ichida uning nazari e'tiborida bo`lmaning narsalarining obraq(timsoli)dan foydalanish qobiliyatiga ega bo`ladi.

Biz ichki, psixik faoliyatni tashqi, konkret faoliyatning interiorizatsiyalashuvi natijasi deb hisoblash mumkinligini ko`rib chiqdik. Shunga muvofiq tarzda tashqi, konkret faoliyatni ham ichki, psixik faoliyatning eksterizatsiyalashuvi (tom ma`nosi bilan aytganda, ichki tarzga aylanishi) deb qarash mumkin ("eksternus" - "tashqi" degan ma`noni anglatadi).

FAOLIYATNING O`ZLASHTIRILISHI. MALAKALAR. HARAKATLARNING AVTOMATLASHTIRILISHI VA MALAKALARING HOSIL BO`LISHI

Har qanday harakatni amalga oshirish uchun zarur bo`lgan mushaklar qisqarishi va cho`zilishi bilan bog`liq murakkab bog`lanishlar anglanilmagan bo`ladi. Biroq, odatda, harakatlarning pirovard maqsadlari, shuningdek ularning umumiy xarakteri hamisha anglanilgan bo`ladi. Buning aksi ham yuz berishi mumkin, bunda harakatning ma'lum bir jihatlari oldiniga mayda - chuydalariga qadar to`la, ongli ravishda idora qilinishini takozo etadi, sungra esa ong borgan sari kam ishtirok etgani holda bajarila boshlaydi, bunday xollarni ishning bajarilishi AVTOMATLASHADI deyiladi. Kishi maqsadga muvofiq tarzdagi harakatlarni amalga oshirish va boshqarishning aynan shu tarzda qisman avtomatlashuvi MALAKA deb ataladi.

Biz aynan harakatlarning anglanilmagan holdagi boshqarilishi tugrisida SO`Z yuritayotirmiz, negaki, faoliyatni boshqarish bilan harakatlarni boshqarish bir xildagi narsa emas. Harakatlarning tobora ko`proq darajada avtomatlashuvi ayni chogda ushbu

harakatlarni ham o`z tarkibiga olgan faoliyatning ongli ravishda boshqarilishining oshishi bilan birga yuz beradi.

MALAKANING TUZILISHI

Harakatning qisman avtomatlashuvi tufayli uning tuzilishida ruy beradigan o`zgarishlar quyidagilardan iboratdir.

1. Harakatlarning ijro etilishi usullari o`zgaradi. Bunga qadar o`z xolicha yuz berib kelgan qator juz'iy (yoki alohida) harakatlar yagona jarayonga aylanadi. Uning tarkibiga kiruvchi alohida sodda harakatlar o`rtasida tusiqlar va uzilishlar kamayadi va butunlay yo`qoladi. Masalan, mashina haydayotgan shogirdda "bosqichma-bosqich harakat" sifatida bajariladigan tezlikni o`zgartirish jarayoni tajribali shofyor tomonidan bir marta qo`lni silliqqina ishlatgan holda bajariladi. Ortiqcha va keraksiz harakatlar bartaraf etiladi. Jumladan, o`quvchi yozuvni o`rgana boshlagan paytda bu jarayonni bajararkan, ko`plab ortiqcha harakatlar qiladi: tilini chiqaradi, gavdasini qimirlatadi, boshini engashtiradi va hokozo. Harakat jarayoni o`zlashtirib olingandan keyin barcha ortiqcha harakatlar yo`qolib ketadi. Mujassamlashuv yuz beradi, ya`ni harakatlarni ikkala qo`l (oyoq) bilan bir vaqtning o`zida bajarish boshlanadi. Pirovardida harakatlarni bajarish sur`ati tezlashadi. Shunday qilib, harakatlarni o`zlashtirish jarayonida uning harakatlantiruvchi barcha jihatlari: harakatlar tarkibi (u soddalashadi), harakatlarning izchilligi (u uzluksiz bajariladigan bo`ladi) va harakatlarning uygunligi (ular bir vaqtning o`zida bajariladigan bo`ladi), shuningdek ularning tezligining mumkin qadar rejali bo`lishiga imkon tug'iladi.

2. Harakatni sensor nazorat qilish usullari o`zgaradi. Harakatlarning bajarilishini ko`rish orqali nazorat qilish ko`proq mushaklar yordamida (kinestetik) nazorat bilan almashadi. Bunga tajribali mashinistkaning harflarga qaramasdan yozishi, malakali slesarning iskanani bolg'a bilan urayotganda ko`rish nazoratini ishga solmasligi (slesar bolg'ani urayotib, iskananing qalpog'iga emas, balki uning tig'iga qarab turadi) va shu kabilar oddiy misol bo`la olishi mumkin. Harakatlarning xarakterini belgilaydigan turli xildagi o`lchamlarning nisbatini baholash imkonini beradigan maxsus sensor sintezlar hosil bo`ladi. Shofyorda motorning shovkinida uning qanchalik kuch bilan ishlayotganini bildiradigan belgilarni ajratish qobiliyati, po`lat erituvchida metallning tarkibini, rangining tovlanishiga qarab ajratish qibiliyati rivojlangan va hokozo.

Shunday qilib, harakatlar o`zlashtirila borgan sari uning natijalarini va bajarilish sharoitlarini yanada aniqrok va tezroq bevosita sifatli nazorat qilish uchun imkoniyatlar tug'iladi.

3. Harakatni markaziy boshqaruvi usullari o`zgaradi. Diqqat ish-amalning usullarini idrok etishdan ozod bo`ladi, u harakatning asosan sharoiti va natijasiga qaratilgan bo`ladi. Ba`zi hisob - kitoblar, yechimlar va aqliy mehnat talab qiladigan boshqa jarayonlar tez va birga kushilgan holda (faxmlangan) tarzda amalga oshirila boshlaydi. Jumladan, shofyor dvigatelning ortiqcha kuch bilan ishlayotganini uning tovushidanoq sezib, o`ylab-netib o`tirmasданоq, uning harakatini qaysi tezlikka ko`chirish kerakligini darhol tushinib yetadi; apparatchi asboblarining ko`rsatkichini ukibok, uning ishlashida ruy beradigan buzilishlarini va ularni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerakligini fahm laydi. Qo`llanilishi lozim bo`lgan usullarning butun boshli zanjirini yoki turlarini ana shu tarzda ong yordamida oldindan ko`ra bilish ANTISIPASIYA deb ataladi.

FAOLIYATNING O`ZLASHTIRILISHI VA MASHQLAR

Harakat usullaridagi bu o`zgarishlar qanday yuz beradi va ularning psixologik mexanizmi qanday? Bu mexanizmning asosini tadqiqot qilishga o`rinish va tanlash tashqil etadi. Kishi muayyan harakatni bajarishga o`rinib kuradi va uning natijasini nazorat qiladi. Muayyan harakatlar yoki faoliyat turlarini o`zlashtirish maqsadida ularni anglagan tarzda, ongli ravishda nazorat qilishga va tuzatishga asoslangan holda ko`p martalab takroran bajarish faoliyati MASHQ deb ataladi. Mashq qila borgan sari kishi harakatlari xarakterining o`zgarishi bu harakatlarni bajarish chog`ida ruy beradigan psixik faoliyati tuzilishida yuz beradigan o`zgarishlarni ham aks ettiradi. Ongli tarzda nazorat qilinib va tuzatilib turiladigan har bir yangi urinish faqat harakat usullari va vazifalarini eslab qolishdagina aks etmaydi. Odatda u vazifani tekshirish usullarining, uni hal qilish va tuzatish yo`llarining ham o`zgarishiga olib keladi.

KO`NIKMALAR

Har qanday xulq - atvor yangi sharoitlarga yoki ob`ektlarga nisbatan operatsiya (amal)larni ko`chirish asosida tarkib topadi. Ko`chish esa shart - sharoitlar yoki narsalarning faoliyat maqsadlari uchun muhim bo`lgan belgilar bo`yicha o`xshashligiga tayanadi. Bu o`xshashlik anglanilgan yoki anglanilmagan bo`lishi mumkin. Faoliyat qanchalik murakkab, maqsadlar qanchalik uzoqroq vaqtga mo`ljallangan hamda ular ob`ektlarining qanchalik ko`proq o`zgartirilishini talab qiladigan bo`lsa, muvaffaqiyatli ko`chishni ta'minlash uchun zarur bo`lgan oraliq aqliy faoliyati shunchalik keng tus kasb etadi. Lekin har qanaqa holda ham bunday ko`chish ko`nikma, ya`ni qo`yilgan maqsadga muvofiq tarzda harakat usullarini tanlash va amalga oshirish uchun mavjud bilimlar va malakalardan foydalanish deb hisoblash mumkin.

Ko`nikma eksteriorizatsiya qilishni, bilimlarning jismoniy harakatga mujassamlashuvini takozo etadi. Uning boshlanish nuqtasi axborotning yuksak darajada, ya`ni ongda qayta ishlashidan iboratdir. Amaliy harakatlarning ana shu yuksak darajadagi faoliyati natijalari bilan yo`naltirib turilishi esa uning yakunini tashqil etadi. "Ko`nikma" atamasi faoliyat sub`ekting o`zida mavjud bilimlar va malakalar bilan maqsadga muvofiq boshqarilishi uchun zarur psixik va amaliy harakatlarning murakkab tizimi egallab olinishini ifodalaydi. Bu tizim vazifa bilan bog`liq bilimlarning tanlanishini, vazifa uchun muhim bo`lgan xususiyatlarning ajratilishini, shu asosda vazifaning bajarilishiga imkon beradigan tub o`zgartirishlar tizimi aniqlanishini, ana shu o`zgartirishlarning amalga oshirilishini, qo`yilgan maqsad bilan uning natijalarini taqqoslagan holda nazorat qilib va shu asosda bayon etilgan jarayon to`grilab borilishi o`z ichiga oladi.

Ko`nikmalarning tarkib topishi bilimlarda mujassamlashgan axborotni va narsadan olinadigan axborotni qayta ishlash jarayonlarining, ana shu axborotni aniqlash, uni harakat bilan taqqoslash va o`zaro bog`lash jarayonlarining butun bir tizimi egallanishini bildiradi. Bu xildagi shakllantirish, ya`ni ko`nikmalarga o`rgatish jarayoni turli yo`llar bilan amalga oshirilishi mumkinligini qayd qilib o`tish zarurdir. Bu yo`llarni bir - biridan farq qiluvchi ikkita holatga ajratish mumkin. Birinchi holatda urgatilayotgan kishi zarur bilimga ega bo`ladi. Uning oldiga bu bilimlardan maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi kuyiladi. Kishining o`zi sinab ko`rish va xatolarga yo`l quyish orqali tegishli mo`ljal olgan, axborotni qayta ishlash vositalari va faoliyat

usullarini topgan holda uning yechimini izlaydi. Garchi bu yo`lning samaradorligi past bo`lsa ham, bugungi kunda u ta`lim jarayonida eng ko`p qo'llaniladigan yo'l ekanligini qayd qilamiz. Ikkinchi yo'l shundan iboratki, ta`lim berayotgan kishi o`quvchining bilimlarni kullash uchun zarur bo`lgan psixik faoliyatni boshqarib boradi. Bu holda pedagog o`quvchini belgilar va jarayonlarni tanlash mo`ljallari bilan tanishtiradi, qo`yilgan vazifalarni bajarish uchun olingan axborotlarni qayta ishslash va undan foydalanish yuzasidan o`quvchining faoliyatini uyushtiradi. Bu yo'l hozir pedagogik psixologiyada jadal tadqiq qilinmoqda.

FAOLIYATNING ASOSIY TURLARI. O`YIN

Hayotining birinchi yillaridayok bolada faoliyatning oddiy shakllarini o`zlashtirishi uchun dastlabki shart - sharoitlar tarkib topa boshlaydi. Ulardan birinchisi o`yin faoliyati hisoblanadi. Ma'lumki, o`yin faoliyatini hayvonlarning bolalarida ham kuzatiladi. Bu - ularning turli xildagi xarxashalaridan, urishishni taqlid qilishi, u yoqdan - buyoqqa chopishi va hokozolardan iboratdir. Hayvon bolalarining o`yin jarayonidagi kiligini avvalo ularning organizmidagi faoliyatga, jamlangan kuch - kuvvatni sarflashga bo`lgan ehtiyojni qondirishi deb qarash mumkin. Agar hayvon bir muncha vaqt mobaynidan o`ynaydigan sherigidan mahrum etib qo`yilsa, keyinchalik uning qo`zg`alishi va o`yin faoliyati keskin kuchayadi, ya`ni tegishli kuch quvvat to`plangani kabi hodisa ruy beradi. Bu hodisa "o`yinga to`ymaslik" deb ataladi.

O`yin faoliyati bilan organizmda kuch - quvvat almashinuvi o`rtasidagi bog'lanish o`yinga nisbatan ma-yilning tug'ilishiga olib keladi. Lekin o`yin faoliyati ruyobga chiqaradigan chiqaradigan fe'l - atvor shakllari qanday va qaerdan paydo bo`ladi? Kuzatishlar shuni ko`rsatadiki ularning ba`zi birlari, masalan, mushukchadagi "sichkon ovlash" ishtiyoki hayvonning tug'ma instinctiv harakatlari jumlasiga kiradi. Boshqa bir xillari esa, masalan, shimpanze bolasining katta yoshdagi maymunlar va odamlarning harakatlarini takrorlashi taqlid qilish orqali yuz beradi. Uchinchi bir xili tevarak - atrofdagi olam bilan o`zaro birgalikda harakat qilish jarayonida hayvonlarning o`zları tomonidan topiladi.

Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, o`yin bolalarda ham o`z faolligini ro`yobga chiqarish shakli, hayot kechirish va faoliyat ko`rsatish shakli bo`lib xizmat qiladi. Bolaning o`yin harakatlari avval boshdanoq buyumlardan foydalanishning insoniy usullari va amaliy xulq - atvorining katta yoshdagilar bilan muloqot jarayonida va katta yoshdagilar raxbarligida o`zlashtirilib olinadigan insoniy shakllari zamirida rivojlanib boradi.

Bola o`z tajribasida qurol buyumlar bilan bir vaqtning o`zida boshqa turdag'i buyumlar - o`yinchoqlarga duch keladi. O`yinchoqlarni ishlatalishning insoniy usuli - o`yin, yana ular yordamida allaqanday boshqa, haqiqiy buyumlar va harakatlarning ifoda etishdir. Katta yoshdagilar bolalarni o`yinchoqlardan ana shu tarzda foydalanishga o`rgatadi. Ular bolaga kugirchokka qanday suv ichirilishini, uni qanday qilib tebratish kerakligni, sayr qildirishni, o`yinchoq ayik bolasini qanday ovqatlantirishni, mashinani qanday qilib haydash kerakligni ko`rsatishadi va hokozo.

Lekin bolada o`yinchoqqa nisbatan "haqiqiy" buyumning tasviri sifatidagi munosabatning o`zi o`yin faoliyatiga faqat SO`Z aralashuvi munosabati bilan hosil bo`ladi. Bola so`zning ahamiyatini amaliy harakatlar orqali yoki katta yoshdagilarning harakatlarini kuzatish natijasida o`zlashtirib olgan holda SO`Z bilan birgalikda bu harakatlarni o`ynaydigan buyumlariga ko`chiradi. Bu o`rinda o`yin faoliyati buyumning ahamiyatini belgilaydigan harakatlarni o`sha buyumning o`zidan ajratishdan va bu harakatlarni boshqa buyumga - o`yinchoqka ko`chirishdan iborat bo`ladi. O`yin faoliyati tufayli so`zning ahamiyatini buyumning tashqi ko`rinishidan amalda ajratiladi va bu mohiyat buyum ustidagi harakatlar bilan, uning kishi faoliyatidagi vazifasi bilan bog'lanadi. Buyumlarga bo`lgan munosabat odamlarning buyumlarga nisbatan funktsiyalari sifatida nomoyon bo`la boshlaydi. Rolli o`yinlar paydo bo`ladi. Rolli

o`yinlarda bola katta yoshdagi kishilarda o`zi kuzatgan ijtimoiy funktsiyalarini, ularning shaxs sifatidagi xulq - atvorini aynan takrorlaydi. Jumladan, ikki yashar qizcha qo`g`irchoqni ovqatlantirar ekan, OVQAT yedirish o`yini bilan ovora bo`lsa, to`rt yoshar bola qo`g`irchoqni ovqatlantirayotganda kizini ovqatlantiradigan ona bo`lib o`ynaydi. Bunda o`yin mazmuni konkret harakatlarni tasvirlashdan odamlar o`rtasidagi munosabatlarni tasvirlashga tobora ko`proq ko`chiriladi. Bunda bola narsalarning hatti-harakatlari u foydalanayotgan narsalarning xususiyatlari bilan emas, balki ularning vazifalari haqidagi tasavvurlar bilan boshqariladi. Boshqacha qilib aytganda, bolada o`z hatti-harakati o`yining sotsial roli va unga tegishli harakatlar haqidagi tasavvurlar bilan boshqarish qobiliyati tarkib topadi. Bola rolli o`yinlarning rivojlangan bosqichiga kelib, boshqa bolalar bilan o`zaro munosabatga kirishadi. O`yin paytida rollarni taqsimlab, qabul qilingan rollarga mos holda bir-birlariga murojat etib, bolalar sotsial hatti-harakatlarni, o`z harakatlarini jamoa talabiga buysundirishni bilib oladi.

O`yinlarning navbatdagi bosqichida - QOIDALI O`YINLARDA - ish-harakatlarning mazkur hislatlari yanada rivojlanadi. Lekin endilikda ish-harakatlar abstrakt talablar yoki qoidalar asosida bajariladi. Aslini olganda bu o`rinda o`yindan xulosa boshlanadi. Ijtimoiy belgisiga ko`ra u o`yinga o`xshab qolsa ham (faoliyat hali ham foydali mahsulot bermaydi), lekin psixologik strukturasiga ko`ra, faoliyat mehnatga (maqsad faoliyatning o`zi emas, balki uning natijasiga qaratilgan) va o`qishga (maqsad o`yinni o`zlashtirishdan iborat) yaqinlashadi.

TA'LIM

Bolaning "odamga aylanguncha" egallagan hamma narsani o`rganishdan, ya`ni tajribani o`zlashtirib olishdan iboratdir. Insonning hatti-harakatlari biologik tajriba bilan belgilanmaydi, balki sotsial tajriba bilan belgilanadi. Lekin sotsial tajribani biologik yo`l bilan berib bo`lmaydi. Sotsial tajriba organizmning xususiyatlariga bog'liq bo`lmay, balki inson yashab turgan jamiyatning xususiyatlariga bog'liqdir. Biologik yo`l bilan nasliy jihatdan sotsial tajribani va insoniy ish-harakat shakllari hamda faoliyatlarini organizmning amaliy o`zlashtirishi uchun kerakli bo`lgan faqat ma'lum xususiyatlari berilishi mumkin.

Taraqqiyot davomida shunday vaqt keladiki, unda bolaning hayotiga alohida faoliyat turi kirib keladi. Bu faoliyatning shunday turiki, uning bevosita maqsadi ma'lum informatsiyalar, harakatlar va ish-harakatlar shakllarini o`zlashtirishdan iboratdir. Sub`ektning o`z maqsadi o`rganishdan iborat bo`lgan mana shunday maxsus faoliyatni TA'LIM (O`QUV) deb ataladi. Ta`lim faoliyati o`z tarkibiga quyidagilarni oladi: a) ma'lum bir ideal va amaliy faoliyat turini muvaffaqiyat bilan tashqil qilish uchun narsa va hodisalarning zarur xususiyatlari haqidagi informatsiyalarni o`zlashtirish (bu jarayonning mahsuloti bilimdir); b) mana shu faoliyat turlarini yuzaga keltiradigan usul va operatsiyalarni o`zlashtirish (bu jarayonlarning mahsuloti malakalardan iborat bo`ladi);

v) ko`zlangan maqsad va berilgan masala shartiga mos ravishda to`g`ri yo`l va operatsiya tanlash hamda nazorat qilish uchun ko`rsatilgan informatsiyalardan foydalanish usullarni egallash (bu jarayonning mahsuli - ko`nikmadan iborat bo`ladi).

Shunday qilib, insonning ma'lum bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishda ongli maqsad bilan boshqariladigan barcha harakatlari ta`lim bilan bog'liq bo`ladi. Ta`lim jarayoni insoniyatning ijtimoiy tajribasini o`zlashtirishga yo`naltirilgandir.

O`quv faoliyati o`quvchilarga, yoshlarga bilim berib qolmay, ularni o`z harakatlarini, operatsiyalari va malaka, tajribalarni, bilish jarayonlarini boshqarish o`rgatishga yo`naltirilgan. O`quv faoliyati odamni mehnat faoliyatiga tayyorlaydi.

MEHNAT

Mehnat ma'lum ijtimoiy foydali moddiy yoki ma'naviy mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyatdan iboratdir. Mehnat faoliyati odamning asosiy, yetakchi faoliyatidir. Kishilarning mehnat faoliyati o`z mohiyati jihatidan ijtimoiydir. Jamiyat ehtiyojlari mehnat faoliyatini tarkib toptiradi, uni aniqlaydi, yo`naltiradi, uni aniqlaydi va boshqaradi. Mehnat taqsimoti tufayli, bironta kishi ham o`ziga kerakli narsalarni o`zi to`liq, oxirigacha ishlab chiqarmaydi. Odam jamiyat uchun kerakli, jamiyat talab qilgan (ehtiyojga ko`ra) narsalarni ishlab chiqaradi. O`zi uchun kerakli narsalarni esa o`z mehnati evaziga jamiyatdan oladi. Shaxsning ehtiyojlarining qondirilish mexanizmi va shakllari jamiyatda xukmron bo`lgan ishlab chiqarish munosabatlari bilan belgilanadi. Shunday ekan, odamning mehnatda bajaradigan ish-harakatlari biologik ehtiyojlar bilan belgilanmaydi, balki ko`zlangan ishlab chiqarish MAQSADI hamda bu maqsadni amalga oshirishda uning boshqa kishilarga munosabatlari bilan belgilanadi.

Mehnat jarayonining bunday xususiyatlari inson faoliyati va hayvonlar hatti-harakatlar orasida katta tafovut borligini ko`rsatib turibdi.

Ma’ruza 6. NUTQ VA MULOQOT

Reja:

- 1. Til va nutq faoliyati haqida tushuncha.**
- 2. Tilning funksiyalari.**
- 3. Nutq faoliyati haqida tushuncha.**
- 4. Nutq faoliyatining turlari.**
- 5. Shaxs muomala jarayonida (tranzakt psixologiyasi)**

Tayanch iboralar:

Til, nutq va muomala haqida tushuncha. Muomalaning kommunikativ, interaktiv, pertseptiv jihatlari. Pedagogik muomala. Muomala va til. Nutq. Nutq mexanizmlari. Verbal va noverbal kommunikatsiya vositalari. Pedagogik muomalaning psixologik jihatlari. Muomala jarayonida yuzaga keladigan nizolar. Muomala jarayonida kishilarning bir-birini tushunishi va idrok qilishi mexanizmlari.

TIL VA NUTQ FAOLIYATI HAQIDA TUSHUNCHA

Ma'lumki hayvonlar olamidagi aks ettirish shakllari, ularning "tillari" ijtimoiy tajribani uzatish va bu tajribani keyingi avlod tomonidan o`zlashtirish imkonini bermaydi. Shaxsnинг rivojlanishi, uning ongining shakllanishi, uning individual tajribasi umuminsoniy tajriba bilan uzviy bog'liq. Kishilarda tilning mavjudligi tufayli ular ijtimoiy tajribani uzatadilar va o`zlashtiradilar.

Tilning o`zi nima? Umumiy qilib ta'rif berganda, **TIL BELGILAR TIZIMIDAN IBORATdir**.

Belgi - vogelikning istagan elementlarini qandaydir aks ettirish, uni shartli ravishda belgilashdir. Masalan, avtomobil' haydayotib, yo'limizda uchraydigan kucha harakati belgilariga bog'liq holda o`zimizni har xil holda tutamiz. Bundan ko`rinib turibdiki belgi ma'lum jihatdan quroqlga o`xshaydi. Faqat qurol bizning amaliy mehnat faoliyatimizga vositachilik qiladi, belgi esa bizning nazariy va intellektual faoliyatimiz, yuksak psixik funksiyalarimiz (idrok, tafakkur va h.k.) vositadir. So`zning belgi sifatidagi asosiy xususiyati uning mazmuni, ma'nosidir. "Stul" so`zining ma'nosi shu predmetning barcha ijtimoiy muhim belgilarini, xususiyatlarini (turkumi, vazifasi kabi) o`zida aks ettiradi.

TILNING VAZIFALARI

Tilning eng muhim funksiyalaridan biri - til IJTIMOIY-TARIXIY TAJRIBANI BERISH VA O`ZLASHTIRISH vositadir. Har bir kishining hatti-harakati va faoliyati kishilikning ijtimoiy-tarixiy tajribasi bilan bog'liq holda rivojlanadi. Kichkina bola dunyoni mustaqil suratda bilib olmaydi. U bilimlarning bir qismini ota-onalaridan surab, savollar berib o`zlashtiradi. Boshqa bir qismini o`zaro munosabatlarda, asosan, til yordamida o`zlashtiradi. Yana bir qism bilimlarni maktabda, pedagoglardan o`rganadi (til yordamida). Bilimlarning anchagini qismini kitoblardan o`qib o`rganadi (yana til yordamida). Bu tilning KOMMUNIKASIYA funksiyasidir.

Tilning ikkinchi vazifasi (funksiyasi) - til INTERAKSIYA vositadir. Ma'lumki kishining hatti-harakatlari va faoliyati, ko`pincha, ijtimoiy qimmatga ega bo`lmangan o`zga kishilarning bevosita tajribalari bilan ham belgilanadi. Agar biror kishi boshqasiga magazin yoki oshxonanining ishlamayotganligi haqida xabar bersa u o`z

hatti-harakatini o`zgartiradi. Boshqa magazin yoki oshxonaga borishi mumkin. Bu yerda til yordamida berilayotgan informatsiya kishining hatti-harakatini boshqarmoqda. Bu tilning interaktsiya yoki kishining hatti-harakatini boshqarish vositasi sifatidagi funktsiyasidir.

Tilning uchinchi vazifasi (funktsiyasi) kishining o`z tajribasi, va ijtimoiy tajriba asosida o`z hatti-harakatlarini boshqarishi bilan bog`liq. Odam biror muammoli vaziyatlarda o`z tajribasigagina asoslanib qolmay, boshqa kishilarning tajribalariga, umuman jamiyat tajribasidan ham foydalanadi. Ana shunday vazifalarni o`z oldiga quyish va hal qilish jarayoni INTELLEKTUAL AKT (harakat) deb ataladi. Intellektual harakat uch bosqichdan iborat bo`ladi: faoliyatni REJALASHTIRISH, uni AMALGA OSHIRISH, maqsad bilan SOLISHTIRIB ko`rish. Odamning individual harakatlari, asosan, mana shunday intellektual aktlardan tashqil topgan bo`ladi. Bu yerda avvalombor odamlarning REJALASHTIRA OLISH qobiliyati yuzaga chiqmoqda. Bunday rejalshtirish va umuman fikriy masalalarni hal qilishning asosiy quroli TILDIR. Bu yerda til intellektual faoliyatning (idrok, xotira, tafakkur, xayol) quroli sifatidagi vazifasi bilan to`qnash keldik.

NUTQ FAOLIYATI HAQIDA TUSHUNCHА

Nutq faoliyati - odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o`zlashtirish va avlodlarga uzatish yoki kommunikatsiya o`rnatish, o`z harakatlarini rejalshtirishda tildan foydalanish jarayonidir.

Nutq faoliyatining yo`nalishi har xil bo`lishi mumkin:

- yangi informatsiyani berish, yangi bilimlarni berish;
- aqliy masalani yechish.

Til aloqa vositasi yoki quroli, nutq faoliyati esa aloqa jarayonining o`zidir.

Psixologiya nutqni o`rganar ekan, har turli sharoitlarda, har xil muammoli vaziyatlarda tildan foydalanish xususiyatlarini aniqlaydi, inson hatti-harakatini rejalshtirishda tilning rolini o`rganadi, bolalarda aloqa (kommunikatsiya) jaryonining tarkib topish yo`llarini va shu kabilarni tahlil qiladi.

NUTQ FAOLIYATINING TURLARI

Nutq faoliyatini turli belgilar asosida klassifikatsiya qilish mumkin.

1. Nutqning psixofiziologik mexanizmi bilan bog'liq bo'lган murakkablik darajasiga ko`ra:

xoroviy nutq;	exologik (oddiy takrorlash) nutqi;
atash nutqi;	kommunikativ nutq.

Nutq faoliyatida rejorashtirishning (programmalashtirishning) roli bo`yicha:

faol nutq;	reaktiv nutq.
-------------------	----------------------

Nutqning ixtiyorligi bo`yicha:

ixtiyoriy;	beixtiyor (impul'siv) nutq
-------------------	-----------------------------------

Nutqning eksteriorizatsiyalashgan yoki interiorizatsiyalashganligiga ko`ra:

tashqi nutq;	ichki nutq
---------------------	-------------------

Yuqorida ko`rsatilganlardan bir nechatasiga to`xtalib o`tamiz.

Ixtiyoriy va ma'lum darajada faol nutq ko`p hollarda MONOLOGIK, reaktiv nutq esa DIALOGIK nutq deb ataladi.

MONOLOGIK NUTQ

Monologik nutq ma'lum darajada nutqning batafsil turi hisoblanadi. Chunki monologik nutqda biz barcha ma'lumotlarni iloji boricha to`liq berishga, notanish vaziyat va holatlarni tinglovchi tushunishi uchun batafsil tasvirlab berishga majburmiz.

Monologik nutq - nutqning faol, ixtiyoriy turlaridan biridir. Monologik nutqni amalga oshirish uchun gapirayotgan odam qandaydir nutq mazmuniga ega bo`lishi, shu mazmun asosida o`z nutqiy mulohazasini izchil ravishda qura bilishi lozim. Boshqacha qilib aytganda notiq o`z nutqini (gaplarnigina emas) avvaldan bir butun holda oldindan rejorashtiradi (programmalashtiradi).

Monologik nutq qiyin, murakkab bo`lganligi sababli uni maxsus ravishda tarbiyalash, shakllantirish talab qilinadi. Masalan kichik bola yoki o`rganmagan kishiga o`z fikrini batafsil, monolog sifatida bayon qilish qanchalik qiyinligini barchamiz bilamiz. Shu sababli maktablarda, boshqa tipdagagi o`quv yurtlarida monologik nutqni o`stirishga alohida e'tibor berish lozim. Ayniqsa o`qituvchi uchun "tili to`mtoq" bo`lishdan yomonroq, pedagogikaga zidroq narsa yo`q. Nutqning bu turini rivojlantirish uchun turli bahslar, ma'ruzalar bilan chiqishlar, treninglar o`tkazish lozim.

DIALOGIK NUTQ

Nutqning bu turi vaziyatga qarab yuzaga chiqadi va kontekstual (shu vaziyatdan, oldingi aytigan fikrning mazmuni va shakllaridan kelib chiqiladi) xarakterga egadir. Dialogik nutqning xaracteristikasi monologik nutqning xarakteristikasiga qarama-qarshidir.

Birinchidan, dialogik nutqda suhbatdoshlarga ma'lum bo'lgan ayrim suzlar tushirib qoldiriladi. Shu sababli yozib olingan dialogik nutq o'zgalar uchun ko`pincha tushunarsiz bo`ladi.

Ikkinchidan, dialogik nutq ixtiyorsiz, REAKTIV nutqdir. Dialogik nutq ko`pincha biror fikrga, lukmaga, hatto nutq bilan bog'liq bo`lmagan stimullarga javob tariqasida (qo`lini eshik qisib olgan kishi - "Ox, qurib ketsin!" deydi) yuzaga keladi.

Uchunchidan, dialogik nutq nihoyat darajada OZ TARTIBLIDIR. Dialogik nutq davomida luqma tashlash odatda oldindan rejalashtirilmaydi. Agar dialogik nutq jaryonida rejalashtirishga to`g'ri kelsa ham bu oddiy rejalashtirish bo`ladi. Chunki, biz yuqorida ko`rsatib o`tganimizdek dialogik nutq kontekstga bog'liq ravishda boshqariladi. Ko`p hollarda u guyoki o`z-o`zidan "oqib" kelaveradi. Dialogik nutqda qo`llanilaverib odat bo`lib qolgan so`zlar va SO`Z birikmalari ("rahmat", "yaxshi", "marhamat") juda ko`p qo`llaniladi.

ICHKI NUTQ

Ichki nutq nutq faoliyatining alohida xili hisoblanadi. Ko`pincha ichki nutq amaliy va nazariy faoliyatni rejalashtirish fazasida vosita sifatida nomoyon bo`ladi. Agar biz biron-bir qiyin masalani yechayotgan bo`lsak uni o`z-o`zimiz bilan maslahat (muhoqama) qilib olamiz. Tabiyki ichki nutq chala-yarim, uzuq-yuluq - ya'ni fragmentar xarakterga ega bo`ladi. Sababi biz o`z fikrimizni, nima haqida o`ylab nima haqida "gapirayotganimizni" o`zimiz juda yaxshi tushunamiz.

Ikkinchi tomondan, ichki nutqda biron vaziyatni idrok qilish paytida anglashilmovchilik bo`lmaydi. Ichki nutq xaddan tashqari sharoitga bog'liqdir. Ichki nutqni artikulyatsiya a`zolarining harakatlarini (lablar, tilning harakatlari) qayd qilish yo`li bilan tekshirish mumkin. Ammo bu holda ichki nutqning mantikiy jihatdan oxirigacha olib boilmaydigan, real ovoz chiqarishgacha yetkazilmaydigan talaffuz qilish harakatlarigina o`rganiladi.

YOZMA NUTQ

Yozma nutq monologik nutqka juda yaqin turadi. Shu sababli ba`zi qo`llanmalarda uni monologik nutqning turi ham deb ko`rsatishadi. Monologik nutqning barcha xususiyatlari yozma nutqqa ham xosdir. Yozma nutq ogzaki monologik nutqka nisbatan birmuncha batafsilrokdir. Chunki yozma nutq jarayonida suhbatdoshdan keluvchi teskari aloqaning bo`lmasligi. Bizdan suhbatdoshimiz biror narsani so`ray olmaydi, tushungan yoki tushunmaganini izhor qila olmaydi. Shu sababli hamma narsani batafsil, oldindan tushuntirishga, izhor qilishga harakat qilamiz. Bu jihatdan yozma nutq og`zaki nutqqa nisbatan nihoyatda murakkab. Yozma nutqni o`zlashtirish va uni tushunish uchun maxsus tartibda ta'lim olmoq zarur.

Yozma nutq, o`z mohiyati jihatdan, nutqning eng ixtiyoriy turidir. Agar biz bayon qilmoqchi bo`lgan fikr o`ylaganimizdek chiqmasa biz uni yana boshdan boshlaymiz. Yozma nutq ham turli darajada va shaklda bo`lishi mumkin. Kimdir yozma nutq davomida og`zaki nutqqa suyanadi o`zicha gapirib turadi), kimadir yozma nutq to`liq ichki planga to`liq o`tgan. U shunchalik o`rganganki, tashqi nutqqa suyanmaydi, guyoki "o`ylamaydi", gaplar o`z-o`zidan quyilib kelaveradi. Yozma nutqning natijalari ham doimo ko`zga tashlanib turadi. Shu sababli tartibli nutqqa o`rgatishni yozma nutqdan boshlash kerak.

Shaxs muomala jarayonida (tranzakt psixologiya)

Keyingi yillarda psixologiya fanida va hayotda kishilar orasidagi muomala jarayonini o`rganish va boshqarishga qiziqish kupaymoqda. Ko`pchilik psixologik tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, agar kishi o`zining xulq atvori va boshqalar bilan muomalasi ostida yotgan qonuniyatlar va tamoyillarni bilsa u hayotga munosabatini, boshqalarga bo`lgan munosabatini keskin o`zgartirish imkoniyatiga ega bo`ladi. «Muomala» psixologik kategoriya sifatida juda ko`p o`rganilgan bo`lishiga qaramay, uni o`rganish davom etmoqda. Bu muomalaning muhimligi va ko`p qirraliligi bilan tushuntiriladi.

Biz keyingi yillarda g`arbda juda ommalashgan «Tranzakt psixologiya» nomoyondalari tomonidan taklif qilingan fikrlar bilan tanishtirmoqchimiz. Bular orasidan keng ommaga (rus va ingliz tillarida) tanish bo`lgan e.Bern («Igriu, v kotoriue igrayut lyudi»), T.Xarris («Ya-O`key-Tiu- O`key») va M.Djeyms, D.Djondjeval («Rodit`sya, chtobiu pobedit'») asarlarini ko`rsatib o`tish mumkin.

Tranzakt psixologiyasi tarafdarlarining fikriga ko`ra kishilar muomala jarayonida o`zlari anglagan yoki anglamagan holda o`z hamfikrlarining fikrini, hatti-harakatini boshqarish, o`zgartirishga intiladilar. Masalan, Perlzning fikricha muomala jarayonida kimdir asosiy, boshqaruvchi, vaziyatni nazorat qiluvchi, ikkinchisi esa unga buysinuvchi bo`ladi. Birinchisi ko`rsatadi, ikkinchisi bajaradi. M.Djeyms , D.Djondjevallar esa muomala jarayonida «Ta`qib qiluvchi», «Ta`qiblanuvchi», «Yordamchi» rollarida bo`ladilar deb ko`rsatadilar.

«Ta`qib qiluvchi» - boshqalarning hatti-harakatlarini, faoliyatini boshqarishga, qandaydir cheklashlar, chegaralar o`rnatishga harakat qiladi, ta`qiplaydi.

«Ta`qiblanuvchi» - unga qilgan ishi uchun, o`zini to`tishi uchun va h.k. uchun «Ta`qib qiluvchi» unga tanbeh beradi, nimanidir unga ta`qiplaydi. Ko`pincha ular o`zini boshqalar nazarida qiynalayotgandek ko`rsatishga urinadilar.

«Yordamchi» - ko`pincha «Ta`qiblanuvchi»ga yordam berishga intiluvchi yoki o`zini shunday ko`rsatishga harakat qiluvchi shaxs.

Eng ko`p tarqalgan nazariyalardan biri e.Bern nazariyasidir. e.Bern muomala jarayonidagi pozitsiyasiga ko`ra kishilar «Ota-on»(ko`proq «qaynona» tushunchasi mos keladi), «Katta kishi» va «Bola» rollarini o`ynaydilar deb ko`rsatadi.

E.Bern ajratgan rollarni quyida jadval ko`rinishida aks ettiramiz:

	Ota-onा	Katta kishi	Bola
Ishlatadigan ibora va so`zlar	Hamma biladiki..... Sen hech qachon..... Sen doimo..... Hayronman.....	Qanday? Nima? Qaerda? Nima uchun? ehtimol..... Bo`lishi mumkin.....	Men sizdan xafa....! Juda ajoyib, zo`r! Qoyil! Dahshat! Rasvo!
Intonatsiyasi	Ayblovchi, go`yoki kechi-ruvchi, tanqidiy, ogoh lantiruvchi	Reallik bilan bog'liq	Juda hissiy
Holati	Yuqoridan keluvchi, Doimo u haq, u doimo o`zini to`g'ri tutadigandek	Diqqat bilan eshi-tishga, so`rab-surishtirishga tayyordek	Biroz beso`naqay, o`yinqaroqroq, ezilgan, azobga qolgan
Mimikasi	Qoshlari chimirilgan, qovoqlari uyulgan, norozilik, qayg'urish	Diqqat-e'tiborlilik, teran fikrlilik	Hayratlanish, qoyil qolish, ezilish
Gavda holati	Qo`llar belda, ko`rsatgich barmoq ochiq, qo`llar ko`krakda qovushgan	Hamsuhbatga engashgan, unga diqqat bilan qaragan	Spontan harakatchanlik (mushtumini tugadi, barmoqlarini ezadi, tug'masini «o`ynaydi»

E.Bern har bir muomalada ishtirok qilayotgan kishining hatti-harakatini, pozitsiyasini yuqoridagilardan kelib chiqib baholashni taklif qiladi.

Ma’ruza 7. GURUH VA JAMOA PSIXOLOGIYASI.

Reja:

- 1. Guruh haqida tushuncha.**
- 2. Guruhlardagi ijtimoiy psixologik hodisalar.**
- 3. Guruhning ichki tuzilishini o`rganish.**

Tayanch iboralar:

Guruhlar haqida tushuncha. Guruhlarning turlari: shartli va real, katta va kichik, rasmiy va norasmiy guruhlar. Rivojlanganlik darajasiga ko`ra guruhlarning turlari. Jamoa haqida tushuncha. Guruhlarning shakllanishining psixologik xususiyatlari va guruhiy munosabatlarini boshqarish.

Shaxslararo munosabat to`grisida. Guruhda shaxslararo munosabat: simpatiya /mehr-muhabbat/, antipatiya, uyushganlilik. O`zaro kelishuv, guruh a`zolari orasida izzat-hurmat. Rasmiy va norasmiy liderlik. Liderlik nazariyalari. Guruhning va uning ichki tuzilishi ni o`rganish metodlari: sotsiometriya, refrentometriya metodlari. Ta’lim-tarbiya jarayonida shaxslararo mos kelishlikni, munosabatlarini hisobga olish.

Guruh va jamoada ijtimoiy-psixologik iqlim.

GURUH HAQIDA TUSHUNCHA

Guruh - bu muayyan belgiga, masalan, sinfiy mansublikka, birgalikda faoliyat ko`rsatishning mumkinligiga va uning xarakteriga, tashqil topish xususiyatlari va shu kabilar asosida ajralib turadigan umumiyligidir. Guruhlarning klassifikatsiyasi ham shunga muvofiq tarzda bo`lib, kichik va katta guruhlarga bulinadi - o`z navbatida ular ham real (bog’langanlik), shartli formal (rasmiy) hamda noformal (norasmiy) guruhlarga, rivojlanish darajasi turlicha bo`lgan, ya’ni rivojlangan (jamoalar) va yetarli darajada rivojlanmagan yoki kam rivojlangan guruhlarga (uyushmalarga, birlashmalarga, aralash guruhlarga) bulinadi.

Katta guruhlar umumiy makon va zamonda hayot kechirayotgan anchagina odamlarni o`z tarkibiga olgan sotsial umumiylikni tashqil qiladigan real (bog’langan) guruhlar shaklida bo`lishi mumkin. Bu xildagi katta guruhlarga korxonaning mehnat jamoasi yoki ko`pgina o`qituvchilar bir - birlari bilan bevosita o`zaro aloqada bo`lmasalar ham, lekin ayni chog’da yagona bitta rahbarga (direktorga, ilmiy mudirga) buysinadigan, bitta partiya va kasaba soyuz tashkilotiga kiradigan, maktab hayotiga oid hamma uchun umumiy hisoblangan ichki tartibning barcha qoidalariga amal qilinadigan kattagina bir mакtabning pedagoglar jamoasi kiritilgan bo`lishi mumkin. Katta guruhlar ba’zan bir belgilari (sinfiy, jinsiy, milliy, yesh va boshqa belgilari) ga binoan ajratiladigan va birlashtiradigan shartli guruhlar shaklida bo`lishi ham mumkin. Katta shartli guruhga kiritilgan kishilar hech qachon bir - birlari bilan uyushmagan bo`lmasa ham, lekin bu xildagi guruhga ajratilgani uchun asos bo`lgan belgilariga ko`ra umumiy sotsial va psixologik ta’rifga ega bo`lishlari mumkin.

Kichik guruhlar - hamisha bog’langan umumiylik bo`lib, unga kiruvchi shaxslarning o`zaro birgalikdagi real harakati va ular o`rtasidagi real harakati va ular o`rtasidagi real o`zaro munosabatlar bilan bog’langandir. Bu guruhlar rasmiy (formal)

bo`lishi, ya`ni yuridik jihatdan qayd etilgan huquq va burchlarga, normativ asosida o`rnatilgan strukturaga, tayinlab yoki saylab qo`yilgan rahbarlikka ega bo`lishi mumkin.

Shuningdek, yuridik jihatdan qayd etilgan statusga ega bo`lmagan, ammo tarkib topgan shaxslararo munosabatlar (dustlik, xayrioxlik, xamjihatlik, ishonch va shu kabilar) tizimi bilan ifodalanadigan NORASMIY (ko`pincha ularni noformal deb ham atashadi) guruhlar ham alohida ajralib turadi. Ular alohida ajralib turadigan umumiylig (masalan, turli maktablar va xunar - texnika bilim yurtlarining mototsikl sportiga qiziqishi umumiyligi negizida birlashgan bir qancha o`quvchisi) sifatida yuzaga chiqishi va rasmiy guruhlar ichida yetarli darajada barqaror tus kasb etishi (sinfdag'i do`stoni ulfat tarzida kirishi) mumkin.

Rasmiy va norasmiy guruhlar o`rtasidagi chegaralar shartli va nisbiydir. O`quvchilarining bu xildagi norasmiy guruhlarini shakllantirish o`qituvchi olib borishi lozim bo`lgan tarbiyaviy ishning muhim vazifasi hisoblanadi.

Guruhlar rivojlanishining darjasи yoki saviyasi ularning klassifikatsiyasining eng muhim negizi hisoblanadi. Guruhiy rivojlanish darjasи - shaxslararo munosabatlarning shakllanganligining belgisi, guruhlar shakllanishi jarayoninig natijasidir.

Rivojlanish darajasiga ko`ra farqlanadigan guruhlarning - diffuz guruhlar, sotsial yo`nalishdagi uyushmalar, sotsial yo`nalishga zid uyushmalar va birlashmalar, kollektivlarning psixologik toifasi shu asnoda tarkib topadi.

Guruhiy rivojlanishning tegishli ravishda ancha ifodalangan darajalarini ko`rsatadigan (har bir konkret guruh boshidan kechirishi mumkin bo`lgan son sanoqsiz oraliq holatlari bilan birga) qat'iyan beshta pozitsiya alohida ajralib turadi:

1) bilvositalikning mumkin qadar yuksak darjasи va faoliyatning shaxslararo munosabatlari bilvosita ifoda etuvchi omillarning eng yuksak sotsial qimmati yuqori guruhlar. Bu jamoadir.

2) agar guruhda tegishli tarzda birgalikdagi faoliyat mavjud bo`lsa, shaxslararo munosabatlarni bilvosita ifoda eta oladigan eng yuksak darajadagi sotsial yo`nalishga ega omillar mavjud bo`lgan taqdirda bilvositalikning eng past darjasи. Bu sotsial yo`nalishdagi uyushma (misol uchun talabalarning guruhi) dir.

3) birgalikdagi faoliyatning yo`qligi bilan bog`liq bilvositalikning mavjud emasligi,. Bu diffuz guruh (misol uchun avtobusdagi yo`lovchilar yoki umumiy palatadagi bemorlardir)

4) shaxslararo munosabatlarning eng yuksak darajada nosotsial yo`nalishga ega bo`lgan bilvosita omillar mavjud sharoitlardagi qandaydir birgalikdagi faoliyat ining past darajada bil vositasi ifoda etilishi (misol uchun bezorilik qiluvchi o`spirinlar guruhi). Bu - antisotsial uyushmadir.

5) faoliyat vositasida ifoda etishning eng yuksak darjasи va bilvosita ifoda etuvchi omillarning eng yuksak darajada aksil ijtimoiy, reaktsion xarakterga egaligi. Bu – antisotsial birlashma (misol uchun mafiya) dir.

Jamoaning yuksak darajada rivojlangan guruh sifatida boshqa barcha guruhlarga nisbatan printsipial jihatdan farqlari tajriba yo`li bilan qayd etildi. Jamoada faoliyatning samaradorligi bilan o`zaro his - xayajonli psixologik munosabatlarning maqbul xarakteri o`rtasidagi nisbat ijobiy, sust rivojlangan guruhlarda esa salbiy bo`ladi. Past darajada rivojlangan guruhlarda guruhning mikyosi bilan uning a`zolaridan umumiy ishga eng

ko`p hissa kushish istagi o`rtasidagi teskari bog`lanish mavjudligi aniqlandi, guruhning miqyosi yiriklasha borishi bilan jamoadan birgalikdagi faoliyat ishtirokchilarining motivlari susaymaydi. Tasodifiy guruhda yordamga muhtoj kishiga yordam ko`rsatilishi ehtimoli guruhning miqyosi kengayishi bilan susaya boradi, jamoada esa bunday qonuniyat nomoyon bo`lmaydi va hokozo.

Shunday qilib, birgalikdagi sotsial qimmatga ega va shaxs uchun ahamiyatga molik faoliyat ning amalga oshirilishi o`zaro jamoatchilik munosabatlari urnatalishini, individual munosabat bilan jamoa munosabatlari o`rtasidagi ziddiyatlar barham topishini ta'minlaydi. Bunday faoliyat jarayonida shaxslararo munosabatlarda boshqa sharoitlarda qayd etilishi mumkin bo`limgan alohida hodisalar yuz beradiki, guruh rivojlanishining alohida belgisi sifatidagi jamoatchilik hosil bo`ladi. Aynan jamoa shaxsning jamiyatga bog`liqligini ifoda etadi. Shaxs ana shu bog`liqlik orqali erkinlikka muvaffaq bo`ladi.

GURUHLARDAGI IJTIMOIY PSIXOLOGIK HODISALAR

Guruhda quyidagi ijtimoiy psixologik hodisalar mavjud:ijtimoiy fikr, taqlid, ta'siriga berilish, konformizm. Ijtimoiy - psixologik muhit ko`p jihatdan jamoa a'zolarining sig'ishuvchanligiga bog`liqdir.

Guruhiy MOS KELISH (sig'ishuvchanlik) fiziologik va psixologik bo`lishi mumkin. Bir kishining mehnat unumdoorligini keskin tushiruvchi va bu bilan ikkinchisida toliqishning oshuviga olib keluvchi fiziologik mos kelishning buzilishiga o`tinni qo`lda arralash uchun bir juft ishchi sifatida baquvvat kishi bilan dardchil yigitchani yuborishgani misol bo`la oladi.

Guruhiy psixologik mos kelish psixomotor, emotsional - irodaviy xususiyatlariga diqqat va tafakkurdagi farqlariga bog`liqdir. Lekin hammadan ko`ra ko`proq guruh tarkibiga kiruvchi har bir kishining shaxsiy xarakteri xususiyatiga bog`liq bo`lmasligi, ammo, albatta, sig'ishuvchan bo`lishi kerak.

Psixologik muhit vujudga keltirishda aksari guruhga mos kelishga bog`liq bo`lgan ijtimoiy kayfiyat katta ahamiyatga ega. U guruhda bevosita ijobiy yoki salbiy psixologik muhit vujudga keltiradi.

GURUHNING ICHKI TUZILISHI

Har qanday guruh tuzilishiga ko`ra guruh a'zolari nufuzi va statusining o`ziga xos darajasini aks ettiradi. Uning yuqorisida referentometrik va sotsiometrik tarzda tanlanadigan shaxslar o`rin oladi, eng orqada esa noreferent va sotsiometrik jihatdan siqib chiqarilgan individlar turishadi. Mazkur ierarxiya zinapoyasining eng yuqori bosqichida guruhning lideri joylashadi.

Lider - bu shunday shaxsdirki, guruhning qolgan barcha a'zolari uchun o`zlarining manfaatlariga daxldor bo`lgan hamda butun guruh faoliyatining yo`llanishini va xarakterini belgilab beradigan eng ma'suliyatli yechimlarni qabul qilishga haqli deb hisoblaydilar. Lider rasman guruhning rahbari bo`lishi ham va, aksincha, bo`lmasligi ham mumkin. Lider bilan rahbarlikning yagona bitta shaxsga kelishi makbul hodisa hisoblanadi. Bordi-yu, agar bunday muvofiqlik bo`lmasa, u holda guruh faoliyatining samaradorligi rasmiy rahbar (masalan, sinf boshi) bilan norasmiy lider yoki liderlar o`rtasidagi munosabatlar qay tarzda yuz berishiga bog`liq bo`ladi.

LIDER TIPLARI.

Guruuh jamoasining rasmiy rahbarlik tizimi (guruhboshi, yoshlar tashkilotchisi va jamoatchilik ishlarning ayrim sohalari uchun mas'ul kishilar) unda norasmiy nufuzning taqsimlanishi va norasmiy peshqadam sifatida tanilish bilan to`g'ri kelishi ham, to`g'ri kelmasligi ham mumkin. Agar pirovad natijada shaxslararo munosabatlarda umumiy maqsadlarning mavjudligi jamoaga xalaqit qilmaydigan emas, balki hatto yordam berishi ham mumkin. Chunonchi, 30-40 o`quvchidan iborat guruuh hisoblanadigan guruuhda guruhboshi va yoshlar tashkilotchisiga tashqari odatga bir necha peshqadamlar mavjud bo`lib, ular tevaragida bir nechta norasmiy guruuhlar uyushadi.

Liderlarning quyidagi tiplari farqlanadi:

1. Faoliyatining mazmuniga qarab:

- a) Ilhomlantiruvchi, harakat yoki axloq dasturini taklif qiluvchi lider;
- b) Bajaruvchi - berilgan dasturni bajarish tashkilotchisi;
- v) Bir vaqtida o`zida ham ilxomlantiruvchi, ham bajaruvchi.

2. Boshqarish usuliga ko`ra:

- a) Avtoritar
- b) Demokratik
- v) Yuqoridagi ikki uslubni o`zida mujassamlashtirgan.

3. Faoliyati xarakteriga qarab.

- a) Universal - o`zida liderlik xususiyatlarni doim ko`rsatib turadigan;
- b) Situativ (vaziyatga bog'liq) - o`zida liderlik xususiyatlarini ma'lum o`ziga xos vaziyatlarni ko`rsatib turadigan.

GURUHNING ICHKI TUZILISHINI O`RGANISH

Psixologiyada guruhdagi tabaqalanishini (uning ichki tuzilishini) o`rganish uchun ko`plab metodlar qo`llaniladi. Ulardan ikkita asosiylari - sotsiometriya (sotsiometrik so`rov) va referentometriya metodidir.

Amerikalik psixolog, mikrosotsiolog J.Moreno guruhlarda shaxslararo munosabatlarni o`rganish uchun shaxslarning bir birini saylashini (tanlashi, afzal qurishlarni) aniqlash usulini va hissiy afzal qurishlarni qayd qilish texnikasini taklif etdi. Buni u sotsiometriya deb ataldi.

Sotsiometriya metodi kichik guruhlarga taalluqli bo`lgan shaxslararo munosabatlarni o`rganish va o`lchashning metodi sifatida taklif qilingan. Sotsiometriya yordamida shaxslararo birgalikdagi harakat jarayonida guruuh a`zolarida nomoyon bo`ladigan afzal ko`rinishni, befarqlik yoki xush ko`rmaslikni miqdoriy m`yorini aniqlash mumkin. Sotsiometriya guruuh a`zolarining bir - birlarini xush qurishi yoki xush ko`rmasligini aniqlashda keng qo`llanadi. Guruh a`zolarining o`zları bunday munosabatlarni anglab ola olmasliklari va ularning mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida o`zlariga hisob bermasliklari mumkin. Sotsiometriya metodi juda ham tezkor bo`lib, uning natijalari matematik usul bilan qayta ishlanishi va yozma shaklda ifoda etilishi mumkin.

Sotsiometrik usulining negizida "Sen kim bilan birga bo`lishni hohlarding?" degan to`g'ridan - to`g'ri savol turadi. U kishilar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni hohlagan jabhasida tatbiq qilinishi mumkin: sen kim bilan birga bitta partada o`tirishni, dam olishni, vaqtichog'lik qilishni, ishlashni hohlarding va hokozo. Qoida tariqasida

tanlashning ikki yo`nalishi - birgalikda mehnat qilish sohasidagi va vaqtichoglik qilish sohasidagi yo`nalishlari tavsiya qilinadi. Bu o`rinda tanlashning maqbulligi darajasida (benihoya istak borligi, bajonudilligi, befarqligi, unchalik istalmayotganligi, sira ham istak yo`qligi) aniqlik kiritilishi va tanlash uchun tavsiya qilinadigan shaxslar soni cheklangan bo`lishi ham mumkin. Tanlashlarni sotsiometriya matritsasiga tushirish chog`ida bular hisobga olinadi. Natijalarni tahlil etish o`zaro xush ko`rish va xush ko`rmasliklarning murakkab tarzda chatishib ketganligini, sotsiometrik "yulduzlar" (ularni ko`pchilik tanlaydi), "autsayder" larning (ulardan hamma o`zini chetga tortadi) mavjudligini va butun ierarxiyasi ko`rsatib beradi. Sotsiometriya metodini juda ham tezkor ekanligiga shubha yo`q va uning yordami bilan guruh ichidagi hissiy intilishlar manzarasi yetarli darajada aniq - ravshan ko`rsatilgan bo`lishi mumkin. Bu natijalarni kuzatishlar yo`li bilan aniqlash uchun uzoq vaqt sarflashga to`g`ri kelgan bo`lardi. Har qanday guruhni hosil bo`ladigan kommunikativ shaxobcha sifatida talqin qilish mumkin.

Lekin sotsiometrik tahlil guruhdagi shaxslararo kommunikativ shaxobchaga juda ham umumiy tarzda ta`rif berishi mumkin. U nima uchun individ bir xil birliklarda guruhga qarama - qarshi qo`yilganligi, boshqalarida esa kommunikativ shaxobchadagi bunday uzilish boligini payqamasligini tushunib yetishga olib bormaydi. Sotsiometrik texnika yordamida qayd etiladigan bog`lanishlar tizimini muqarar deb hisoblab bo`lmaydi. Bugungi "yulduz" ertaga yakkalanib qolishi mumkin. Sotsiometriya natijalari bizga bunday o`zgarishlarning sabablari haqida ma'lumot bera olmaydi. Shuningdek, guruh a'zolari birovlarni rad etib, boshqalarni tanlaganlarida nimalarga asoslanganliklari, guruhning har xil a'zolariga xos xush ko`rish va xush ko`rmasliklar zamirida qanday ma`no borligi mavhumligicha qoladi.

Ma’ruza 8. DIQQAT.

Reja:

- 1. Diqqat haqida tushuncha.**
- 2. Diqqatning fiziologik asoslari.**
- 3. Diqqatning turlari.**
- 4. Diqqatning xususiyatlari.**

Tayanch iboralar:

Diqqat jarayonining mohiyati. Diqqatning turlari. Diqqatning xususiyatlari: hajmi, barqarorligi, to`planishi, ko`chishi va h.k. Pedagogik jarayonda diqqatning qonuniyatlarini hisobga olish. Diqqatning asoslanganligi (diqqat va motivatsiya). O`quv jarayonida diqqatning ob`ektiv xususiyatlarining roli va ularni hisobga olish: diqqat va darsni tashkil qilish, diqqat va qiziqish, diqqatni boshqarish, o`quvchi va pedagoglar diqqatini tarbiyalash. Diqqatning xususiyatlarini o`rganish metodlari.

DIQQAT HAQIDA TUSHUNCHA.

Diqqat - psixik faoliyatning yo`naltirilishi va shaxs uchun ma'lum ahamiyatga ega bo`lgan ob`ekt ustida to`planishidan (barqaror yoki situatsiyali to`planishidan) iboratdir. Yo`naltirilishi deganda psixik faoliyatning tanlovchanlik xarakteri, ob`ektni ixtiyoriy yoki beixtiyor tanlash tushuniladi. Masalan maktab o`quvchisining biron boshqa narsaga chalg'imasdan, o`quv materialining mazmuniga zehn qo`yib o`tirishda uning psixik faoliyatning yo`nalishi ifodalanadi.

Psixik faoliyatning yo`nalishi deganda, faqat ana shu faoliyatni tanlashgina tushunilib qolmay, balki ana shu tanlanganini saqlab qolish va qo`llab-quvvatlash ham tushuniladi.

Diqqat psixik faoliyatning yo`naltirilishi bilan birga, uning TO`PLANISHINI ham taqozo qiladi. Psixik faoliyatning bir joyga to`planishi - mazkur faoliyatga hech qanday aloqasi bo`lmagan hamma boshqa narsalardan, boshqa hamma faoliyatdan diqqatni chalg`itish demakdir. Diqqatni bir joyga to`plash deganda, mazkur faoliyatga butunlay berilish, unga ozmi-ko`pmi chuqur e'tibor berish tushuniladi. Masalan murakkab va zarur o`quv materialini o`qish va tushunish diqqatni to`plashsiz amalgamaydi.

DIQQATNING FIZIOLOGIK ASOSLARI

Diqqatning fiziologik mexanizmlari ma'lum nerv markazlarining qo`zg`alishi va miyadagi boshqa nerv markazlarining tormozlanishi bilan bog`liqidir. Bu mexanizm sub`ekt (organizm) uchun ahamiyatli bo`lgan qo`zg`atuvchilarni ajratishni, psixik faoliyatning yo`nalganligini ta'minlaydi. Bunday yo`naltirilishga ORIENTASIYA (tushunib olish) refleksini misol qilib keltirish mumkin. Har qanday yangi qo`zg`atuvchi (agar u yetarli darajada kuchli bo`lsa) bu refleksni, I.P.Pavlov aytganidek, "nima u" degan refleksni keltirib chiqaradi. Bu sodda turdag'i diqqatning fiziologik asosidir.

Tadqiqotlarning ko`rsatishicha, orientatsiya (tushunib olish) refleksi paydo bo`lgan paytda xuddi uyqudan uyg'onib bedorlikka o`tishdagidek o`zgarish hosil bo`ladi. I.P.Pavlov tomonidan kashf qilingan nerv jarayonlarining INDUKSIYaSI qonuni diqqatning fiziologik asoslarini tushunib olish uchun muhim ahamiyatga ega.

Nerv jarayonlarining INDUKSIYaSI qonuniga asosan bosh miya po`stining bir joyida maydonga kelgan qo`zg`alish jarayonlari bosh miya po`stining boshqa joylarida tormozlanish jarayonlarini yuzaga keltiradi. Va aksincha bosh miya po`stining bir joyida yuzaga kelgan tormozlanish jarayoni bosh miya po`stining boshqa joyida kuchli qo`zg`alishni yuzaga keltiradi.

A.A.Uxtomskiy tomonidan ilgari surilgan DOMINANTLIK printsipi ham diqqatning fiziologik asoslarini tushunishda muhim rol o`ynaydi. Bu printsipga asosan, miyada qo`zg`alishning har doim ustun turadigan hukmron uchog`i mavjud, bu hukmron qo`zg`alish uchog`i ayni paytda miyaga ta`sir qilib, unda yuzaga kelayotgan hamma qo`zg`alishlarni qandaydir ravishda o`ziga tortib oladi va buning natijasida boshqa qo`zg`alishlarga nisbatan uning hukmronligi yanada oshib boradi. Bunday qo`zg`alish uchog`ining paydo bo`lish asosi mazkur qo`zg`atuvchining kuchigagina bog`liq bo`lmay, balki nerv tizimining ichki holatiga ham bog`liq bo`ladi. Bu hol psixologik jihatdan biror qo`zg`atuvchilarga diqqatning qaratilishi va ayni chog`da ta`sir qilib turgan boshqa qo`zg`atuvchilardan chalg`ishda ifodalanadi.

DIQQATNING TURLARI

Diqqatning yuzaga chiqish mexanizmlari juda murakkab va ularning ko`rinishi, turlari ham turlichadir. Diqqatning turli ko`rinishlari va mexanizmlarining umumiyligi asosida ularning turli turlari farqlanadi.

Shaxsning o`z oldiga diqqatni biror ob`ektga qaratishni maqsad qilib qo`yishi va iordaning ishtirokiga ko`ra uch xil diqqat farqlanadi.

IXTIYORSIZ DIQQAT.

Biz diqqatimizni qaratishni maqsad qilib qo`ymagan paytimizda psixik faoliyatning biror ob`ektga yo`naltirilishi va to`planishiga IXTIYORSIZ DIQQAT deyiladi. Ko`pincha faoliyatning maroqliligi, qiziqarliligi yoki kutilmaganda favquloddaliligi diqqatni o`ziga tortadi, odamni o`ziga jalb qiladi.

Ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiruvchi sabablar. Ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiruvchi sabablar juda xilma-xil va bir-biriga bog`lanib ketgan. Biz ularni shartli ravishda bir-biridan ajratamiz va tahlil qilamiz.

I. Tashqi qo`zg`atuvchining xarakteri bilan bog`liq ravishda yuzaga keladigan ixtiyorsiz diqqatni keltirib chiqaradigan sabablar:

1. Bunga dastavval qo`zg`atuvchining kuchi yoki intensivligi kiradi. Yetarli darajada kuchli bo`lgan har qanday qo`zg`atuvchi: qattiq ovoz, yorqin nur, kuchli silkinish diqqatimizni beixtiyor o`ziga jalb qiladi.
2. Bunda qo`zg`atuvchining absolyut kuchidan ko`ra , NISBIY KUCHI muhimroq rol` o`ynaydi.
3. Qo`zg`alishlar o`rtasidagi kontrast ham diqqatni o`ziga beixtiyor tortuvchi sabablardan biridir.
4. Qo`zg`alishning uzoq vaqt davom etishi va, shuning bilan birga narsaning fazoda tutgan o`rnining kattaligi muhimdir. Masalan:hajmi atrofdagi jismlardan nisbatan katta jism, qisqa muddatli qo`zg`atuvchilar orasida uzoq muddat davomida ta`sir qiluvchisi diqqatni o`ziga tortadi.
5. Qo`zg`atuvchining to`xtab-to`xtab ta`sir qilishi ham kishining diqqatini beixtiyor o`ziga tortadi (yonib-o`chib turuvchi yorug`lik).

6. Ta'sir qilib turgan qo`zg'atuvchining birdaniga to`xtab qolishi diqqatimizni jalb qiladi.

II. Ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiruvchi ikkinchi guruh sabablarga tashqi qo`zg'atuvchining odamning ichki holatiga va avvalo odamda mavjud bo`lgan ehtiyojlarga mos kelishi kiradi. Qorni och kishiga ovqatdan darak beruvchi har qanday qo`zg'atuvchi, masalan, OVQAT haqidagi gap, OVQAT hidi, va shunga o`xshashlar diqqatimizni beixtiyor o`ziga jalb qiladi. Fiziologik jihatdan olganda bu sabablarning ta'sirini Uxtomskiy tavsiya etgan dominanta printsipi bilan asoslash mumkin.

III. Ixtiyorsiz diqqatni keltirib chiqaruvchi uchinchi guruh sabablarga idrok qilinayotgan ob'ekt va bajarilayotgan faoliyat bilan bog'liq bo`lgan hissiyot kiradi. eng birinchi navbatda maroqli va jozibali ta'sir predmet va faoliyat kishini o`ziga tortadi. Masalan qiziqarli ish, qiziq hikoya va shunga o`xshashlar.

IY. To`rtinchi guruhga kishining ilgarigi tajribasining diqqatga ta'sirini kiritish mumkin. Bunga kishining bilimlari, tasavvurlari, malaka va odatlarining ta'siri kiradi.

Y. Diqqatning ixtiyorsiz jalb qilinishida kutish katta rol o`ynaydi.

YI. Yana bir guruh sabablar - kishining qiziqishlari ham ixtiyorsiz diqqatni keltirib chiqaruvchi sabablar orasida ko`p uchraydi. Qiziqishning mavjudligi har qanday murakkab faoliyatni, ob'ektni ham beixtiyor diqqat ob'ektiga aylantiradi. Yuqorida keltirilgan ixtiyorsiz diqqatni keltirib chiqaruvchi sabablarni pedagoglar dars davomida hisobga olishlari, shular asosida o`quvchilarning ixtiyorsiz diqqatni boshqarishlari lozim.

IXTIYORIY DIQQAT.

Ko`zlangan maqsad va qabul qilingan qaror tufayli ma'lum bir ishni bajarish lozimligini bilar ekanmiz, bunday holda diqqatning yo`nalishi va to`planishi ixtiyoriy xarakterga ega bo`lishi mumkin. Bunday paytda diqqatimizni bajarayotgan ishimizga qaratishni maqsad qilib qo`yamiz. Diqqatimiz ongli suratda boshqariladi. Ixtiyoriy diqqatda biz diqqatimizni qaratish uchun o`z oldimizga ongli suratda maqsad qo`yamiz, qiyinchiliklarni yengib, diqqatni to`plash uchun kurashib, har qanday boshqa narsalarga berilmaslik uchun iroda kuchini sarflab, diqqatimizni ongli suratda biror ishga qaratamiz. Ixtiyoriy diqqatning xarakterli xususiyati xuddi mana shu maqsad ko`zlashda, irodaviy zo`r berishda nomoyon bo`ladi.

Ixtiyoriy diqqat irodamizning nomoyon bo`lishidir. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatdan sifat jihatdan farq qiladi. Ixtiyoriy diqqat jarayonida ham yuqorida keltirilgan ixtiyorsiz diqqatni keltirib chiqaruvchi sabablarning ta'siri juda kuchli. Ammo bu sabablar bevosita emas, balki bavosita ta'sir qiladilar. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatdan kelib chiqqan.

MUVOFIQLASHTIRILGAN IXTIYORIY DIQQAT.

Ixtiyoriy diqqatdan tashqari, diqqatning yana bir turini qayd etib o`tish lozim. Bu diqqatning ixtiyoriy diqqat kabi maqsadga qaratilgan turi bo`lib, lekin doimiy irodaviy zo`r berishni talab qilmaydi. Diqqat avval boshda ixtiyoriy bo`ladi. Kishi biror faoliyatni bajarishga o`zini majbur qiladi, keyinchalik ishga kirishib, qiziqib ketadi va uning diqqati ixtiyorsiz diqqatga aylanadi. Diqqat avval boshda ixtiyoriy edi, keyin esa ixtiyorsizga aylandi. Shu sababli diqqatning bu turi ixtiyoriyidan keyingi ixtiyorsiz diqqat ham deb yuritiladi.

DIQQATNING XUSUSIYATLARI.

Diqqat ko`p tomonli jarayondir. Uning asosiy xususiyatlaridan diqqatning BARQARORLIGI VA TEBRANISHIGA to`xtalib o`tamiz.

Diqqatning davomiyligi va uning tebranishi nimalarga bog'liq. Ayrim tadqiqotchilar diqqatning davomiyligini sof biologik ritm (tebranish)lar bilan bog'lashga intilganlar. Diqqatning tebranishi odatda bilinar-bilinmas qo`zg'atuvchilar orqali o`rganilgan. Masalan, soatning chiqillashiga qulq solsak ovoz ba`zan kuchayadi, ba`zan kuchsiz eshitiladi. Bu tebranishlar bir qadar barqaror xarakterga ega. Ularning davomiyligi 1,5 sekunddan 2,5 sekundgacha yetadi. Bu tebranishing mexanizmi diqqatning tebranishi bilan emas, balki sezgi a'zolarining vaqt-vaqt bilan toliqishi va ularning o`zidagi biologik tebranish bilan bog'likdir.

Boshqa tomondan esa diqqatning tebranishi, yetarli darajada barqaror bo`lmasligi diqqatning ob'ekti bilan ham bog'liq. Masalan, diqqatni biror harakatsiz narsa ustida uzoq vaqt to`xtatib turib bo`lmaydi.

Diqqatning o`zgaruvchanligi va tebranishi ikkilanma (masalan, kesik piramida tasviri) tasvirlarda yaxshi ko`rinadi. Agar diqqatimiz biror o`zgaruvchan faoliyatga yo`naltirilgan bo`lsa, masalan koptok o`yinini tomosha kilayotgan bo`lsak, diqqatni barqaror emas deya olamizmi? Yo`q, bu holda diqqatimiz dinamik xarakterga ega bo`lgan bir ob'ektga nisbatan barqaror yo`naltirilgan. Garchi diqqat biron ob'ekt ustida uzoq vaqt davomida to`xtab tura olmasa ham, lekin diqqat uzoq vaqt davomida bitta faoliyatning o`zida to`planib turishi mumkin.

Diqqatning barqarorligi uchun bajarilayotgan faoliyatning aktivligi nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Diqqatning barqarorligi - uning biror ob'ekt ustida uzoq vaqt davomida to`planib turishini ko`rsatuvchi xususiyatdir.

DIQQATNING BO`LINISHI (TAQSIMLANISHI).

Diqqatning bo`linishi - psixik faoliyatning shunday tashkil qilinishiki, bunda ayni bir vaqtning o`zida ikkita va undan ham ko`p ish-harakat bajariladi. Diqqatning bo`linishiga misol: bir vaqtning o`zida arifmetik hisoblarni bajarish va biror qo`l mehnati turini bajarish. O`tkazilgan ko`plab tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, diqqatning taqsimlanishining samaradorligi bir qancha omillarga bog'liq ekan. Shular orasidan eng katta rol' o`ynaydiganlari: kishining diqqatining individual xususiyatlari (diqqatining rivojlanganligi) va bajarilayotgan ishlardan birortasining avtomatlashganlik darajasi. Bajarilayotgan ishlardan birortasi juda yaxshi o`zlashtirilgan bo`lsa, u diqqatni taqsimlashda ko`p murakkablik tug'dirmaydi. Shu sababli ko`pchilik sohalarda birinchi davrda ishni o`zlashtirish, bir vaqtning o`zida bir qancha ishlarni bajarish, ularni boshqarish va muvofiqlashtirish juda qiyin kechadi. Faoliyat o`zlashtirilib borilgach ko`p takrorlanadigan ish-harakatlar avtomatlashadi, ular maxsus ongli nazoratni talab qilmaydi. Shu sababli kishi ishni bajarish davomida boshqa narsalar haqida o`ylashi, kuylashi, ishga "e'tibor bermasdan" ishlashi mumkin.

DIQQATNING KO`CHISHI.

Diqqatning muhim xususiyatlaridan biri, uning ko`chishidir, ya`ni bir faoliyat turidan boshqa bir faoliyatga tez o`tish qobiliyatidir. Diqqatning ko`chirilishiga ba`zan ayni bir vaqtning o`zida idrok qilinadigan, ikkita o`zaro farqlanadigan qo`zg'atuvchini

aks ettirishda murojaat qilishga to`g'ri keladi. Misol tariqasida KOMPLIEKASIYa deb atalgan tajribani ko`rsatish mumkin. Tajribada 100 qismga bo`lingan sifrblat bo`ylab strelka tez aylanib turadi, ayni shu tez aylanish davomida sifrblatning qaeridadir qo`ng'iroq chalinadi. Tekshiriluvchi qo`ng'iroq chalinganda strelka sifrblatning qaysi bo`lagida turganini aniqlashi kerak. Bu ishni aniq bajarish juda qiyin. Turli tekshiriluvchilar turlicha aniqlaydi, biri 35-chi bo`lagida desa, boshqasi 25 bo`lagida deyishi mumkin. Hayotda esa diqqatning ko`chishi ikkita narsani (ob'ektni) to`g'ri idrok qilishga yordam ham beradi. Masalan, notiqqa qarash va uni eshitish ancha yengil bo`ladi; bu yerda eshitish va ko`rish qo`zg'atuvchilari bir-birini kuchaytiradi.

DIQQATNING CHALG'ISHI - diqqatning ongli ravishda ko`chishiga butunlay o`xshamaydi. Shu sababli ularni adashtirib yuborib bo`lmaydi. Diqqatning osonlik bilan chalgishi, uning yetarli darajada barqaror emasligidan darak beradi. Albatta kuchli, kutilmagan, umuman ixtiyorsiz diqqatni keltirib chiqaradigan sabablar diqqatning chalg'ishiga olib keladi. Ammo diqqatning o`ta tez bo`linishi (chalg'ishi), uning barqaror emasligi faoliyatga, o`qishga xalaqit beradi.

PARISHONXOTIRLIK. Parishonxotirlik diqqatning salbiy tomonlaridan biridir. Parishonxotirlik ikki turi farqlanadi. Birinchisi, biror ishga (fikrga, o`yga) nihoyatda berilib ketish natijasida kishining atrofdagi narsalarga, voqealarga va kishilarga e'tibor bermasligi.

Parishonxotirlikning tomoman boshqa holati - kishining biror narsa ustida diqqatini to`play olmasligi, bir narsa yoki hodisadan ikkinchisiga doim o`tib ketaverishidir. Katta kishilarda bunday parishonxotirlik toliqqan paytlarda uchraydi. Bolalarda esa diqqatning to`g'ri rivojlanmaganligi oqibatida bu xususiyat shakllanishi mumkin. Bundan tashqari parishonxotirlikning bunday turi ruhiy kasallik holatlarida ham uchrashi mumkin.

Ma’ruza 9. SEZGILAR.

Reja:

- 1. Sezgilar haqida tushuncha.**
- 2. Sezgilarning turlari.**
- 3. Sezgilarning umumiylar qonuniyatları.**

Tayanch iboralar:

Sezgi haqida tushuncha. Sezgilarning fiziologik asoslari. Analizatorlar, ularning tuzilishi. Sezgilarning turlari.

Sezgilarning asosiy qonuniyatları: adaptatsiya, sensibilizatsiya, sinesteziya. Psixofiziologik qonuniyatlar. Sezgilarning rivojlanishi va faoliyat.

SEZGILAR HAQIDA TUSHUNCHА.

Tashqi olamni bilish, undan kelayotgan ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash sezgi jarayonidan boshlanadi.

Sezgi - ongimizga ayni vaqtida, bevosita ta'sir qilib turgan narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini aks ettirishdan iborat psixik jaryondir. Materiya bizning sezgi organlarimizga ta'sir qilib sezgi hosil qiladi. Sezgi a'zolari axborotni qabul qilib oladi va saralaydi. Sezgi a'zolari tashqi olamning kishi ongiga kirib keladigan yagona yo`lidir. Kishi tevarak atrofdagi olam haqida doimo axborot olib turishi kerak. Axborotlarning ko`pligi (ortiqchaligi) yoki tanqisligi (sensor izolyatsiya) organizmda jiddiy funktsional buzilishlarga olib kelishi mumkin. Buni tekshirib ko`rish uchun maxsus surdokameralarda ko`plab tajribalar o`tkazilgan. Tajribalar shuni ko`rsatadiki, sinaluvchilar to`la izolyatsiya holatida bir necha soatdan keyin vahimaga tushadilar, tajribaning to`xtalishini talab qilib boshlaydilar. Ularda og'riq, haroratni sezish kabi sezgilar ham buzilishi kuzatiladi. Agar odam ko`proq vaqt izolyatsiyada saqlansa unda ongning buzilishi, turli gallyutsinatsiyalar kuzatiladi. Real hayotda bunday sharoit ongning butunlay buzilishiga olib kelishi mumkin.

Sezgilar va ularning mohiyati haqida ko`plab nazariyalar mavjud. Avvolo shuni ta'kidlab o'tish lozimki, materialistik psixologiya sezgilarni materiya ta'sirining natijasi deb qaraydilar. Sezgilarning haqiqiy mezoni esa amaliyot hisoblanadi.

Sub'ektiv idealistlar (Berkli, Yum, Max) olamni sezgilarning yig'indisi sifatida talqin qiladilar.

Boshqa bir nazariya tarafdarları (I.Myuller, Gel'mgolts) sezgi organlarining o`ziga xos quvvati haqida fikr yuritadilar. Ularning fikricha sezgilar faqat tashqi ta'sirlarning timsoli, shartli belgilari. Shu sababli ular qaysi sezgi organiga ta'sir qilsa, shu analizatorga xos sezgi hosil bo`ladi. Bu nazariyaning to`g'riliqi isbot qiluvchi ko`plab misollar bor - bo`lar elektr toki, bosimning ta'sirida turli analizatorlarda turli sezgilar hosil bo`ladi.

Ammo xid, tovushlar boshqa sezgi organlariga ta'sir qilib, ularga xos sezgilar hosil qilmaydilar. Sezgi organlari maxsus signallarni qabul qilishga ixtisoslashgan. Sezgi a'zolarining ixtisoslashishi - uzoq davom etgan evolyutsion taraqqiyot mahsulidir. Bundan shunday xulosaga kelish mumkin. Sezgi a'zolarining o`ziga xosligi sezgilarning o`ziga xosligini keltirib chiqarmaydi. Sezgi organlarining o`ziga xosligi tashqi olamning o`ziga xos xususiyatlari natijasida shakllangan.

Mana shunday maxsuslashgan sezgi organlarining majmui analizatorlarni tashkil qiladi. Har qanday analizator uch qismidan iborat:

1) tashqi ta'sir kuchini ichki nerv quvvatiga (jarayoniga) o'tkazadigan maxsus transformator - analizatorning pereferik qismi;

2) analizatorning pereferik qismini markaziy qism bilan bog'laydigan o'tkazish yo'llari. Ular afferent (markazga intiluvchi), efferent (markazdan qochuvchi) yo'llardan iborat bo'ladi.

3) markaziy, pereferiyadan keluvchi signallarni qabul qilib, qayta ishlovchi qism (miya qismi).

Analizatorlarning periferik bo`limida motor va hissiy qismlar uyg'unlashganligi sababli ular ta'sir qilayotgan qo`zg'atuvchilarning ob'ektiv xususiyatlarini aynan aks ettiradi.

SEZGILARNING TURLARI

Sezgilar ta'sir qilayotgan qo`zg'atuvchining xarakteriga, qo`zg'alishni qabul qilish masofasi, retseptorlarning joylashgan o'rinaliga ko`ra klassifikatsiya qilinadi. Retseptorlarning joylashgan o'rniga ko`ra sezgilarning quyidagi turlari mavjud:

1) tashqi olamdag'i narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishga moslashgan va tananing tashqi yuzasida retseptorlari bo`lgan sezgilar - eKTROSEPTIV SEZGILAR;

2) tananing ichki a'zolari va to`qimalarida joylashgan va tananing ichki holatini aks ettiruvchi sezgilar - INTEROSEPTIV SEZGILAR;

3) retseptorlari paylarda va mushaklarda joylashgan PROPRIOSEPTIV SEZGILAR. Ular gavdamizning holati va harakatlari haqida ma'lumotlar berib turadilar.

ekstrotseptiv sezgilarning o'zları ikki guruhga - KONTAKT (bevosita aloqa bog'lovchi) va DISTANT sezgilarga ajratiladilar. Kontakt sezgilarga (kontakt retseptorlar orqali sezgi hosil bo'ladi) quyidagilar kiradi: ko'rish, eshitish, hid bilish, teri sezgisi, ta'm bilish sezgilari. Sezgilarning bu klassifikatsiyasi modallik bo'yicha klassifikatsiya deyiladi va ular sezgilarning klassik klassifikatsiyasi ham deb ataladi. Chunki ular Aristotel' tomonidan ko'rsatib o'tilgan sezgilardir. Ular orasidan teri sezgisining o'zi bir qancha turlarga bo'linadi (tuyush, harorat, og'rik kabi).

SEZGILARNING UMUMIY QONUNIYATLARI.

Boshqa tabiat va psixik hodisalar kabi sezgilar ham ma'lum umumiyligi xususiyatlar va qonuniyatlarga ega. Shu jumladan ularning sifati, intensivligi (kuchi), davomiyligi sezgilarning umumiyligi xususiyatlariga kiradi.

Sifat - mazkur sezgining asosiy xususiyati bo`lib, uni boshqa sezgilardan farqlaydi va shu sezgi doirasida o'zgarib turadi. Masalan, eshitish sezgisida tovushning balandligi, mayinligi, zo'rligi; ko'rish sezgisining boyligi, ranglari va h.k. Sezgilarning sifatlarining boyligi va rang-barangligi materianing rang-barangligini aks ettiradi. Sezgilarning intensivligi-ta'sir qilayotgan qo`zg'atuvchining kuchi va analizatorning funktsional holati bilan belgilanadi.

Davomiyligi - sezgining vaqt bilan bog'liq xususiyati. U ham qo`zg'atuvchining xususiyati va analizatorning funktsional holati bilan bog'liq. Qo`zg'atuvchi sezgi organiga ta'sir qilgandayoq sezgi hosil bo'lmaydi, balki biroz vaqt o'tadi. Bu vaqt sezgining latent (yashirin) davri deyiladi. Turli sezgi organlarining javob berish tezligi,

ya'ni latent vaqt turlicha: taktil sezgilar uchun u 130 millisekund, og'riq uchun 370 millisekund, ta'm bilish uchun 50 millisekundni tashkil qiladi.

Shuningdek sezgi qo`zg'atuvchi o`z ta'sir kuchini to`xtatgan zaxoti yo`qolmaydi. Qo`zg'atishning asorati, ta'siri yana bir qancha vaqt davom etadi va ular keyin keluvchi obrazlarni hosil qiladilar. Keyin keluvchi obrazlar ijobiy yoki aks (negativ) bo`lishi mumkin.

ADAPTASIYA

Analizatorlarning sezgirligi bir qator fiziologik, psixologik va muhitning ta'siri ostida o`zgaradi. Bu o`zgarishlar orasida adaptatsiya hodisasi alohida o`ringa ega. Adaptatsiya yoki moslashuv deganda qo`zg'atuvchining ta'siri ostida sezgi organlari sezgirligining o`zgarishi tushuniladi. Adaptatsiyaning uch xil turi farqlanadi.

1. Qo`zg'atuvchining davomli ta'siri natijasida sezgilarning to`la yuqolishi. Agar sezgi organiga biror qo`zg'atuvchi doimo ta'sir qilib tursa sezgi batamom yo`qolib ketish tendentsiyasiga ega. Masalan, teriga tegib turgan yengil yuk tez orada sezilmay qoladi (qo`l soati borligini biz sezmaymiz). Bir hid bor joyda uzoq vaqt bo`lsak bu hid sezilmay qoladi.

2. Kuchli qo`zg'atuvchi ta'siri ostida sezgi organlarining sezgirligining zaiflashishi, kamayishi (negativ adaptatsiya). Agar qo`limizni muzday suvda tutib tursak teridagi sovuqni sezish retseptorlarining sezgirligi kamayadi. Ko`zga kuchli yorug'lik ta'sir qilib tursa ko`zning sezgirligi kamayib, ko`z shu yorug'likka moslashadi. Bu hodisa yorug'lik adaptatsiyasi deyiladi.

3. Kuchsiz qo`zg'atuvchi ta'siri ostida sezgi organlarining sezgirligining oshishi. Bu pozitiv adaptatsiya deb ataladi. Masalan, kinozalga kechikib kirgach bir qancha vaqt hech narsani ko`ra olmaymiz. Birozdan keyin biz atrofni ko`ra boshlaymiz. Ko`zning sezgirligi oshadi. Buni qorong'ilik adaptatsiyasi deyiladi.

Odatda negativ va pozitiv adaptatsiya bir sezgi organida bir vaqtida ro'y beradi. Undagi bir guruh retseptorlarning sezgirligi oshadi, ikkinchi (qarama-qarshi) guruh retseptorlarning sezgirligi kamayadi. Kinozalga kirganda qorong'ilikni ko`rishga moslashgan ko`rish hujayralarining sezgirligi oshib, yorug'likni ko`rishga moslashgan hujayralarning (retseptor) sezgirligi kamayadi. Yuqorida ko`rsatib o`tilgan pozitiv va negativ adaptatsiya mavjudligi sababli uy haroratida bo`lgan suv qishda "issiq", yozda esa "sovuj"dek tuyuladi. Ba`zi retseptorlarning adaptatsiyasi yetarlicha o`rganilmagan. Masalan, og'riq retseptorlarining adaptatsiyasi bor yoki yo`qligi to`liq o`rganilmagan. Har holda og'riq sezgilari butunlay yo`qolmaydi.

Adaptatsiyaning biologik ahamiyati shundaki, u kuchsiz qo`zg'atuvchilar ta'sirini payqab olishga va kuchli qo`zg'atuvchilarning salbiy ta'siridan sezgi organlarini himoya qiladi.

Sezgi organlarining sezgirligi faqat qo`zg'atuvchilarning ta'siri ostida o`zgarmaydi. Sezgi organlarining o`zaro ta'siri natijasida ham ularning sezgirligi oshadi. Masalan, kuchsiz tovush ta'siri ostida turish analizatorining sezgirligi oshadi, kuchli tovush ta'siri ostida esa uning sezgirligi zaiflashadi.

SENSIBILIZASIYA. Analizatorlarning o`zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezgirlikning kuchayishi hodisasiga sensibilizatsiya deyiladi. Sezgilarning

o`zaro ta`siri ostida ularning sezgirligining oshishi qo`zg`alishning kontsentratsiyasi va irradiatsiya jarayonlari bilan tushuntiriladi.

SINESTEZIYA. Qo`zg`atuvchining biron-bir analizatorga ta`siri natijasida boshqa bir analizatorga xos sezgining paydo bo`lishi sinesteziya deyiladi. Bunga "rangni eshitish" hodisasini misol qilib olish mumkin.

Ma’ruza 10. IDROK

Reja:

- 1. Idrok haqida tushuncha.**
- 2. Idrokning xususiyatlari.**
- 3. Idrokning turlari.**

Tayanch iboralar:

Idrokning umumiy xarakteristikasi. Idrok turlari va asosiy xususiyatlari. Idrok bilish faoliyati sifatida. O`quv jarayonida idrokning xususiyatlarini hisobga olish. Idrok va motivatsiya, appertseptsiya, predmet va fon. Pertseptiv vazifalarni yechishga muomala va hamkorlikdagi faoliyatning ta’siri. O`quvchi va pedagoglarda ijtimoiy pertseptsiyaning yosh va kasbiy xususiyatlari. Idrok xususiyatlarini o`rganish. Mashg’ulotlarni tashkil qilish va o’tkazishda idrokdagagi individual farqlarni hisobga olish: idrok qilish xarakteri va usuli, fazoni idrok qilish, vaqtini idrok qilish, dominant idrok turi.

IDROK HAQIDA TUSHUNCHA

Idrok - inson ongida sezgi organlarimizga bevosita ta’sir etayotgan narsa va hodisalarini tartibga solinib, yaxlit, bir butun holda aks ettirilishi. Idrok narsa va hodisalarining ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi sezgilardan farq qiladi. Idrok narsa va hodisalarini yaxlit, bir butun holda aks ettiradi. Lekin idrok ayrim sezgilarning oddiy yigindisidan iborat emas. Idrok hissiy bilishning yangi, yuqori bosqichidir. Idrok jarayonining o`ziga xos xususiyatlari mavjud. Bular: idrokning predmetliligi, yaxlitligi, ma’lum tartibda tuzilishi, konstantligi, anglanganligi.

IDROKNING PREDMETLILIGI. Idrokning predmetliligi ob’ektivlash ham deb ataladi va tashqi olamdan olingan ma’lumotlarni shu olamning o`ziga qaratishida ifodalanadi. Tashqi olamdan kelayotgan ma’lumot, obraz (masalan, o`qilayotgan kitobning tasviri) bizning sezgi organlarimizda emas (ko`z ichida emas), balki bizning tanamizdan tashqarida, tashqi olamda deb idrok qilinadi. Bu xususiyatsiz odamning amaliy faoliyatini tasavvur qilib bo`lmaydi. Idrokning predmetliligi tug’ma hisoblanmaydi. Su’bektda olamning predmetliligin ochib beruvchi ma’lum harakatlar tizimi mavjuddir. Bu yerda tuyish va harakat sezgilari muhim rol’ o’ynaydi. Harakatlar ishtirok etmagan takdirda bizning idroklarimiz predmetlik sifatiga ega bo`lmagan, ya’ni tashqi olam ob’ektlariga qaratilmagan bo`lar edi. Sezgi va idrokning farqini tushunish uchun quyidagi misolga murojat qilamiz. B.G.Anan’ev tomonidan bemor kishida ko`rish analizatorining sezgirligi (sezgi) saqlanib qolgan holda idrokning buzilishi tasvirlangan. Davolanishning avval boshida u butun fazoni qandaydir uzluksiz yorug’lik oqimi sifatida sezgan. Keyinchalik (davolanish natijasida) shaklsiz, ma’nosiz dog’larni ajrata boshlagan. U birorta ob’ektning predmet sifatidagi xususiyatini SO’Z bilan ham, chizish bilan ham tasvirlay olmagan. Uch oy davomidagi davolanishlardan keyingina bemor ko`zining idrok qilish xususiyati qayta tiklangan. Faqat ko`rish sezgisining o’zi narsalarni aks ettirishni ta’minlay olmaydi. Bunga misol tariqasida ko`pchilik olimlar kurbakaning ko`zidagi to’r pardaning ishini misol qilib keltiradilar. Qurbaqning ko`ziga

tushgan soyaning bir necha belgilari, asosan harakatlari va burchaklari haqida darak beradi. Shu sababli baqa harakatsiz pashshalar orasida ochdan o`lishi ham mumkin.

Predmetlilik idrokning sifati tarzida ish-harakatlarni boshqarishda alohida rol o`ynaydi. bu xususiyat yordamida tashqi olamdan olingen ma'lumotlarni ana shu olamning o`ziga solishtirib kurladi va idrok obrazlarining real predmetlarga adekvat (mos)ligi ta'minlanadi. Tashqi olam bilan uning aks ettirilishi mos kelmay qolgan hollarda odam to`g'riroq aks ettirishni ta'minlovchi idrokning yangi usullarini qidirishga majbur bo`ladi.

IDROKNING YAXLITLIGI. Yuqorida ko`rsatganimizdek, idrok sezgi a`zolariga ta`sir qiluvchi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi sezgilardan farqli ravishda, narsalarning yaxlit obrazidir. O`z-o`zida ravshanki, bu yaxlit obraz turli modallikkagi sezgilar orqali olingen narsalarning ayrim xususiyat va sifatlari haqidagi bilimlarni umumlashtirish asosida vujudga keladi.

IDROKNING MA'LUM TARTIBDA TUZILGANLIGI. Idrok ko`p darajada bizning bir lahzalik sezgilarimizga to`g'ri kelmaydi va bunday sezgilarning oddiy yig'indisidan iborat emas. Biz shu sezgilardan abstraktlashgan, ma'lum vaqt davomida tarkib topadigan elementlarning munosabatining umumlashgan tuzilishini idrok qilamiz. Musiqa eshitayotgan kishi uning tuzilishini, uning elementlarining o`zaro munosabatini idrok qiladi. Chunki musiqa alohida notalardan iborat emas. Notalarning o`zaro munosabatigina musiqani tashqil qiladi. Turli notalarni turli ketma-ketlikda, tartibda tuzib, turlicha musiqa hosil qilinadi.

Shu bilan birga odam notalarni ma'lum ketma-ketlikda emas, balki yaxlit, bir butun musiqa sifatida idrok qiladi. Faqat maxsus maqsad bilangina (kompozitor, tankidchi) alohida nota yoki musika asboblarining tovushiga e'tibor berishi, ularni fikran bir-biridan ajratishi mumkin. Bu xususiyatlar idrokning YaXLITLIGINI beradi.

IDROKNING KONSTANTLIGI. Idrok qilinayotgan tashqi olam, muhit doimo o`zgarishda, turli holatlarda, turli sharoitlarda nomoyon bo`ladi. Turlicha yorug'likda, fazoda turli holatda, turli masofada bo`ladi. Bunday omillar ta`siri ostida sezgi organlarimizga kelayotgan ma'lumotlar turlicha bo`ladi, ularni idrok qilish ham turlicha bo`lishi kerak. Ammo bizning pertseptiv (idrok qilish) tizimimiz bo`layotgan o`zgarishlarni tugirlash, tiklash qobiliyatiga ega. Shu tufayli biz atrofimizdagi narsalarning shaklini, rangini, katta-kichikligini nisbatan o`zgarmas (konstant) holda idrok qilamiz. Idrokning bu xususiyatini ko`rish idroki misolida tushuntiramiz. Narsaning uzoq-yaqinligiga qarab uning ko`z to`r pardasidagi tasviri ham kichik yoki katta bo`ladi. Biz uzoqdagi narsani kichik, yaqindagini katta deb idrok qilmaymiz. Agar bir qo`limizni uzoqqa cho`zib, ikkinchisini ko`zga yaqin ushlab tursak ham biz ikkala qo`limizni, barmoqlarimizni kattargan yoki kichraygan holda emas, balki uzoq yoki yaqin sifatida idrok qilamiz. Teatrda orqa joylarda va oldinda o`tirgan tomoshobin sahnadagi aktiyorlarni bir xil idrok qiladi (katta yoki kichik deb emas).

Idrok jarayonining konstantligi tug`ma emas. Masalan, qalin o`rmonda yashovchilar ochiq joylarda (cho`l) uzoqdagi predmetlarni uzoqlikdagi emas, kichik sifatida idrok qiladilar. Idrokning konstantligi buzilgan, yoki shakllanmagan bo`lsa kishi balanddan turib pastdagi narsani kichikdek idrok qiladi. Bolaligida ko`r bo`lib qolgan bemor 10-12 metr balandlikdagi derazadan pastga bemolol sakrab tushaolsam kerak deb

uylagan. Chunki u pastdagi narsalarni, predmetlarni uzoqlikdagi emas, kichkina ob'ektlar sifatida idrok qilgan.

Idrok jarayonining konstantligining manbai PERSEPTIV TIZIMNING FAOL HARAKATIDIR. Masalan, oynaga qarab turib yozishga harakat qilinsa tez oradi kishi avvaliga qiynaladi, keyinroq esa qo'lini to`g'ri boshqarishga o'rganadi. Shuningdek tasvirlarni turli burchak ostida o`zgartirib beruvchi ko`zoynaklar uzoq muddat taqib yurilsa kishi atrof muhitni to`g'ri idrok qilishga o'rganadi. Agar idrokning konstantligi bo`lmasa odam benihoya o`zgaruvchan olamni anglay olmas edi. Idrokning konstantligi tevarak atrofdagi olamning nisbatan barqarorligini ta'minlaydi.

IDROKNING ANGLANGANLIGI. Ma'lumki idrok qo`zg'atuvchining retseptorlarga bevosita ta'siri natijasida yuzaga kelsa ham, biroq pertseptiv obrazlar hamma vaqt ma'lum MA'NOGA ega bo`ladi. Odamning idroki tafakkur bilan, narsaning mohiyatini tushunish bilan mustahkam bog'liqdir. Narsani ongli idrok qilish - uni fikran atash degan ma'noni anglatadi. Biz idrok qilayotgan narsalarimiz haqidagi ma'lumotlarni o`zimizgi tanish bo`lgan narsalarga o'xshashligini aniqlashga, biror sinfga kiritishga, ba'zi kategoriyalarga qo`shishga intilamiz.

APPERSEPSIYA Idrok, uni yuzaga keltingan qo`zg'atuvchi bilan birgalikda idrok qilayotgan sub'ektning o`ziga tegishli bir qator omillarga ham bog'liq. Yakka holda olingen ko`z, yoki qulqoq idrok qila olmaydi, balki tirik odam idrok qiladi. Konkret tirik odamning doimo turli qiziqishlari, ehtiyojlari, hohishi, hissiyotlari, munosabati bo`lib, ular idrok jarayoniga ta'sir qiladi. Idrokning odam psixik hayoti mazmuniga va odam shaxsining xususiyatlari bog'liqligi APPERSEPSIYA deb yuritiladi. Idrok jarayoniga odamning oldingi tajribalari katta ta'sir qiladi. Idrok qilish jarayonida odam sezgi organlar orqali olayotgan ma'lumotlar to`grisida turli gipoteza (farazlarni) ilgari suradi va tekshirib ko`radi. Idrok qilinayotgan ob'ekt haqida, bevosita ravishda, qancha kam ma'lumot olinsa, farazga shuncha ko`p o`rin beriladi. Agar ma'lumotlar yetarli bo`lsa faraz qilish fazasi bo`lmasligi ham mumkin (Olport tajribalari). Idrok jarayoniga oldingi tajribaning ta'siri tekshirish uchun quyidagi tajriba o`tkazilgan. Odama narsalarning tasvirini 180 gradusga burib ko`rsatadiga ko`zoynak taqilgan. U hamma narsani to`ntarilgan holatda ko`rgan. Unga yoqilgan sham ko`rsatilganda u shamni to`g'ri holda idrok qilgan. Shuningdek eymsning "qiyyaygan xona"larida o`tkazilagn eksperimentlarda shu xonadagi barcha narsalar va odamlar noto`g'ri idrok qilingan. Masalan, katta yoshli odam boladan ham kichik bo`lib ko`rinadi. Lekin xotinlar o`z erlarini odatdagidek, o`zgarmagan holda idrok qilishgan, xonani esa qiyshi idrok qilishgan.

Idrok kishining o'tmish tajribasiga bog'liq. Odam qancha tajribaga boy bo`lsa, idroki ham shunchalik boy bo`ladi.

Idrok jarayoni kishining motivlariga, munosabati (ustanovka)ga ham juda bog'liq.

IDROKNING TURLARI

Idrok klassifikatsiyasining asosi, sezgilardagi kabi, idrok jarayonida ishtirok qiluvchi analizatorlarning har xilligidir. Idrok jarayonida qanday analizatorning yetakchilik qilishiga ko`ra KO'RISH, ESHITISH, TUYUSH, KINESTEZIK, HID BILISH VA TA'M BILISH idrokleri farqlanadi.

Idrokning soh holdagi turlari kam uchraydi. Odatda ular birlashib ketgan.

Bundan tashqari materiyaning yashash shakllariga ko`ra ham idrok turlari, FAZONI, VAQTNI, HARAKATNI idrok qilish farqlanadi.

Ma’ruza 11. XOTIRA

Reja:

- 1. Xotira haqida tushuncha.**
- 2. Xotira mexanizmlari.**
- 3. Xotira turlari.**
- 4. Xotira jarayonlari.**

Tayanch iboralar:

Xotira haqida tushuncha. Xotira jarayon sifatida. Mnemik amallar: guruhlarga birlashtirish, ma’nosiga asoslanish, eskini yangi bilan bog’lash, klassifikatsiya, analogiya, verballashtirish va h.k. Xotira samaradorligining motivga, qiziqishga, shaxsdagi oldindan shakllangan munosabatga, pedagog faoliyatiga bog’liqligi. O’quv jarayonida xotiraning xususiyatlarini hisobga olish. Xotira turlari, xotira tiplari, xotira jarayonlari va ularning psixologik xarakteristikasi. Xotiradagi individual farqlar. Xotira samaradorligiga idrok qilinayotgan o’quv materialining boshqa mavjud materiallar orasidagi o`rni, hajmi, mantikiyligi, tuzilishi, assotsiatsiyalarning mavjudligi, hissiyligi va h.k. ta’siri. Xotirani rivojlantirish.

XOTIRA HAQIDA TUSHUNCHA

Individning o`z hayotiy tajribasini esida olib qolishi, esda saqlab turishi va keyinchalik esga tushirishi XOTIRA deb ataladi. Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar farqlanadi: esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unitish. Bu jarayonlar biri-biridan ajralgan holda yuzaga chiqmaydi. Ular bir umumiy bir jarayonning turli tomonlarini tashqil qiladilar. Xotiraning yuzaga chiqishi, rivojlanishi kishining faoliyati bilan bog’liq. Ma’lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya’ni shaxsiy tajribani to`plash bilan bog’liqdir. To`plangan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qayta esga tushirishni talab qiladi. Ma’lum materialning faoliyatda qatnashmay qolishi yoki faoliyatidan tushib qolishi uni esdan chiqarib quyishga olib keladi.

XOTIRA MEXANIZMLARI

Hozirgi kunda xotira mexanizmlari haqida juda ko`plab nazariyalar mavjud. Ularning barchasini bir necha guruhlarga birlashtirish mumkin.

Birinchi guruh nazariyalar - psixologik nazariyalar, ikkinchisi - neyrofiziologik nazariyalar. Ularga keyingi yillarda yangi nazariyalar, uchinchi yo`nalish - bioximik yo`nalishdagi nazariyalar qo`shilmoqda.

Barcha nazariyalar orasida eng oldin paydo bo`lib rivojlangan nazariyalarga psixologik nazariyalar kiradi. Bu nazariyalar xotira jarayonlarini tarkib toptirishda sub’ektning faolligiga qanday o`rin berilganligiga, sub’ekt faolligining o`ziga qanday qaralganligiga bog’liq ravishda klassifikatsiya qilinadi. Shunday oqimlardan biriga assotsiativ nazariya kiradi.

Assotsiativ nazariyaning asosiy tushunchasi ASSOSIASIYA tushunchasidir. ASSOSIASIYA - aloqa bog’lanish degan ma’noni bildiradi va hamma psixik hodisalarini tushuntiruvchi universal mexanizm sifatida qaraladi. Ularning fikricha, agar ma’lum psixik hodisalar inson ongida ayni bir vaqtning o`zida bir-biridan ketma-ket hosil bo`lgan bo`lsa, ular o`rtasida assotsiativ aloqa hosil bo`ladi. Agar shu assotsiativ

aloqaning biron-bir elementi qayta ta'sir qilsa yoki qayta nomoyon bo`lsa, ongimizda assotsiativ aloqaning barcha elementlarini qayta tiklashga olib keladi.

Shunday qilib, assotsianizm ikkita ta'sirot o`rtasidagi aloqa bog'lanishning zaruriy va yetarli asosi - bu ta'sirlarning inson ongida ayni bir vaqtning o`zida nomoyon bo`lishi deb hisoblaydi.

Assotsianistlar quyidagi assotsiatsiya hosil bo`lishning asosiy sharoitlarni ko`rsatadilar. a) tegishli ob`ektlarning zamon va makon izchilligi; b) ob`ektlarning bir-biriga o`xshashligi, ob`ektlarning bir-biridan farqi, qarama-qarshiligi. Shu sharoitlarga mos ravishda uch turli assotsiatsiya ajratilgan: izchillik assotsiatsiyasi, o`xshashlik assotsiatsiyasi, kontrastlik assotsiatsiyasi.

Ammo bir xil sharoitda doimo bir xil assotsiatsiyalar zanjiri hosil bo`lmaydi. U holda turli kishilar bir xil sharoitda bir xil narsalarni eslab qolgan bo`lar edilar. Haqiqatda esa aloqalar tanlangan suratda hosil bo`ladi.

Geshtal'tizm (nemischa "gestalt" - obraz degan ma'noni anglatadi) - psixologik nazariya. Bu nazariyaning asosiy tushunchasi - geshtal't tushunchasidir. Geshtal't tushunchasi yaxlit, bir butun tashkilotni (bir butun organizmni) tarkibiy qismlarga bo`lib bo`lmaydigan tuzilishini anglatadi.

Bu nazariyaga ko`ra aloqalar (bog'lanishlar) hosil qilishning asosi sifatida materiallarning tashkil qilinganligi e'tirof qilinadi. Materialning ma'lum tashkiliy tartibi esda olib qolishda katta rol' o`ynaydi. Ammo materialning tuzilishini ochish va baholash, oqibatda uni esda olib qolishda faqatgina sub'ekt faoliyati natijasi asosiy rolni o`ynaydi.

Hozirgi zamon psixologiya fanida barcha psixik jarayonlarni, shu jumladan xotira jarayonlarini ham tarkib toptirishga sababchi bo`lgan asosiy faktor shaxs faoliyatidir, deb qarovchi nazariyalar toboro ko`proq e'tirof etilmoqda. Bu nazariyaga asosan materialni esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish jarayonlari sub'ekt faoliyatida ana shu materiallarning qanday o'rinda turishi bilan belgilanadi.

XOTIRA TURLARI

Xotira inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarida qatnashishi tufayli uning nomoyon bo`lish shakllari ham nihoyat darajada har xildir. Xotiraning har xil turlari uch xil mezon asosida turlarga bulinadi (birlashtiriladi).

1. Ko`proq faoliyatda ko`rinadigan psixik aktivlik xarakteriga ko`ra xotiraning harakat, emotsiyal (hissiy), obrazli va SO`Z-mantikiy turlari farqlanadi.

2. Faoliyat maqsadi xarakteriga ko`ra xotira ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira turlariga bulinadi.

3. Materialni qancha esda olib qolish va esda saqlash muddatiga qarab qisqa muddatli, uzoq muddatli, operativ xotira turlariga bo`linadi.

HARAKAT, EMOSIONAL (HISSIY), OBRAZLI VA SO`Z-MANTIQIY TURLARI.

Inson faoliyat ining har xil turlarida psixik faollikning turlicha ko`rinishlari ustun turishi mumkin. Shunga ko`ra xotiraning ham ma'lum bir turi xizmat qiladi. Bo`lar harakat, emotsiyal (hissiy), obrazli va SO`Z-mantiqiy xotiralardir.

HARAKAT XOTIRASI - turli xil harakatlarni va ularning tizimlarini esga olish, esda saqlash va qayta esga tushirishdan iborat. Ba`zi kishilarda xotiraning bu turi boshqalaridan ustun turadi. Ko`pchilik bu xotira turining mavjudligini payqamaydi.

Holbuki xotiraning bu turi har xil amaliy mehnat malakalarini tarkib toptirishning asosini tashkil qiladi. Agar harakat xotirasi bo`limganda edi, biron harakatni amalga oshirish uchun biz shu harakatning o`zini har gal "boshdan boshlab" o`rganar edik. Shu jumladan yurish ham harakat xotirasi mahsulidir.

EMOSIONAL (hissiy) XOTIRA - tuyg'u hissiyotga xos xotiradir. emotsiyal (hissiy) xotira biz boshimizdan kechirgan va xotiramizda saqlab qolgan hissiyotlar yo harakatga undovchi yoki o`tmishda salbiy kechinmalarga ega bo`lgan harakatlardan saqlab qoluvchi signal sifatida nomoyon bo`ladi. O`zga kishiga hamdard bo`lish qobiliyati, kitob qahramoni bilan birga qayg'urish hissiy xotiraga asoslanadi.

OBRAZLI XOTIRA - tasavvurlar, tabiat va hayot manzaralari, shuning bilan birga, tovushlar, hidlar, ta'mlar bilan bog'liq xotiradir. Xotiraning bu turi KO`RISH, ESHITISH, TUYISH, HID BILISH va TA'M xotiralaridan iborat bo`ladi. Xotiraning bu turlari turli odamlarda turlicha rivojlangan bo`lib, ko`pchilikda ko`rish va eshitish yetakchi rol o`ynaydi. Ammo ba'zi kasblarda va ba'zi ko`rish va eshitish qobiliyatini yo`qotgan kishilarda yaxshi rivojlangan bo`ladi.

Ba'zan EYDETIK deb atalgan ("eydos" - yunoncha so`z bo`lib OBRAZ degan ma'noni anglatadi) xotira turiga ega odamlar ham uchrab turadi. Ularda ko`rgan predmetlar, sharoitlar butunligicha, xuddi rasmga tushirib olingandek butun, barcha tafsilotlari bilan eslab qolinadi. Ular shu vaziyatni xuddi hozir idrok qilayotgandek "ko`ra oladilar". ???

SO`Z-MANTIQIY XOTIRAning mazmunini bizning fikrlarimiz tashkil qiladi. So`zlar bo`lmasa fikrlar ham bo`la olmaydi. Shuning uchun ham fikrlarimizga xos xotira shunchaki mantiqiy xotira deb emas, balki SO`Z-mantiq xotirasi deb ataladi. SO`Z-mantiq xotirada ikkinchi signallar tizimi asosiy rol o`ynaydi. Bu xotira turi insongagina xos xotira turidir. Xotiraning bu turi ijtimoiy tajribani o`rganishda, uni keyingi avlodga uzatishda - bilimlarni o`zlashtirishda, tarbiya jarayonida hal qiluvchi o`ringa ega.

IXTIYORSIZ VA IXTIYORIY XOTIRA

Faoliyat maqsadiga ko`ra xotiraning ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlari farqlanadi. Muayyan maqsadsiz biron bir narsani esda olib qolish va eslash, ixtiyorsiz esda olib qolish, ixtiyorsiz ravishda qayta esga tushirish IXTIYORSIZ XOTIRA deyiladi. Biz o`z oldimizga biron maqsad qo`yib esda olib qolganimizda IXTIYORIY XOTIRA haqida gap boradi. Ixtiyoriy ravishda esda olib qolish va esga tushurish jarayonlarida maxsus mnemik ("mneme" lotincha SO`Z bo`lib xotira degan ma'noni anglatadi) harakatlar tarzida amalga oshiriladi.

QISQA MUDDATLI VA UZOQ MUDDATLI XOTIRA. OPERATIV XOTIRA.

Ma'lum bir materialni esda olib qolish uchun va uni xotirada mustahkamlash uchun u sub'ekt tomonidan tegishli ravishda ishlab chiqilishi lozim. Bunday ishlab chiqish ma'lum miqdorda vaqt talab qiladi. Bu vaqt izlarni KONSOLIDASIYaLASH (lotincha consolidatio so`zidan olingan bo`lib, mustahkamlash degan ma'noni anglatadi) vaqt deb ataladi. Biz ma'lum daqiqa davomida hozir bevosa idrok qilmayotgan narsalarni go`yo ko`rishda, eshitishda davom etamiz (xuddi ko`z o`ngimizda turganday yoki qulog'imizda eshitilayotganday bo'laveradi). Bu jarayonlar beqaror va

o`zgaruvchan bo`lib, qisqa muddatli xotira deb nom olgan. Juda ko`p takrorlashlar, qayta tiklashlar natijasida materialni uzoq muddat davomida esda saqlab qolish xarakterli bo`lgan UZOQ MUDDATLI XOTIRADAN farq qilgan holda, qisqa muddatli xotira bir marta hamda juda qisqa vaqt oralig`ida idrok qilish va shu ondayoq qayta tiklashdan so`ng juda qisqa muddatli esda olib qolish bilan xarakterlanadi.

Qisqa muddatli xotira atamasi o`rnida adabiyotlarda, ko`pincha, uning turli sinonimlari - "bir lahzalik", "dastlabki", "zudlik", "qisqa vaqtli" va shu kabi atamalar qo`llaniladi.

OPERATIV XOTIRA tushunchasi inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan aktual harakatlar, operatsiyalar uchun xizmat qiluvchi mnemik jarayonlarni bildiradi. Masalan, arifmetik amalni bajarayotganda biz oraliq natijalarni "yodimizda" saqlab turamiz. Ishlatilgan, ishlangan materiallar esa esdan chiqarib yuborilaveradi. Ish tugatilgach ko`pincha barcha informatsiyalar esdan chiqarib yuboriladi. Shu sababli xotiraning bu turini "ishchi" xotira ham deb yuritiladi.

XOTIRA JARAYONLARI

Xotira turlaridan tashqari ularning jarayonlari ham farqlanadi. Bo`lar esda olib qolish (mustahkamlash), esga tushirish (aktuallashtirish, qayta tiklash), esda saqlash va unitish jarayonlaridir.

ESDA OLIB QOLISH natijasida yangi materialni oldin o`zlashtirilganlari bilan bog`lash orqali mustahkamlanadi. esda olib qolish individ tajribasini yangi bilimlar bilan boyitishning zaruriy shartidir. esda olib qolish tanlovchanlik xarakteriga ega. eslab qolish quyidagilarga bog`liq:

- inson faoliyatida aktiv qo`llagan, harakat qilgan narsalarni yaxshi eslab qoladi.
- materialni eslab qolish shaxsning motivlari, maqsadlari va faoliyat usullari bilan belgilanadi.

Esda olib qolish ham qisqa muddatli va uzoq muddatli, ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olib qolish tarzida bo`ladi. Shulardan ixtiyorsiz va ixtiyoriy esda olib qolishga to`xtalib o`tamiz.

Ixtiyorsiz esda olib qolishda material go`yoki "o`z-o`zidan" esda saqlanib qoladi. Bu nimaga bog`liq? O`tkazilgan tadqiqotlarning natijalari shuni ko`rsatadiki, ixtiyorsiz esda olib qolish quyidagi omillarga bog`liq:

- material faoliyatning asosiy maqsadining mazmuniga kirsa yaxshi esda qoladi. Agar material faoliyatni amalga oshirishning sharoitlariga, usullariga kirsa yaxshi esda saqlab qolinmaydi.
- faol ravishda aqliy ishni yuzaga keltirgan material ixtiyorsiz ravishda yaxshi esda qoladi;
- muhim hayotiy ahamiyatga ega bo`lgan, bizda qiziqish va hissiyot tug`dirgan material.

Ixtiyoriy esda olib qolish maxsus mnemik harakatlar mahsulidir. Bunda nimani va qanday qilib eslab qolishni aniqlash katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari quyidagi omillarni ko`rsatish mumkin:

- esda olib qolishning motivi;
- esda olib qolishning ratsional (oqilonqa) usullaridan foydalanish;
- tushunish, mantiqiy anglab esda olib qolish;
- o`rganilayotgan materialning rejasini tuzish;
- taqqoslash;

- tizimlashtirish va klassifikatsiya qilish;
- obrazli bog'lanishlarga keng suyanish;
- qayta esga tushirish;
- qismlarga bo`lib va yaxlit takrorlash kabilar.

QAYTA ESGA TUSHIRISH - ilgari esga olib kolingga materialni aktuallashtirish. Qayta esga tushirishning TANISH, QAYTA ESGA TUSHIRISH VA XOTIRLASH kabi turlari farqlanadi.

TANISH - qandaydir ob'ektni qayta idrok qilish sharoitida uni qayta esga tushirish.

QAYTA ESGA TUSHIRISH tanishdan shunisi bilan farq qiladiki, u qayta esga tushirilayotgan ob'ektni qayta idrok kilmay turib amalga oshiriladi.

XOTIRLASH - o`tmishdagi obrazlarimizni zamon va makonda lokallashtirilgan holda qayta esga tushirishdan iborat.

UNITISH - esda olib qolingga materialni vaqtinchalik yoki butunlay qayta tiklay olmaslik.

Unitish turlari: butunlay unitish, qisman unitish, vaqtinchalik unitish.

Xotiraning ustunlik qiluvchi tiplariga ko`ra individual farqlar mavjud. Ko`rgazmali obrazli, SO`Z-abstrakt va oraliq tipdagi xotira tiplari farqlanadi.

Ma’ruza 12. TAFAKKUR

Reja:

- 1. Tafakkur haqida tushuncha. Tafakkur va hissiy bilish.**
- 2. Tafakkurning mantiqiy shakllari.**
- 3. Tafakkur jarayonlari.**
- 4. Tafakkur turlari.**
- 5. Tafakkurning individual xususiyatlari.**

Tayanch iboralar:

Tafakkur haqida tushuncha. Tafakkur funktsiyalari: tushunish, masala yechish, maqsadni shakllantirish, refleksiya. Tafakkur va muammoli vaziyat. Tafakkur jarayonlari: analiz, sintez, taqqoslash va umumlashtirish. Tafakkur shakllari: tushuncha, xukm, xulosa chiqarish. Tafakkurning xususiyatlari: mustaqilligi, faolligi, ijodiyligi, kreativligi, chuqurligi, kengligi, analiz va sintezga moyilligi, abstraktsiya darajasi va h.k. O`quv jarayonida tafakkurning roli va mustaqil fikrlashni shakllantirish. Tafakkur jarayonida maqsad, motiv, fikrlashga tayyorgarlik darajasining ahamiyati. O`quv jarayonida o`quvchilar tafakkuridagi individual farqlarni hisobga olish.

TAFAKKUR HAQIDA TUSHUNCHA, TAFAKKUR VA HISSIY BILISH

Tafakkur - ijtimoiy sababiy, nutq bilan chambarchas bog'liq, muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir. Tafakkur voqelikni analiz va sintez qilish uni bavosita va umumlashtirib aks ettirishdan iborat jarayondir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishdan paydo bo`ladi va hissiy bilish chegarasidan ancha tashqariga chiqib ketadi.

Bilish faoliyati sezish va idrok qilishdan boshlanadi va keyin tafakkurga o`tib ketishi mumkin. Biroq tafakkur, hatto eng rivojlangan tafakkur ham hamisha hissiy bilish bilan, ya`ni sezgilar, idrok va tasavvurlar bilan bog`langan bo`ladi. Tafakkur faoliyati o`zining butun "materialini" faqat bitta manbadan, ya`ni hissiy bilishdan oladi. Tafakkur faqat sezgilar va idrok orqaligina tashqi muhit bilan bog`lanadi va shu tariqa tashqi olamni aks ettiradi. Ammo sezgilar va idrok kabi hissiy bilish jarayonlari olamning turli xildagi aloqalarini, ular orasidagi bog`lanishlarni, paydo bo`ladigan turli muammolarni hal qilish imkonini bermaydi.

Tafakkur qilish davomida tashqi olamni bilish chuqurroq amalga oshiriladi. Buning natijasida narsalar, hodisalar va boshqa shuning kabilar o`rtasidagi murakkab o`zaro bog`lanishlarni ajratish, yechish mumkin bo`ladi. Zarur hollarda turli vositalar qo`llaniladi. Quyidagi uch xil hodisalarni o`rganish davomida vositalar qo`llaniladi.

1. Hozirgi paytda bevosita idrok qilishning imkoni bo`lmagan hodisalarni o`rganish uchun. Bunga tarixiy voqealar, kelajak rejalar, gipotezalar, umuman yoki o`tmishda ruy bergen yoki kelajakda ruy berishi mumkin bo`lgan hodisalarni o`rganish davomida;

2. Sezgi organlarimizning moslashmaganligi sababli bevosita idrok qilishning imkoni bo`lmagan hodisalarni o`rganishda. Bunga misol tariqasida juda kichik zarrachalar, elementlar, inson sezgi organlari "sezmaydigan" turli to`lqin uzunliklari yoki juda uzoq masofada joylashgan ob`ektlar (planetalar, yulduzlar va h.k.);

3. Bevosita idrok qilishning imkonini mavjud, ammo vosita kullash samarali bo`lgan hollar. Masalan, o`sib turgan daraxtning balandligini trigonometrik funktsiyalar yordamida o`lchash, havo haroratini termometr yordamida o`lchash kabilar.

Yuqoridaqilardan ko`rinib turibdiki, hissiy bilish samarali bo`lmay qolgan hollarda tafakkur boshlanadi. Tafakkur hissiy bilish idrok qilish imkonini bermaydigan voqealarni ham o`rganish imkonini beradi. Masalan, yorug`lik tezligini o`lchash, o`rganish, uning xossalardan foydalanish faqat tafakkur orqaligina amalga oshirilishi mumkin.

Qachon tafakkur faoliyati boshlanadi (qachon biz fikrlab boshlaymiz)? Biz doimo **fikrlamaymiz**. Agar vaziyat bizga tushunarli bo`lsa, yetarli hamma ma'lumot va vositalarga ega bo`lsak biz "o`ylamaymiz". Tafakkur jarayoni muammo paydo bo`lsa, muammoli vaziyatda paydo bo`ladi. Muammoli vaziyat - biror masalani yechish uchun zarur bilimlar, vosita yoki ma'lumot, malakalarning yetishmasligi bilan bog'liq bo`ladi. Muammoli vaziyatda bizning avvalgi vosita va usullarimiz yetishmay qoladi. Shu sababli oddiy, tushunarli, o`zida yangilikni aks ettirmaydigan ma'lumotni eshitayotgan talaba va o`quvchi fikrlamaydi. Ularni fikrlashga undash uchun muammoli vaziyatlar yaratish lozim.

Kelib chiqishi va rivojlanishi bo`yicha tafakkur ijtimoiy tabiatga ega. Chunki bilishning barcha vositalari, usullari va manbaalari inson tomonidan yaratilgan moddiy va ma`naviy boyliklar bilan bog'liqdir. Odamning aqliy taraqqiyoti insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davomida to`plangan bilimlarni o`zlashtirish jarayonida amalga oshadi. Bu yerda shaxsning faolligini inkor qilmaymiz. Mavjud, tayyor bilimlarni o`zlashtirish boladan fikriy zur berish, ijodiy ishlash, yangilik ochishni taqoza qiladi. Aks holda o`zlashtirilgan bilim yuzaki, mexanistik bo`lib qoladi.

TAFAKKURNING MANTIQIY SHAKLLARI

Psixologiya fani mantiq fani bilan birgalikda tafakkurning mantiqiy shakllarini o`rgandi. Tafakkurning mantiqiy shakllari -tushuncha, hukm va xulosa chiqarishlardir.

TUSHUNCHA shunday bir fikrki, bu fikrda voqelikdagi narsa va hodisalarning umumiyligi, muhim, farq qiladigan belgilari aks ettiriladi. Masalan, odam tushunchasi uning mehnat faoliyati, mehnat qurollarini ishlab chiqarish, nutq, inson ongi va shular kabi nihoyatda muhim belgilarni o`zida mujassamlashtirgan. Mana shu belgilar bilan odam hayvonlardan farq qiladi.

Tushunchalarning mazmuni HUKMLarda aks ettiriladi. Hukm narsa va hodisalar o`rtasidagi mavjud bog`lanishlarning yoki shu narsa va hodisalarga xos bo`lgan xususiyat va belgilari o`rtasidagi bog`lanishlarni o`zida aks ettiruvchi tafakkur shakli.

Hukmlar ob`ektiv voqelikni qanday aks ettirishlariga qarab CHIN va YOLG`ON bo`lishi mumkin.

Chin - "Toshkent O`ZBEKİSTONning poytaxti".

Yolg`on - "Hech qanday uchburchak o`tkir burchakka ega bo`la olmaydi".

Hukmlar UMUMIY, JU`ZIY va YAKKA bo`ladilar. Umumiyligi hukmda aks ettirilgan xususiyat va bog`lanishlar biror sinfdagi barcha narsalarga taalluqli bo`ladi. "Barcha metallar elektr tokini o`tkazadilar". Ju`ziy hukmlarda tasdiqlash yoki inkor qilish faqat ayrim narsalargagina taalluqli bo`ladi. "Ba`zi o`quvchilar a`lochilardir". Yakka hukmlarda tasdiqlash yoki inkor qilish faqat bitta narsaga tegishli bo`ladi. "Salimov A. a`lochi o`quvchi".

Hukmlar ikkita yo`l bilan hosil qilinadi:

- 1) bevosita usul bilan, bunda idrok qilayotgan narsalar ifodalanadi ;
- 2) bavosita usul bilan, ya`ni xulosa chiqarish, mulohaza yuritish yo`li bilan.

Bir yoki bir necha hukmlar asosida yangi hukm keltirib chiqarish - xulosa chiqarishdir. Masalan, "Barcha metallar elektr tokini o`tkazadilar", "Mis metall". Ana shu ikkita asosdan yangi hukm - xulosa chiqariladi, "Mis elektr tokini o`tkazadi".

Xulosa chiqarish ikki usul bilan amalgalashiriladi:

- 1) induktiv xulosa chiqarish va 2) deduktiv xulosa chiqarish.

Induktsiya - ju`ziy hodisalardan umumiyligini qoidalarga qarata xulosa chiqarish.

Deduktsiya - umumiyligini qoidalardan ju`ziy hodisaga, faktga, misolga qarata xulosa chiqarish.

TAFAKKUR JARAYONLARI

Tafakkur jarayoni (fikrlash) o`ziga xos qonuniyatlargacha, qoidalarga bo`ysunadi. Tafakkur jarayonining mohiyatini tushunish uchun uning qanday kechishini o`rganish lozim. Tafakkur avvalo analiz, sintez va umumlashtirishdir.

ANALIZ - ob`ektning muayan bir tomonlarini, elementlarini, xossalariini, munosabatlarini va boshqa shuning kabilarni ajratib olib, o`rganilayotgan ob`ektni fikran bo`laklarga, qismlarga, elementlarga bo`lish demakdir. Biron narsani analiz qilish davomida bu narsaning g`oyat muhim, kerakli va qiziqarli va shu kabi muayan xususiyatlari ajratib olinadi.

SINTEZ. Bir butun narsani analiz qilish natijasida ajratilgan komponentlarni birlashtirish sintezdir. Analiz va sintez jarayonlari hamma vaqt o`zaro bog`liqdir.

TAQQOSLASH - narsa va hodisalarni bir-biri bilan solishtirib ko`rish va ular orasidagi o`xshashliklar, tafovutlarni topish. Taqqoslash albatta analiz va sintezni taqoza qiladi. Narsa va hodisalarni oldin analiz keyin esa sintez kilmasdan turib ular orasidagi o`xshashlik va tafovutlarni topib bo`lmaydi.

Taqqoslash davomida narsalarni UMUMLASHTIRISH amalgalashiriladi. Umumlashtirish o`xshash tarzidagi umumiyligini va muhim belgi tarzidagi umumiyligini sifatida amalgalashiriladi. Birinchi umumiyligini bo`yicha kit baliq hisoblanadi (yuzaki belgi), ikkinchi umumiyligini asosida esa kit sut emizuvchilar sinfiga kiradi (muhim belgi asosida).

TAFAKKUR TURLARI

Psixologiyada tafakkur turlarining quyidagi sodda va birmuncha shartli klassifikatsiyasi tarqalgandir:

- 1) ko`rgazmali-harakat;
- 2) ko`rgazmali-obrazli;
- 3) mavhum (nazariy) tafakkur.

KO`RGAZMALI-HARAKAT TAFAKKURI.

Tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o`z oldilarida turgan masalalarni dastlab amaliy faoliyat nuqtai nazaridan yechganlar; keyinchalik undan nazariy faoliyat ajralib chiqqan. Dastlab yerni qadamlab o`lchangan, keyinchalik uning asosida geometriya fani shakllangan. Bu shuni anglatadiki, sof nazariy faoliyat birlamchi emas, balki amaliy

faoliyatning o`zi birlamchidir. Bog'chagacha yosh davrida bolada asosan ko`rgazmali-harakat tafakkuri ustun bo`ladi. Hamma ish, "o`y়lash", bilish jarayoni harakatlar vositasida amalga oshiriladi.

KO`RGAZMALI-OBRAZLI TAFAKKUR.

Ko`rgazmali-obrazli tafakkur sodda shaklda asosan bog'cha yoshidagi bolalarda nomoyon bo`ladi. Ularda tafakkurning harakatli shakllari saqlanib qolsa ham, ular to`g'ridan-to`g'ri yuzaga chiqmaydi. endi bola narsa va hodisalarining bevosita idrok qilinayotgandagi obraziga suyanib fikr yuritadi. Agar shu yoshdagi bolaga ikkita bir xil xajmdagi xamirdan qilingan sokka ko`rsatilsa, u ularning tengligini aytadi. Keyin ularning ko`z o`ngida soqqalardan biri non shakliga keltiriladi. Bolalar yassilantirilib, non shakliga keltirilgan soqqani ko`p, katta deb ko`rsatadilar (J.Piaje tajribalaridan).

MAVHUM (NAZARIY) TAFAKKUR.

Bolalarning amaliy va ko`rgazmali-obrazli tafakkuri asosida ularda mavhum tafakkur shakllanadi. Bu mavhum tushunchalarga asoslangan tafakkur. Bolalarning juda ko`plab fanlardan, o`quv predmetlardan oladigan bilimlari mavhum tushunchalar yordamida ifodalangan. Predmet va hodisalar urning ularning nomlari (SO`Z-belgi) qo`llaniladi. Mavhum tafakkur bolaga endi o`zi yo`q predmetlar bilan ham so`zlar yordamida (nomlari) ishslash, ular ustida fikr yuritish, tafakkur operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beradi. Shu sababli mavhum tafakkur o`quvchining o`quv va hayot faoliyatida eng muhim o`ringa ega bo`ladi. Maktabning, pedagoglarning asosiy vazifalridan biri o`quvchilarning mavhum tafakko`rni rivojlantirish, ularda to`g'ri shakllangan tushunchalar tizimini hosil qilishdan iboratdir.

TAFAKKURNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI.

Turli kishilarda tafakkur xususiyatlar turlicha tarkib topgan va turlicha nomoyon bo`ladi. Bir kishining o`zida ham tafakkurning turli xususiyatlari turlicha nomoyon bo`ladi. Bularning hammasi tafakkurning individual xususiyatlarining asosini tashkil qiladi. Tafakkurning individual xususiyatlariga bilish faoliyatining mustaqillik darajasi, epchillik, fikrlashning tezligi kabilar kiradi.

Tafakkurning **MUSTAQILLIGI** dastavval yangi masala, yangi muammoni ko`ra bilish va kuya bilishda, undan sung esa uni o`z kuchi bilan yecha bilishda nomoyon bo`ladi. Tafakkurning mustaqilligida uning ijodiy xarakteri o`z ifodasini topgan.

Tafakkurning **IXCHAMLIGI** shundan iboratki, masalani yechishning boshda belgilangan yo`li (rejasi) asta-sekin yuzaga chiqadigan, avvaldan hisobga olib bo`lmaydigan muammo shartlarini qanoatlantirmasa, ana shu yo`lni o`zgartira olishdan iboratdir.

Fikrning **TEZLIGI** biror qarorni qisqa muddat ichida qabul qilish talab qilingan hollarda talab qilinadi.

Tafakkurning yuqorida ko`rsatilgan barcha va boshqa juda ko`p sifatlari uning asosiy sifati yoki belgisi bilan chambarchas bog'liqdir. Har qanday tafakkurning eng

muhim belgisi, uning ayrim individual xususiyatlaridan qat'iy nazar, muhim tomonlarni ajaratib, mustaqil ravishda tobora yangi umumlashtirishlarga kela bilishdan iborat.

Ma’ruza 13. XAYOL

Reja:

- 1. Xayol haqida tushuncha.**
- 2. Xayol turlari.**
- 3. Xayol jarayonlari.**

Tayanch iboralar:

Xayol va tasavvur haqida umumiyligi tushuncha. Xayol va tafakkurning o`xshashligi va farqlari. Xayol va muammoli vaziyat. Xayol turlari. Xayol jarayonlari. Xayol va motivatsiya. Tasavvur va o`quv jarayonidagi ko`rgazmalilik. Tasavvur turlari va xayol shakllaridagi individul xususiyatlar va ularni o`quv jarayonida boshqarish. Xayol va organik jarayonlar. Ilmiy, texnika va pedagogik faoliyatda, badiiy ijodiyotda xayolning roli.

XAYOL HAQIDA TUSHUNCHA.

Xayol yoki fantaziya, tafakkur kabi yuksak bilish jarayonlariga kiradi va faqat odamlarga xos bo`lgan faoliyatlarda yuzaga chiqadi. Mehnatning tayyor natijasini xayolga keltirmay turib, ishga kirishib bo`lmaydi. Fantaziya yordamida kutilayotgan natijani tasavvur qilish - inson mehnatining hayvonlar instinktiv harakatlaridan tubdan farqidir. Xayol inson faoliyatining barcha jahbalarida yuzaga chiqadi. Masalan, oddiy stol yasash uchun ham uning shakli qanday bo`ladi, nima uchun kerak, rangi, balandligi va h.k.larni oldindan tasavvur qilish lozim. Bir SO`Z bilan aytganda, ishni boshlashdan oldin bu stolni tayyor holda ko`ra bilish talab qilinadi.

XAYOL inson ijodiy faoliyatining zarur elementi bo`lib, mehnatning oxirgi va oraliq mahsulotlarida o`z ifodasini topadi. Xayol mehnat natijalarini narsalarda gavdalantirishga undaydi va shuning bilan birga muammoli vaziyat aniq bo`lmagan hollarda ish-harakat programmasini tuzishni ta`minlaydi. Shuning bilan birga xayol faqat biror aniq faoliyatni programmalashtiruvchigina ham emas, ba`zan uning urnini bosuvchi obrazlar hosil qilish vositasi sifatida ham yuzaga chiqadi.

Xayol tafakkur singari, muammoli vaziyatda, ya’ni masalani yechishning yangi usullarini kidirib topishda yuzaga keladi. ehtiyojlarni qondirishning real jarayonidan oldin ehtiyojlarni qondirishning soxta, xayoliy jarayoni sodir bo`ladi.

Muammoli vaziyatda masalani hal qilish uchun biz tushunchalarga (bilimlarga) va obrazlarga suyanamiz. Ko`pincha bu ikkala vosita ham birgalikda qo`llaniladi. Ammo ular dan qaysi birining ustunligi muammoli vaziyatning xarakteriga bog’liq. Agar masalaning dastlabki ma’lumotlari, chunonchi, ilmiy muammoning dastlabki ma’lumotlari aniq bo`lsa, masalani yechish yo`lining mohiyati ko`proq tafakkur qonunlariga tobe bo`ladi. Agar muammoli vaziyat ko`p jihatdan o`zining noaniqligi bilan ajralib tursa, dastlabki ma’lumotlarni aniq analiz qilish juda qiyin bo`lsa xayol mexanizmlari ishga tushadi.

XAYOL TURLARI

Xayol o`zining faolligi va aktivligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga xayol kishini faollikka undovchi kuch, turtki sifatida ham ishlaydi. Lekin ayrim hollarda xayol faoliyatning o`rnida, ya`ni soxta faoliyat sifatida harakat qilishi mumkin. Odam og`ir ahvolga tushganda, biror masalani yecha olmaganda, o`z xatolaridan qochishga harakat qilgan kabi hollarda u foydasiz orzularga, real hayotdan uzoq fantastika olamiga kirib ketishi mumkin. Bunday hollarda kishi amalga oshirib bo`lmaydigan ish-harakat rejalarini tuzadi. Xayolning bunday turi PASSIV XAYOL deb ataladi. PASSIV XAYOL IXTIYORIY YOKI IXTIYORSIZ yuzaga kelishi mumkin. Ixtiyoriy ravishda yuzaga keltirilgan, lekin hayot bilan, real hayotdagi faollikka olib kelmaydigan passiv xayol turi SHIRIN XAYOL deb ataladi. Qandaydir quvonchli, yoqimli narsalar haqida shirin xayollarga berilish hammaga xos. Ammo inson hayotida shirin xayol kechirish hollari ko`proq bo`lsa, bu shaxsnинг passivligidan dalolat beradi. Passiv xayol ixtiyorsiz ravishda ham yuzaga kelishi mumkin. Xayolning bu turi asosan ong faoliyatining, ikkinchi signallar tizimining susayishida, odamning vaqtinchalik harakatsizlik holatida, uyqisirash holatida, affekt holatida, uyqida (tush ko`rish), ongning kasallikka uchrab buzilishida (gallyutsinatsiyada) va shu kabilarda sodir bo`ladi.

Passiv xayolning aksi bo`lgan AKTIV XAYOL ijodiy va qayta tiklovchi xayol turlariga bo`linadi.

Ma'lum bir asosga, yozuvlarga, chizmalarga asoslanib ularga muvofiq keladigan obrazlar tizimini yaratuvchi xayol QAYTA TIKLOVCHI XAYOL deyiladi.

IJODIY XAYOL qayta tiklovchi xayoldan farq qilgan holda, orginal va qimmatli moddiy mahsulotlarda amalga oshiriladigan yangi obrazlarni yaratish. Ijodiy xayol barcha turdagи texnik, badiiy va boshqa ijodiyotning ajralmas qismini tashkil qiladi.

XAYOL JARAYONLARI

Xayol (fantaziya) obrazlari qanday yaratiladi?

Xayol jarayonlari ham idrok, xotira, tafakkur kabi analistik va sintetik xarakterga ega. Analiz idrok va xotiradek ob`ektning ayrim umumiyligini belgilarni ajratish va saqlash hamda muhim bo`lmagan belgilardan chetlashish imkoniyatini beradi. Analiz va undan keyingi sintez natijasida andaza, etalon hosil qilinadi. Shu etalonga suyangan holda tashqi olam, borliq, predmetlar va hodisalar o`rganiladi.

Analiz va sintez xayol jarayonida boshqacha o`ringa va yo`nalishga ega. Chunki xayol jarayonida yangi, avval bo`lmagan obrazlar, tasavvurlar yaratiladi. Albatta bunda yangilik va eskilik o`rtasidagi izchillik saqlanib qoladi. Xayol jarayonlarida tasavvurlar sintezi turlicha amalga oshiriladi.

AGGLYUTINASIYA. Agglyutinatsiya - kundalik hayotimizda birlashtirib bo`lmaydigan turli sifatlar, xususiyatlar va qismlarni "yopishtirib" birlashtirishdan iborat xayol jarayoni. Agglyutinatsiya yo`li bilan ko`proq ertak obrazlari yaratiladi (suv parisi, tovuq oyog`ida turgan uy, pegas, kentavr va shu kabilar). Agglyutinatsiyadan texnik ijodda ham foydalilaniladi (tank amfibiya, gidrosamolyot).

GIPERBOLIZASIYA. Giperbolizatsiya narsalarni kattalashtirish, kichraytirish, ularning ma'lum qismlarining sonini ko`paytirish, ularning o`rnini almashtirish orqali yangi obrazlar yaratish. Bunga misol qilib ko`p qo`lli xudolarning obrazi (hind

afsonalarida), tog'dek katta odam, no'xatdek kichik polvon, yetti boshli ajdarlar va shu kabilar giperbolizatsiya yo`li bilan yaratilgan obrazlarni keltirish mumkin.

URG'U BERISH Fantaziya obrazlarini yaratishning yana bir yo`li narsalarning qandaydir sifatlarini, belgilarga urgu berish, ularga diqqatni turli yo`llar bilan jalg qilishdir. Bu usullar ayniqsa satirik jurnallarda ko`p qo'llaniladi. Bu usul bilan o'rtoqlik hazillari va turli karikaturalar yaratiladi.

SXEMATIZASIYA (sxemalashtirish) - biror mavjud narsadan andaza olib, shu andaza asosida obrazlar yaratish. Masalan rassomlar turli o'simliklarning obrazi asosida naqshlar yaratadilar.

Yangi xayol obrazlarini yaratishning yana bir usuli, TIPIKLAShTIRISH. Tipiklashtirishdan badiiy adabiyotda keng qo'llaniladi. Bu usul yordamida biror hodisaga, kishilar toifalariga, davrga xos yoki ularda ko`p takrorlanuvchi belgilar ma'lum obrazlarda gavdalantiriladi.

Ma’ruza 14. HIS-TUYG’ULAR

Reja:

- 1. Hissiyot va emotsiya haqida tushuncha.**
- 2. His-tuyg’u va emotsiyalarning shakllari.**
- 3. His-tuyg’u va emotsiyalarning turlari.**

Tayanch iboralar:

Hissiyot va emotsiya haqida tushuncha, ularning fiziologik asoslari. emotsiyalarning signallik va boshqaruv funksiyalari. ehtiyoj va emotsiya, motiv. Hissiyotlar klassifikatsiyasi. Hissiyotning kechish shakllari: emotsiya, affekt, kayfiyat, stress, frustratsiyalar. Shaxsning emotsiyalarning xususiyatlari. emotsiyalarning zo`riqish va ularning oldini olish.

HISSIYOT VA EMOSIYA HAQIDA TUSHUNCHA.

Emotsiyalar - fiziologik aks ettirish chegarasida turuvchi va odamga o`z ehtiyojlari bilan bog’liq qo`zg’atuvchilar ta’sir qilganda o`z-o`zini boshqarishni amalga oshiruvchi psixik aks ettirishning sodda shaklidir. emotsiyalar real dunyoni predmet hamda hodisalarni emas, balki ob’ektiv munosabatlarini aks ettiradi, unda mazkur predmet hamda hodisalar inson ehtiyoji uchun organizm xizmatida bo`ladilar.

Hissiyotlar faqat insonga xos bo`lib, emotsiyalarning aks etish va tushunchalarni umumlashtiruvchi aks ettirishning murakkab formasidir. "Ular predmet va hodisalarning yuksak ehtiyojlarga hamda insonning shaxs sifatidagi faoliyati stimullariga munosabatini aks ettiradi." Agarda emotsiyalar odamning muhit bilan o`zaro munosabatini organizm tarzida boshqarsa, hissiyotlar uning munosabatini shaxsning boshqa odamlar, jamiyat bilan munosabati tarzida boshqaradilar.

Inson emotsiya va hissiyotlarni faqat boshdan kechiribgina qolmaydi. Ular tashqarida mimika, pantomimika, ovoz toni, tempi va nutq ifodaliligining o`zgarishi, yurak urishining tezlashishi, yuz qizarishi va boshqalarda aks ettiriladi. Har qanday hissiyot bevosita yoki bilvosita tashqi ta’sir bilan belgilanadi. Odamning ehtiyojlarini qondirish bilan bog’liq bo`lgan narsalar undan ijobiy hissiyotlar (qoniqish, quvonish, sevish va shu kabilalar..) paydo qiladi. Bunga ehtiyojlarni qondirmaslik yoki unga to`sinqinlik qilish bilan aloqador bo`lgan narsalar kishidan (norozilik, g’am, qayg’u, nafrat va shu singarilar) ni keltirib chiqaradi.

Odamning ijtimoiy turmushi oliy hissiyotlarni keltirib chiqaradi. Bularning negizidagi ehtiyojlar o`zaro munosabatga bo`lgan ehtiyoj, mehnat faoliyatiga bo`lgan ehtiyojlar yotadi.

Hissiyotlar axloqiy, intellektual (bilim) va estetik hissiyotlarga bo`linadi. Axloqiy hissiyotlar insonning odamlarga, ishga, mehnatga, hamda o`ziga bo`lgan munosabatida ifodalananadi. Axloqiy hissiyotlar insonning axloqiy xususiyatlari: vijdonlilik, rostguylilik, iltifotlik, intizomlilik va boshqa xususiyatlariga bog’liqdir. Axloqiy hissiyotlar: vatanparvarlik, insonparvarlik, o`rtoqlik va do`stlik, jamoatchilik, odamning mehnatga munosabatini ifodalovchi hissiyotlar. Uyalish va vijdon hissi, diniy hissiyot. Axloqsiz hissiyotlar: g’arazguylilik, yulg’uchlik, o`zgalardan ustunlik. Intellektual hissiyotlar: havasmandlik, qiziquvchanlik, hayratlanish, taajjublanish,

sinchkovlik, e'tiborsizlik, ishonch, ikkilanish, yangilikni sevish yoki undan qurqish. estetik hissiyotlar: go`zallik-xunuklik, yuksaklik-tubanlik, fojialilik-komiklik. estetik hissiyotlar axloqiy hissiyotlar bilan chambarchas bog'liqdir.

His-tuyg'ularning xususiyatlaridan biri - ziddiyatliligi, ya'ni bir-biriga qarama-qarshiligidir. Masalan, quvonch uchun ziddiyatli tuyg'u- qayg'u, xursandchilik uchun - azob chekish, sevgi uchun nafrat, qurquv uchun mardlik, jangovor ruhga ega bo`lishdir.

His-tuyg'ularni biz uchun yoqimli va va yoqimsiz bo`lgan his-tuyg'ularga ajratish mumkin. Yoqimli his-tuyg'ular, ularni boshdan kechirayotgan kishining nuqtai nazari bilan qaraganda ijobjiy his-tuyg'ular, yoqimsizi - salbiy his-tuyg'ular bo`ladi. Ular o`rtasida birinchi va ikkinchi his-tuyg'ularga kiritilishi mumkin bo`lgan ko`pgina oraliq his-tuyg'ular mavjuddir. Masalan, qo`rquv ba`zan jangovor ruhni, o`zini himoya qilish uchun aktiv harakat qilishga tayyorlikni o`z ichiga oladi; qo`rquv hissi orqaga qaytishga ham, dadil hujum qilishga ham undashi mumkin. Muvaffaqiyat quvonchiga ba`zan ma'yuslik hamroh bo`ladi. Ayrim kechinmalar shu qadar murakkab, ko`p kirrali bo`ladiki, ularni yoqimli yoki yoqimsiz his-tuyg'ularga kiritish mumkin yoki mumkin emasligini aytish qiyin.

His-tuyg'ular aktiv yoki passiv bo`lishi mumkin. Agar kishi hayajonlangan, diqqati kuchaytirilgan bo`lsa (masalan imtihon oldida turgan talaba) yoki alohida ko`tarinkilikni (ijodiy ish davrida) his qilsa, uning tuyg'ulari aktiv bo`ladi. Aksincha kishining holati noaniq bo`lsa, his-tuyg'ulari ham sust o`tib boradi. His-tuyg'ularning aktivligi ularni stenik (g`ayrat o`yg`otuvchi) tuyg'ularga aylantiradi. Ular kishining kuch va g`ayratini oshiradi. Aksincha, his-tuyg'ularning passivligi shunda ifodalanadiki, ular astenik (bushashtiruvchi) tuyg'ularga aylanib, ishchanlikni, g`ayratni pasaytiradi. Stenik tuyg'ularga mardlik, jangovar ruh, g`alaba quvonchini kiritish mumkin. Astenik tuyg'ular qayg'u - xasrat, umidsizlik, loqaydlik va hokozolardir. His - tuyg'ular intensivlik va davomiylilikning turli darajasiga ega bo`ladi. Ba`zan ular uzoq davom etsa ham, lekin sust bo`ladi. Boshqa vaqtda xuddi shu kishida ular juda kuchli davom etib, uni yetarli o`ylab ko`rilmagan harakatlar qilishga undaydi. emotsiyalar ko`pincha kishining xulq atvoriga alohida bir hissiy oxang bagishlaydi, ma'lum darajada davom etadigan ancha mustahkam kechinmalarni vujudga keltiradi. Ba`zan his-tuyg'ular birdaniga paydo bo`lib, shiddatli va nisbatan tez o`tadi. Ana shu uzoq davom etadigan yoki qisqa muddatli kechinmalar psixik yoki emotsiyal holatlar deb ataladi. Ular jumlasiga kayfiyatlar, affektlar (qattiq hayajonlanish), hirslar, frustratsiya, stressli holatlar kiradi.

KAYFIYAT - zaif yoki o`rtacha kuchga ega bo`lgan va odatda ancha barqaror emotsiyal holatdir. Frantsuz yozuvchisi Mopassan bunday degan edi: "Bizning vaqtin chog`ligimizni qayg'uga, laqmaligimizni azobga aylantiradigan o`sha sirlar qaerdan kelib chiqadi? Men juda xursand bo`lib o`yg'onaman, qo`shiq aytgim keladi. Buning sababi nima? Daryo bo`ylab pastga tushaman va unchalik ko`p sayr qilmay, tusatdan uyga g`amgin bo`lib qaytaman, guyo uyda meni qandaydir falokat kutayotgandek. Buning sababi nima?". Bu avtorga sababsiz bo`lib tuyulgan tipik kayfiyatning namunasidir.

AFFEKT - tez paydo bo`ladigan, nihoyat darajada kuchli, g`oyat jushqinlik bilan o`tadigan qisqa muddatli emotsiyal holat. Masalan, birdaniga achchiqlanish, g`azablanish, to`satdan qo`rqish. Bu paytda odam o`zini boshqara olmay qoladi.

Affektiv holatning paydo bo`lishi miya pustlog`ida kuchli qo`zg`alish manbaining vujudga kelishi bilan bog`liqdir. Buning natijasida tormozlanish jarayonlari sussayadi va katta yarim sharlar po`stlog`i pustloq osti markazlaridan kelayotgan shiddatli impul`sler oqimini nazorat qilish, bostirish imkoniga ega bo`lmay qoladi. Shunday qilib, miya po`stlog`i bilan pustloq osti faoliyati o`rtasidagi zarur muvozanat o`zgaradi. Lekin har bir kishi bu emotsiyal ta`sirlanishga qarshi kurasha olishi mumkin. Masalan, g`azabning oshganini his qilgan vaqtingda o`z fikringni qandaydir boshqa bir predmetga qaratishga intilish ayniqsa muhimdir. Bu affekt holatiga uning boshlanish vaqtidayok barham berishga, dastlabki ta`sirlanishni tezda bosish qiyin bo`ladigan kuchli tuyg`ularga aylanishning oldini olishga yordam beradi.

EHTIROS (HAVAS) - Kuchli va shu bilan birga uzoq vaqt davom etadigan, qandaydir bir qiziqish, intilish va faoliyat bilan bog`liq bo`lgan barqaror his-tuyg`ulardir. Masalan, kishi fan, musiqa, sportga havas quyishi mumkin. Kishilarda ularning psixik va jismoniy holatiga yomon ta`sir ko`rsatadigan havaslar ham bo`ladi. Ular orasida ichkilikbozlikka, narkotiklarga (giyohvandlikka), qimor o`yinlariga hirs qo`yishni ko`rsatish mumkin. Agar kishi o`zida ana shu havaslarni yengish uchun iroda kuchini topa olmasa, ular uning sog`ligiga zarar yetkazadi va hatto halokatga ham olib borishi mumkin. Ayrim havaslar ancha barqaror bo`lib, uzoq davom etadi va kishini hayajonlantirib, nisbatan osoyishta o`tadi. Lekin shunday his-tuyg`ular ham borki, ular kimda paydo bo`lmasa, uni ayniqsa, kuchli va chuqur larzaga keltiradi. Psixologiyadagi bunday emotsiyal holatlarni stressli (zo`r berish) holatlar deb atash qabul qilingan.

STRESS - odamni kuchli, chuqur larzaga keltiradigan his-tuyg`ular oqibatidagi emotsiyal holat. Ular kuchli psixik zur berishlarda: xavf - xatar vaqtida, ortiqcha jismoniy va aqliy mehnat qilishda, faoliyatning juda qiyin va mas`uliyatli damlarida vujudga keladi.

FRUSTRASIYA (lotincha - aldanish, haddan tashqari kutish, xafa bo`lish). Maqsadga erishishga xalaqit beradigan sabablar ostida paydo bo`lgan holat. Odam tajang, jahldor bo`ladi. Oqibatda odam nevroz kasaliga duchor bo`ladi.

Eng oddiy emotsiyalar asosida shartsiz reflekslar, miya po`stlog`i ostida ruy beradigan jarayonlar yotadi. Lekin miya po`stlog`i ostida ruy beradigan jarayonlarni miya katta yarim sharları po`stlog`ining ishi bilan nazorat qilib turiladi. Katta yarim sharları po`stlog`idagi shartli reflekslar, muvaqqat aloqalar tizimlari ancha murakkab his-tuyg`ularning fiziologik asosidir.

His-tuyg`ularning paydo bo`lishiga dinamik (kuchli), stereotip (qattiq) katta ahamiyatga ega. Pavlov to`qnashuvlar, qo`zg`alish va tormozlanish jarayonlarining turtkilari yoqimsiz kechinmalarining sababi bo`ladi deb hisoblagan. emotsiyal holatda pustloq ostining, xususan, ko`rish bo`rtmasi deb ataluvchi organning faoliyati ham bir muncha rol o`ynaydi. Katta yarim sharlar po`stlog`i tomonidan nazorat qilinadigan qo`zg`alishlar o`sha joydan boshlanadi. His-tuyg`ularning biror maqsadni ko`zlashi va pritsipialliligiga shuningdek ularning ta`sirchanligi kishining so`zi bilan ishi bir bo`lgan barkamol shaxsga aylantiriladi. Ko`p narsani boshidan kechirsa ham, lekin passiv bo`lib qoladigan o`z tuyg`ulariga muvofiq ravishda harakat qilish uchun hech bir chora-tadbir ko`rmaydigan kishilarni esa sentimental kishilar deb ataydilar. Odamning ko`proq uchrab turadigan psixik holatlariga qarab, jahldor, quvnoq, ma'yus kishilarga ajratish mumkin. Ma`naviy his-tuyg`ular shaxsni jiddiy xarakterlab beradi. Agar ular kishini

muayyan ijobiy harakatlarga undaydigan bo`lsa, bu hol shaxsning yuksak ma'naviy darajaga ega ekanligidan dalolat beradi. Qarama-qarshi his-tuyg'ularning kishilarga g'arazgo`ylik va hatto nafrat bilan qarash, rangi sovuqlikning kishini toshyurak , shafkatsiz o`zidan boshqani sevmaydigan befarq shaxsiyatparastga aylantiradi. Nafrat tuyg'usi Vatan dushmanlariga , tekinoxo`rlarga qaratilgan bo`lsa bu boshqa gap.

O`zining emotsiyalarini boshqara bilish kishi hayotida katta ahamiyatga egadir. O`zining his-tuyg'ularini yaxshi bosib tura oladigan shaxs mayda, tuban kishini ezadigan kechinmalardan ancha yuqori turadi va chinakamiga baxtiyor bo`ladi.

Ma’ruza 15. IRODA PSIXOLOGIYASI

Reja:

- 1. Iroda haqida tushuncha.**
- 2. Faoliyatni nazoratning lokallashuvi.**
- 3. Qaror qabul qilish.**
- 4. Kishining irodaviy xususiyatlari va ularni tarbiyalash.**

Tayanch iboralar:

Shaxsning motivlari iroda sifatida. Shaxs va irodaviy hatti - harakatlar (faoliyat). Irodaviy akt va uning tuzilishi. Qaror qabul qilish va uning psixologik tavsifnomasi. Irodaviy zo`r berish. Shaxsning irodaviy sifatlari va ularning shakllanishi. O`z irodasini tarbiyalash.

IRODA HAQIDA TUSHUNCHA

Siz kutilmaganda daftaringizni tushirib yuborib tinchlikni buzzingiz, men baqirib, tanbeh berdim, dars paytida ikki kishi gapirib, kulib menga qarab qo`ydi, men xafa bo`ldim, o`rtog'ingiz sizga ko`nglini ochdi, uning tashqi qiyofasidagi kamchiligini ko`rib kulib quydingiz. Bunday harakatlar kutilmagan, bexosdan bo`lgan reflektor harakatlar deyiladi. Kishidagi hamma ta`sirlanishlar reflektor harakatga ega bo`ladi. Lekin yuqoridagi harakatlar ongning nazoratisiz, maxsus niyatni ko`zlamay amalga oshirilgan bo`ladi va shu sababli ixtiyorsiz harakat deyiladi. Biroq kishi shunday harakatlar bajaradiki, unda ong ishtirok etadi va muayyan maqsad ko`zlanadi. Bunday harakatlar ixtiyoriy harakatlar deb ataladi. Ularning atalishining o`ziyoq harakatlarning ishtirok etishini ko`rsatadi. Ongli ravishda amalga oshiriladigan va muayyan maqsadni ko`zda tutgan barcha ixtiyoriy harakatlar irodaviy harakatlar deb atalishi mumkin. Oddiy narsalar kishining suv ichkisi kelib qilgan harakatlari va suvni ichishi Bu narsalar qiyin bo`lmasada, maqsadli va shu sababli irodaviy harakatdir. Lekin shunday harakatlar bo`ladiki, unda kishi muayyan to`sinq va qiyinchiliklar yengil maqsadga erishishi lozim bo`ladi. Bunday harakatlar chinakam irodaviy harakatlar deyiladi. Ularda ongning ishtirok etishi bilan bog`liq bo`lgan shaxsiy aktivlik nomoyon bo`ladi.

Kishining o`z oldiga qo`yilgan maqsadga erishish uchun ichki va tashqi to`sqliarni harakat yordamida yengish vaqtida vujudga keladigan psixik jarayonni so`zning asl (tor) ma’nosida iroda deb atash qabul qilingan.

Ichki to`sqliar - yalqovlik, charchovni, bajarilishi kerak bo`lgan vazifaga aloqasi bo`limgan boshqa biror narsa bilan shug`ullanish istagini yengishga majbur qilish qiyin bo`lgan vaqtning belgilangan narsani bajarishga xalaqit beradigan sub`ektiv, shaxsni mayllardir, zararli odatlar, mayllar, istaklar. Kishi irodaviy zo`r berish tufayli ularni yengadi. Tashqi to`sqliar ishning o`ziga xos bo`lgan ob`ektiv qiyinchiliklar, uning murakkabligi har xil xalaqit berishlar, boshqa kishilarning qarshilik ko`rsatishi, ishning og`ir sharoitlari va shu kabilar tushuniladi. Lekin iroda termini bilan shaxsning qiyinchiliklarni yengib, astoydil va aniq maqsadni ko`zlab harakat qilish qobiliyatini ham ataydilar. "Zo`r iroda, bu biron narsani qilishga intilish va unga erisha olishgina emas, balki shu bilan birga, zarur bo`lib qolganda o`zini biror narsadan voz kechishga majbur qila olish hamdir".

I r o d a - bu shunchaki, istak va uning qondirilishi emas, balki bu ham istak, ham uni to`xtatish, ham istak, ham ayni vaqtda undan voz kechishdir.

Iroda o`zaro bog`liq ikkita vazifaning - undovchi va tormozlash to`xtatuvchi) vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi va ularda o`zini nomoyon qiladi. Filosofiya va psixologiyada idealizm kishi irodasini alohida, dastlabki faollikka bo`ysungan bo`ladi. Amerika psixologi U.Jeyms harakatda hech narsaga bog`liq bo`lmagan irodaviy hukmga yetakchi rol beradi. Obrazli tarzda bu quyidagicha tasavvur qilinardi: kishi o`z-o`ziga "Fiat!" (lotincha "Ha bo`la qolgin!" degan ma'noga ega bo`lgan so`zni bildiradi) deydi va go`yo ana shu birinchi galgi mistik turtki bilan belgilanmagan holda ish amalga oshiriladi.

Odamlar o`zlarining qilgan ishlari uchun mas'uliyatni kimga yuklashga moyil bo`lishiga qarab sezilarli ravishda farqlanadilar. Kishining o`z faoliyati natijalari uchun ma'suliyatni tashqi kuchlarga va sharoitlarga qayd qilib quyish yoki aksincha, ularni shaxsiy kuch-g`ayratlariga va qobiliyatlariga moyilligini belgilaydigan sifatlar nazoratni lokallashtirish deyiladi (psixologiyada adabiyotlarda "nazarat lokusi" degan termin qo'llaniladi, lotinchada "locus"- urnashgan joy va frantsuzcha "contlore"- tekshirish deyiladi). O`z xulq-atvori va o`z ishlari sabablarini tashqi omillar (taqdir, holatlar, tasodiflar va boshqalardan) deb bilishga moyil bo`ladigan odamlar. Shunaqa paytda nazoratning tashqi (eksternal) lokallashtirilishi to`g`risida gapiriladi. Bu toifaga mansub o`quvchilar olingen qoniqarsiz bahonalarini istagan vaj-bahona bilan tushuntirishadi ("Topshiriq doskada noto`g`ri yozilgan ekan", "Uyimizga mehmon kelib, dars qilishimga xalaqit berishdi", "Bu qoidani biz o`tganimiz yo`q" va hokozo.) Tadqiqotlar nazoratning eksternal lokallikka moyilligi mas'uliyatsizlik, o`z imkoniyatlariga ishonmaslik, xavfsirash, o`z niyatlarini ro`yobga chiqarishni yana va yana kechiktirishga intilish kabi shaxsiy fazilatlar bilan bog`liq ekanligini ko`rsatdi. Agar individ, odatda, o`z qilmishlari uchun javobgarlikni o`z zimmasiga olsa va uning sabablarini o`z qobiliyati, xarakteri va shu kabilarda deb bilsa, unda nazoratning ichki (internal) lokallashuvi (joylashuvi) ustuni deb hisoblash uchun asos bor.

Nazoratning ichki lokallashtirilishi xos bo`lgan o`quvchi "ikki" olganda buni topshiriq yoxud unga qiziqrli emasligi bilan, yoxud faromushxotirligi bilan tushuntiradi. Nazoratning ichki lokallashtirilishi xos bo`lgan odamlar maqsadga erishishda ancha mas'uliyatli, izchil, o`z-o`zini tahlil qilishga moyil, kirishimli va mustaqil bo`lishi aniqlangan. Ham ijobjiy, ham salbiy oqibatlarga ega bo`lgan irodaviy harakatning internal yoki eksternal lokallashtirilishi shaxsning tarbiya jarayonida shakllanadigan barqaror fazilatdir. Kishining tavakkalchilik sharoitidagi hatti-harakati irodaning xarakterli ko`rinishlaridan biri sifatida nomoyon bo`ladi.

Bevosita irodaviy harakatga undaydigan sabablar, ehtiyojlar, uning motivlari va maqsadlari, ishtiyоqlari, istaklari va hokozolari kiradi.

Bo`lar aniq bo`lsa, bunday intilish istak deyiladi. Anglanmagan intilishlar havaslar deb ataladi. Havas istakka qaraganda kishining irodaviy yordamini kamroq oladi va shu sababli havasning maqsadi ko`pincha real amalga oshmaydi.

His-tuyg`ular irodaviy harakatlarga undaydigan muhim sababdir. Ular qiyinchiliklarni yengishga, o`z oldiga qo`yilgan maqsadga sabot bilan erishishga undaydi.

Irodaviy sifatlarni tarkib toptirishda mehnatning ahamiyati katta.

Kishining qaror topgan qarashlari, dunyoqarashi, irodaviy xulq -atvorning muhim sababidir.

Irodaviy jarayonlar oddiy va murakkab bo`ladi. Oddiy - kishi hech ikkilanmasdan ko`zlagan maqsad sari boradi, u nimaga va qanday yo`l bilan erishajagini aniq biladi. Murakkab - maqsadni tanlashga ikkilanish, harakatni tanlashga qiynalish. Bunday hollarda irodaviy harakat murakkab xarakterga ega bo`ladi va ikki bosqichga ajratiladi:

- 1) tayyorgarlik;
- 2) bajarilish;

1- Niyatni, maqsadni, anglashni ba`zan motivlar kurashi bilan qarorga kelishini, ish olib boriladigan metodlarni tanlashni o`z ichiga oladi. Masalan, oliy o`quv yurtiga kirish bosqichlari.

2- Qarorning bajarilishi. Kishi faoliyati davomida o`zini xarakterlab beradigan irodaviy sifatlarni hosil qiladi. Ayrim xususiyatlar kishini yanada faol qiladi, bu hol yarim sharlar po`stlog`idagi qo`zg`alish jarayonlarining ustunlik qilishi bilan bog`langan bo`ladi, boshqa sifatlar yoqimsiz psixik jarayonlarga va harakatlarga xalaqit berishda, ularni to`xtatib qolishda, yo`q qilishda nomoyon bo`ladi.

1. Aktivlik bilan bog`liq bo`lgan sifatlarga : qat`iylik, dadillik, sabr-matonat (o`jarlik emas), mustaqillik (negativizm emas. Negativizmda qanday qilib bo`lsa ham tashqaridan bo`ladigan ta`sirga qarshilik ko`rsatishga intilish xususiyati xosdir). Irodali kishi ta`sirga beriluvchan bo`lmaydi. Mustaqillik-o`z hatti harakatlarini jamoaning fikri va irodasiga buysundirmaslik kerak degan ma`noni bildirmaydi. Biroq "podaga o`xshab harakat qilish tuyg`usi" degan tuyg`uga ham berilmashlik kerak. Ko`pgina yomon odatlar (ichkilikbozlik, chekish va hokozolar) irodasi zaif kishilarga aynan mustaqil bo`limgan, ta`sirga beriluvchan va taqlid qilishga moyil bo`lgan kishilarga yopishib oladi. Harakatlarni mustaqil bajarish o`z kuchiga ishonch hosil qilishda yordam beradi, bu ishonch kishining muhim irodaviy xususiyatidir.

2. Nomaqbwl psixik jarayonlar va harakatlarning tormozlanishi bilan bog`liq bo`lgan ioda sifatlariga: chidam(o`zini tuta bilish), bardoshlik, sabr-tokat, intizomlik va uyushqoqlik, batartiblik, aniqlik, puxtalik kiradi. Irodasi sustlikning nomoyon bo`lish doirasi xuddi kuchli iordaning xarakterli sifatlari kabi rang-barangdir. Irodasi sustlikning eng chekka darajasi psixika normasi chegarasidan tashqarida bo`ladi. Masalan, abuliya va apraksiya shunga kiradi. Yalqovlik - kishining qiyinchiliklarini yengishdan bosh tortishga intilishi, irodaviy sustlikning eng tipik ko`rinishidir. Shunisi diqqatga loyiqliki, boshqa barcha hollarda qandaydir kamchiliklarnitan olishga unchalik moyil bo`lmasalar ham, bu deffektni juda oson tan oladilar. Yalqovlik - kishi ojizligi va sustligining, uning hayotga layoqatsizligining umumiyl ishga befarqligining dalilidir. Yalqov kishi odatda nazoratning tashqi tomonlariga e`tibor bermaydi va shu sababli beparvodir. Yalqovlik- kishining qiyofasidir, shuning uchun ham uni butun choralar bilan yo`qotish zarur. Yalqovlik, shuningdek, ojizlikning boshqa ko`rinishlarining - qo`rqlik, jur`atsizlik, o`zini tuta bilmashlik va boshqalar shaxsning rivojlanishidagi jiddiy kamchiliklardir, ularni bartaraf etish jiddiy tarbiyaviy ishni va avvalo o`z-o`zini tarbiyalashni tashkil etishni talab qiladi.

Iordaning ijobjiy fazilatlari, uning kuchining namoyish qilinishi faoliyatning muvaffaqiyatini ta`minlaydi, kishi shaxsini eng yaxshi tomondan ko`rsatadi. Bu kabi

irodaviy fazilatlarning ruyxati juda katta: qahramonlik, sabotlilik, qat'iylik, mustaqillik, o'zini tuta bilish va ko'pgina boshqalar. Xususan qat'iylik - irodaning individual fazilati bo`lib, mustaqil ravishda mas'uliyatli qaror qabul qilish hamda uni faoliyatda so'zsiz amalga oshirish qobiliyati va malakasi bilan bog'liqdir.

Irodaviy fazilatni baholash atiga birgina "kuchli-kuchsiz" o`lchovi bilan ifodalanmasligi kerak. Irodaning axloqiy tarbiyalanganligi, agar hal qiluvchi bo`lmasa ham, muhim ahamiyatga egadir. Irodaviy ko`rinishlar xarakteristikasi, ularning ma'naviy bahosi irodaviy akt amalga oshirilishining asosiga qo'yilgan motivlarning sotsial ahamiyatiga bog'liqdir.

Irodani mustaqil tarbiyalash usullari juda ham har xil bo`lishi mumkin, lekin ularning hammasi quyidagi shartlarga amal qilishni o`z ichiga oladi.

1. Irodani tarbiyalashni nisbatan arzimas qiyinchiliklarni bartaraf etishni odat qilishdan boshlash kerak. Oldiniga unchalik katta bo`lмаган qiyinchilikni, vaqt o`tishi bilan esa ancha katta qiyinchiliklarni muntazam ravishda chiniqtiradi. Har bir qarshilikni "buysundirilmagan qal'a" sifatida baholash lozim va uni, bu "qal'ani olish" uchun barcha imkoniyatni ishga solish kerak.

2. Qiyinchiliklarni va to'siqlarni bartaraf etish ma'lum maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladi. Maqsad qanchalik ahamiyatli bo`lsa, irodaviy motivlar darajasi qanchalik yuqori bo`lsa, kishi shunchalik katta qiyinchiliklarni bartaraf etishga qodirdir. Muhimi, kishi kundalik ishlari orasida uzoq kelajakni hech qachon unutmasligi, faoliyatning so`nggi maqsadlarini hech vaqt esdan chiqarmasligi kerak.

3. Qabul qilingan qaror bajarilishi kerak. Har gal, qachonki, qaror qabul qilinib, uning bajarilishi yana va yana kechiktirilaversa kishining irodasi izdan chiqadi, qabul qilingan qarorlarning muntazam ravishda bajarilmasligi kishi irodasini intizomsiz qilib qo'yadi. Ammo qaror qabul qilayotib, uning ham maqsadga muvofiqligini, ham bajarilishini hisob-kitobga olishimiz kerak.

4. Agar kishi uzoqqa mo`ljallangan maqsadni oldiga qo'ygan takdirda uzoq istiqbolni nazarda tutishi, bu maqsadga erishish bosqichlarini ko`rishi, yaqin kelajakka mo`ljallangan istiqbolni ko`ra olishi juda muhimdir. Pirovardida pirovard maqsadga erishish uchun sharoitlar yaratiladi.

Sport bilan muntazam ravishda shug'ullanish kishi irodasini chiniktirishning muhim sharoitlaridan biridir. Irodani tarbiyalash to`g'risida gapirlarkan, faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishi faqat u yoki irodaviy fazilatlar shakllanishiga emas, balki belgilanadigan narsaning real bajarilishi sharti sifatidagi tegishli ko`nikmalarning borligiga, qo'yilgan maqsadlarga erishishiga bog'liq ekanligini unutmaslik kerak. Foydali ko`nikmalarning va birinchi navbatda mehnat ko`nikmalarini shakllantirish qo'yilgan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishishning muhim shartlaridan biri sifatida nomoyon bo`ladi. Pirovardida, shuni aytish kerakki, asosiy irodaviy fazilatlarning rivojlanishi kishining boshqa odamlar bilan doimiy muloqoti jarayonida, u bilan birgalikda ishlashi davomida yuz beradi. Jamiyatdan tashqarida, jamoadan tashqarida kishining irodasi normal rivojlna olmaydi.

Har bir talabada irodani rivojlantirish va uni mustaqil ravishda tarbiyalash uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Irodani ongli ravishda tarbiyalash jarayoni qanchalik tez boshlansa, shunchalik ko`p muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Ma’ruza 16. TEMPERAMENT (MIJOZ)

Reja:

- 1. Temperament haqida tushuncha.**
- 2. Temperament va oliv nerv faoliyati.**
- 3. Temperament tiplari.**
- 4. Temperament va faoliyat uslubi.**

Tayanch iboralar:

Temperament haqida tushuncha. Temperament haqidagi nazariyalar: gumoral (Gippokrat), konstitutsional (Krechmer, Щел’don), nervfiziologik (I.Pavlov) va h.k. Oliy nerv faoliyati tiplari va temperament. Temperament tiplari va ularning psixologik xarakteristikasi. Temperament va shaxs. Shaxs faoliyatining individual uslublari. O`quv va mehnat faoliyatida o`quvchilarning temperamenti xususiyatlarini hisobga olish.

TEMPERAMENT HAQIDA TUSHUNCHA

Ma'lumki, odamlar xulq-atvor va faoliyat motivlari nisbatan teng bo`lganda, bir xil tashqi ta'sir etganda, bir biridan ta'sirchanligiga va ko`rsatayotgan energiyasiga ko`ra sezilarli darajada farq qiladilar. Jumladan, bir xil kishi sekinlikni, boshqasi shoshilishni yoktiradi, bir xil odamlarga hissiyotlarning tez o`yg'onishi xos bo`lsa, boshqasiga esa sovuqqonlik xosdir, boshqa birovni keskin imo-ishoralar, ma'noli mimika, boshqasining harakatlarida og'ir-bosiqlik, yuzining juda ham kam harakat qilishi ajratib turadi. Kishining harakatlardagi o`zgarishi tabiiy ravishda ko`pincha tarbiyalangan ustanovkalar (ko`rsatmalar) va odatga, vaziyatning talabiga va shu kabilarga bog'liq bo`ladi. Ammo SO'Z yuritilayotgan individual farqlar o`zlarining tug'ma asosiga ega bo`lishi shubhasizdir. Bu shu narsa bilan tasdiqlanadi, bunday farqlar bolaligidayok ma'lum bo`la boshlaydi, xulq-atvorning va faoliyatning turli sohalarida ko`rinadi va alohida barqarorligi bilan ajralib turadi. Individga xos dinamik fazilatlar o`zaro ichki bog'lanishga ega bo`lib, o`ziga xos tuzilishni tashkil etadi.

Temperamentning xususiyatlari psixikaning individual xususiyatlaridan bo`lib, inson psixik faoliyatining o`tishini, dinamikasini belgilab beradi.

Psixik faoliyat dinamikasi faqat temperamentga bog'liq emas. Psixik faoliyat dinamikasi kishining motivlariga, psixik holatlariga ham bog'liqdir. U holda temperament va kishining faoliyatiga ta'sir qiluvchi xususiyatlarni qanday farqlash mumkin. Buning uchun quyidagi belgilarni hisobga olish zarur.

1. Temperament xususiyatlari faqat bir turdag'i emas, balki har xil va turli maqsadlardagi faoliyat turlarida, mehnatda, o`yinda, sportda, o`quv mashg'ulotlari jarayonida nomoyon bo`ladi.
2. Temperament xususiyatlari odam hayotining butun davomida yoki ma'lum qismida barqaror va o`zgarmasdir.
3. Temperament xususiyatlari bir-biri bilan tasodifiy emas, balki qonuniy bog'langan bo`lib ma'lum tuzilishni tashkil qiladi.

Shunday qilib, temperamentning xususiyatlari deganda, bir inson psixik faoliyati dinamikasini belgilovchi psixikaning barqaror individual xususiyatlarini tushunamiz. Bu xususiyatlar turli mazmundagi faoliyatlarda, motivlarda, maqsadlarda nisbatan o`zgarmaydi hamda temperament tiplarini xarakterlovchi tuzilishni hosil qiladi.

Temperament lotincha - temperamentum - qismlarning nisbati degan ma'noni anglatadi. Qadimda kishidagi tuyg'ular va harakatlarning xususiyatlari uning tanasidagi "sharbatlarning"(suyukliklarning) miqdoriga, ularning nisbatiga bog'liq deb hisoblanar edi. Bularning aralashmasi temperamentdir.

Qadimgi grek vrachi va tabiatshunosi Gippokrat (eramizdan oldingi Y asr) taxmin qilgan: bir xil odamlarning organizmida safro yoki o't (chole) ko`p bo`lsa - xolerik; qon (sanguis) ko`p bo`lsa - sangvinik; shilliq narsa - balg'am (phlegma) ko`p bo`lsa - flegmatik, qora safro (melane chole) ko`p bo`lsa melanxolik tipiga kiradi. Uningcha, organizmdagi o`tning xususiyati quruqlikni saqlab turish (xolerik), qonning xususiyati issiqlikni saqlab turish (sangvinik), qora o`tning xususiyati namlikni saqlab turish (melanxolik), balg'amning (shilimshiq modda) xususiyati sovuqlikni saqlab turish (flegmatik) demakdir.

Keyinchalik temperament to`g'risidagi bu taxmin rad qilindi. Lekin temperamentning 4 guruhga bo`linishi va ularning nomlari saqlab qolindi.

Temperament xususiyatlarining ilmiy sabablarini I.P. Pavlov yuksak nerv faoliyat tiplari haqidagi ta'limotida ochib berdi: I.P. Pavlov yuksak nerv faoliyat tiplari deganda hayvonlarda va odamda nerv tizimining faoliyatidagi eng muhim xususiyatlarning chatishuvini tushunar edi. I.P. Pavlov itlarda tajriba o`tkazdi. U hayvonlarning nerv tizimini: a) qo`zg'alish va tormozlanishning kuchiga ; b) bu jarayonlarning muvozanatiga ; v) ularning ildamlik darajasiga qarab bir-biridan farq qilishini aniqladi.

A) Nerv tizimining kuchi hujayralardagi fiziologik moddalarning zahira miqdori bilan belgilanadi. Kuchli tipdagi nerv tizimida bunday zapas ko`p, kuchsizda kamdir. Nerv tizimining kuchi, avvalo kuchli qo`zg'ovchilarga bardosh bera olish qobiliyatida ko`rinadi.

B) Qo`zg'alish va tormozlanish baravar darajada kuchli yoki kuchsiz bo`lganda nerv tizimida muvozanat bo`ladi. Bular dan biri kuchliroq yoki kuchsizroq bo`lsa muvozanat bo`lmaydi.

V) Nerv tizimining ildamligi (labilligi) miya pustining biron qismidagi qo`zg'alishning tormozlanish bilan (yoki aksincha) naqadar yengil almashinishidan iborat. Bu eng muhim narsa. Shu belgilarga qarab nerv tizimi 4 tipga ajratildi. Bu ajratish Pavlov fikricha, Gippokratning 4 temperament tipiga to`g'ri keladi.

1. Kuchli, muvozanatli, epchil tip. Serharakat tip. Sangvinik
2. Kuchli, muvozanatli, inert (sustkash) tip. Og'ir, vazmin tip. Flegmatik.
3. Kuchli lekin muvozanatsiz, ya'ni qo`zg'alish tormozlanishdan ustun chiqadigan qizg'in, jushqin tip. Xolerik.
4. Kuchsiz tip. Melanxolik.

Pavlov ta'limotiga muvofiq, oliy nerv faoliyat tiplarining kishi xulqida nomoyon bo`lishi - temperamentdir.

TEMPERAMENT TIPLARI

Kishilarning temperamentti tiplarini aniqlash va baholashda quyidagi xususiyatlar hisobga olinadi:

1. SENZITIVLIK. Bu kishidagi tashqi qo`zg'atuvchining ta'siriga nisbatan sezgirligi. Senzitivlik kuchli bo`lsa kishiga ozgina kuchga ega bo`lgan qo`zg'atuvchi ham ta'sir qiladi, psixik reaksiyani yuzaga keltiradi.

2. REAKTIVLIK. Kishiga turli ichki va tashqi qo'zg'atuvchilar ta'sir qiladi. Aytaylik ichki va tashqi qo'zg'atuvchilar ta'sir kuchi bir xil bo'lganda qanday emotsional reaktsiya nomoyon qilishi baholanadi. Reaktivlik -emotsionallik va ta'sirlanuvchanlikdir.

3. AKTIVLIK. Turli faoliyatni bajarishda, to`siqlarni yengib o'tishda qanday faollik ko`rsatishi baholanadi.

4. REAKTIVLIK VA AKTIVLIKNING O'ZARO MUNOSABATI. Bu ikkalaa xususiyatdan qaysi biri ustunligi.

5. REAKSIYA TEMPI. Turli psixik reaktsiyalar va jarayonlarning o'tish tezligi. (nutq tempi, fikr yuritish tezligi, harakatlari tezligi va h.k.)

6. XARAKTLARNING eGILUVChANLIGI (MOSLASHUVChANLIGI) VA unga qarama-qarshi xususiyat RIGIDLIGI (qotib qolganligi).

7. EKSTROVERTLIK VA INTROVERTLIK. ekstrovertlik kishinig psixikasining tashqariga yo`nalganligi, tashqi olam bilan faol munosabatda bo`lishi, faoliyatining ayni choqdagi taassurotlarga bog'liqligi. Introvertlik - faoliyatning ichki obrazlarga, o`tmish va kelajak bilan bog'liq fikrlarga bog'liqligi.

Kishining temperamenti qanaqaligi haqidagi tasavvur odatda shu shaxs uchun xarakterli bo`lgan ayrim psixologik xususiyatlar asosida vujudga keladi.

Sezilarli psixik aktivlikka ega bo`lgan, atrofda bo`layotgan voqealarga o`z munosabatini bildiruvchi, taassurotlarini hadeb o`zgartirishga intiluvchi, muvaffaqiyatsizliklar va ko`ngilsizliklarni nisbatan yengil o`tkazib yuboruvchi, jonli, harakatchan, ifodali mimikasi va harakatlari bo`lgan kishi SANGVINIK deb ataladi.

Yuragi keng, barqaror intilishlarga va kayfiyatlargacha, doimiy va chuqur his tuyg'ularga, harakatlari va nutqi bir xil maromda bo`lgan, ruhiy holati tashqi tomondan ifoda etilmaydigan kishi FLEGMATIK deb ataladi.

Juda g'ayratli, ishga juda ehtiros bilan berilish qobiliyatiga ega bo`lgan, tez va shiddatli, qizg'in emotsiyal "portlash" va kayfiyatning keskin o`zgarishlariga moyil, ildam harakatlar qiladigan kishi XOLERIK deb ataladi.

Ta'sirchan, chuqur kechinmali, gap ko'tara olmaydigan, ammo atrofdagi voqealarga unchalik e'tibor bermaydigan, o`zini to'xtata oladigan harakatlar qiladigan va sekin ovoz chiqaradigan kishilar MELANXOLIKLAR deb ataladi.

Temperamentning har bir tipiga psixik xossalarning o`z nisbati, avvalo, har xil darajadagi faollik va emotsionallik, shuningdek motorikaning u yoki bu xususiyatlari xosdir. Dinamik ko`rinishlarning muayyan strukturasi temperament tipini belgilaydi.

Barcha odamlarni to`rtta tip bo`yicha taqsimlash mumkin emasligi tushunarli. Temperamentlarning turli -tumanligi to`g'risidagi masala fanda hali batapsil hal qilingan emas, ammo aytilgan tiplarni asosiy deb hisoblash mumkin. Bu tiplar sof holda hayotda ancha kam uchraydi. Yana ko`pgina o`tkinchi, oraliq yoki aralash tiplar ham mavjud bo`ladi. Temperament shaxsning psixik xususiyatlaridan biridir, lekin bir xil temperamentdagi kishilar ham juda xilma xil bo`ladilar. Ko`pgina kishilarning shaxsi faqat birgina tipga xos bo`lgan belgiga ega bo`lib qolmasdan, balki ikki va undan ham ko`proq tipning belgilariga ega bo`ladi. Kishida xolerik tipdagi xususiyatlari bilan bir qatorda, masalan, sangvinik tipdagi kishining belgilarini ham bo`lishi mumkin; melanxolik tipidagi kishida esa flegmatik tip xususiyatlari uchraydi va hokozo.

Shaxs avvalo-temperamentning turli tiplariga taalluqli bo`lgan psixik xususiyatlarning namoyandasidir. Shaxs temperamentning aralash tipiga egadir. Biroq shunday kishilar ham bo`ladiki, ularda u yoki bu temperament tipi ancha yorqin nomoyon bo`ladi. Masalan, rus sarkardalaridan A.V. Suvorov tipik xolerik edi: zamondoshlarining eslashlaricha uning qarashlari, so`zlari, harakatlari nihoyatda jonliligi bilan ajralib turar edi. U go`yo orom nimaligini bilmas va o`zini kuzatib turgan odamda yuzlab ishlarni birdaniga qilishga intiladigan tinib -tinchimas kishi sifatida taassurot qoldirar edi. U bamisoli yurmas, balki yugurar, otga minib emas balki uchib borar, o`z yo`lida turgan stulni aylanib o`tmas, balki uning ustidan sakrab o`tar edi.

Ko`p kishilar nerv tizimining qanday tipi, binobarin, qanday temperament yaxshi deb qiziqadilar. Bunga bitta javob berish mumkin: har bir temperamentning o`ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari bor. Garchi temperament shaxsning tug`ma sifati bo`lsa ham, bundan u hayotiy shart-sharoitlar, faoliyat, tarbiya va o`z-o`zini tarbiyalash ta`siri ostida mutlaqo o`zgarmaydi, degan ma`no kelib chiqmaydi. Atokli kishilar orasida o`z temperamentining salbiy xususiyatlariga barham bera olganlar ko`p bo`lgan. Masalan, A.P. Chexov yetuk yoshga borgan bir davrda o`zining kishilar bilan muomalasida hech mahal keskin bo`lishga yo`l qo`ymagan, muloyimligi, xushmuomalaligi, tashqi tomondan xotirjamligi bilan ajralib turgan. Biroq uning tabiiy tug`ma layoqat nishonalarini boshqacha bo`lgan edi (u otasi va boshqa oila a`zolari singari keskinligi serjahlligi bilan ajralib turardi). I.P. Pavlov o`z temperamenti ustida ko`p ishladi. U yoshligida juda jahli tez har narsaga qiziqadigan, ayni vaqtida uni nima qiziqtirayotgan bo`lsa, shu narsadan boshqa hamma narsani unuta olish qobiliyatiga ega bo`lgan kishi edi. Keyinchalik u o`z ishtiyooqlarini to`xtata olishni o`rgandi, o`zini jushqin temperamentini boshqara olishga o`rgatdi.

Ma’ruza 17. XARAKTER

Reja:

- 1. Xarakter haqida tushuncha.**
- 2. Xarakterning fiziologik asoslari.**
- 3. Xarakterning tuzilishi.**
- 4. Xarakterning tarkib topishi.**

Tayanch iboralar:

Xarakter haqida tushuncha. Xarakter hislatlari - undovchi kuch sifatida. Oliy nerv faoliyati tiplari va xarakter. Xarakterdagи individuallik va tipiklik. Xarakterning tuzilishi, simptomlar kompleksi va uning xususiyati. Xarakter va faoliyat. Kishilar xarakteri toifalari haqidagi nazariyalar tahlili (Leongard, Le Senn va boshqa nazariyalar).

Shaxs xulq-atvori va xarakterining etnopsixologik xususiyatlari va ularni ta’lim va tarbiya jarayonida hisobga olish.

Xarakterni tarbiyalash va shakllantirishning psixologik asoslari .

XARAKTER HAQIDA TUSHUNCHA.

Ma'lumki har bir odam har qanday boshqa odamdan o'zining individual xususiyatlari bialan ajralib turadi. Hayotda bunday farqlar kishining xarakteri bilan bog'liq deb tushuntiriladi. «Xarakter» - grekcha so`zdan olingan bo`lib, aynan tarjima qilganda "bosilgan tamg'a", "muhr" ma'nosini anglatadi.

Psixologiyada xarakter deganda mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan faoliyat usullarida nomoyon bo`ladigan, tipik sharoitlarda yuzaga chiqadigan va shaxsning bu sharoitlarga munosabati bilan belgilanadigan individual psixik xususiyatlar yig'indisi tushuniladi.

Boshqacha qilib aytganda, xarakterning har bir xislati tegishli tipik sharoitlardagina nomoyon bo`ladi. Buni shuning bilan tushuntirish mumkinki, xarakterning har bir xislatida odamning ma'lum sharoitlarga, voqealarning ma'lum tomonlariga bo`lgan munosabati ifodalanadi. Shu sababli bir o`quvchining o`zi o`zini turli sharoitlarda turlicha tutishi mumkin. Maktabda qurqoq, ikkilanuvchi, uyda chaqqon, dilkash, g'ayratli, mehmonda vazmin, o`ychan va h.k.

Xarakter tug'ma bo`lmaydi. Faqat layoqat nishonalari tug'ma bo`lishi mumkin, ular nerv tizimining xususiyatlariga bog'liq bo`ladi. Xarakter esa muayyan jamiyat a'zosi bo`lgan kishining hayoti va faoliyati jarayonida tarkib topadi.

Xarakter shaxsning individual xususiyatidir. Xarakterlari mutlaqo bir xil bo`lgan ikki kishini topib bo`lmaydi, lekin ayrim kishining xarakteridagi ko`p narsalar bir guruh kishilar uchun yoki hatto butun jamiyat uchun tipik bo`lishi mumkin.

Jamiyat a'zosi bo`lgan kishining voqelikka bo`lgan munosabatida vujudga keladigan va uning xulq-atvori hamda hatti-harakatida ta'sir qoldiradigan muhim, barqaror psixik xususiyatlarning majmui xarakter deyiladi.

Odam harakatlarining sifati va usullari faqat shaxsning munosabatlarigagina bog'liq bo`lmay, balki iroda, hissiyot, diqqat, aqliy xususiyatlarga, ya'ni psixik xususiyatlarning individual xususiyatlariga ham bog'liq. Shuning uchun ham kishi

faoliyatida qanday psixik jarayonlar ustun turishiga qarab xarakter xususiyatlarini intellektual, emotsiyal va iroda xususiyatlari ajratish mumkin.

Xarakterning ko`p xislatlari odamning hatti-harakatini belgilab beruvchi churqur va faol mayllar hisoblanadi. Ma'lumki turli kishilarning xarakteri turlicha. Shu sababli ham bir xil sharoitlarda, aynan bir xil maqsadga intiluvchi kishilar shu maqsadga erishish uchun zarur bo`lgan harakatning turli usullariga moyil bo`ladilar. Bu yerda xarakter xislatlari undovchi kuch sifatida nomoyon bulayapti. Odam xarakter xislatlarining undovchilik kuchi sifatida yuzaga chiqishi ta'siri ostida ko`pincha ob'ektiv sharoitga zid va maqsadga nomuvofiq harakat usullarini qo'llaydi. Odam ba'zida o`z xarakteridan o`zi xafa bo`lib ketadi, ammo boshqacha harakat qila olmaydi.

Maqsadga nomuvofiq, lekin odam uchun xarakterli bo`lgan harakat usullarini tanlashga moyillik katta irodaviy zo'r berishlar sharoitida, jiddiylik (stress) vaziyatlarida xususan aniq nomoyon bo`ladi. Shuning bilan birga, agar odam uchun xarakterli bo`lgan harakatlar usuli mazkur sharoitda maqsadga muvofiq bo`lsa, unda u o`z xarakteriga mos kelmaydigan, bir qolipdagi, stereotip harakat usullaridan majburiy foydalanish hollariga qaraganda ancha ko`p kuch-quvvat, qait'iyliz va mehnatga qobiliyatlilik talab qiladi.

Shunday qilib, agar xarakter xislatlari ob'ektiv sharoitlar talabiga qarshi harakat qilishga undaydigan bo`lsa, odamning xarakter xislatlari o`ziga xalaqit berishi mumkin. Aksincha bo`lsa kishi ijodiy ish qila oladi, o`z kuchlaridan samarli foydalana oladi.

XARAKTERNING FIZIOLOGIK ASOSLARI

Xarakterning nomoyon bo`lishi va uning tarkib topishiga juda ko`plab omillar ta'sir qiladi. Shu sababli xarkterning fiziologik asoslari haqida taxminan xulosa chiqarish mumkin. Pavlov maktabi fiziologlarining o`tkazgan tajribalari shuni ko`rsatdiki, turli qo`zg'atuvchilar ta'siri ostida turlicha shartli bog'lanishlar hosil bo`ladi. Shunday nisbatan turg'un shartli bog'lanishlar majmuasi DINAMIK STEREOTIPNI tashkil qiladi. Xarakter xislatlarining shakllanishi mexanizmi ko`proq ana shu dinamik stereotipnining hosil bo`lishi bilan tushuntiriladi.

Ikkinci tomondan xarakter xususiyatlarining yuzaga chiqishi nerv tizimining umumiyligi tipiga, uning xususiyatlariga bog'liq. Chunonchi, sust nerv tizimiga ega o`quvchilarning yaxshi tanigan o`rtoqlari doirasi tor, kam sonli bo`ladi. Ular kam tashabbus ko`rsatadilar. Qiyinchilik bilan tanish orttiradilar. Aksincha, harakatchan nerv tizimiga ega bo`lgan o`quvchilar odamlar bilan munosabatda faol, kirishuvchan bo`ladilar.

O`qish, sport, mehnat faoliyatlarida harakat usullarining individual farqlari ham shu xil ta'sir ostida paydo bo`lishi aniqlangan (B.M.Teplov, V.S.Merlin, Ye.A.Klimov).

Sizga ma'lumki, nerv tizimining umumiyligi xususiyatlari temperamentning ham asosidir. Demak, TEMPERAMENT TIPI xarakterning individual o`ziga xos xususiyatlarining paydo bo`lishidagi muhim psixologik sharoitlardan biridir.

XARAKTERNING TUZILISHI

Odam xarakteri turli xususiyatlarning tasodifiy yig'indisidan iborat emas. Xarakterning xususiyatlari bir-biri bilan bog'liq, bir-biriga tobe yaxlit tizimni tashkil qiladi. Mana shunday yaxlit tizim xarakter tuzilishi (strukturasi) deyiladi. Shu sababli kishining xarakterning bir qanchasini bilgan holda uning xarakterining hali bizga ma'lum bo`lmagan (nomoyon bo`lmagan) boshqa xususiyatlari haqida ham fikr yurita

olamiz. Turli odamlarda turlicha xarakter xususiyatlarining tizimi (simptomokomplekslar).

Psixologiya fanida kishining atrofdagi voqelikka munosabati nuqtai-nazaridan xarakter xususiyatlarining quyidagi tizimi guruhlari farqlanadi;

1.Shaxsning umumiyligini tuzilishini (uning maslagini) ifodalaydigan xususiyatlar: g'oyaviylik, maqsadga intiluvchanlik, halollik, vatanparvarlik, mardlik, adolatga ishonish, faollik, intizomlilik.

2.Shaxsning boshqa odamlarga munosabatini ifodalovchi xususiyatlar-jamoalilik, insonparvarlik, sezgirlik, saxiylik, samimiylilik, hurmat-ehtirom. Bularga qarshi: pismiqlik, beparvolik, toshbag'irlik, ichidan pishganlik, dag'allik, kishilarga nafrat bilan qarash.

3.Kishining o`z-o`ziga qanday munosabatda bo`lishi haqida guvohlik beradigan xususiyatlar - kamtarlik, mag'rurlik, uyatchanlik, jizzakilik, xudbinlik, egotsentrizm (o`z shaxsi, o`zining kechinmalari bilan band bo`lish, o`zini hamisha o`z diqqat markazida tutish).

4.Shaxsning mehnatga, o`z ishiga munosabatini ko`rsatuvchi xususiyatlar -qat'iyatlik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, ijodga ishtiyocoq, ishdagi halollik.

5.Kishining narsalarga munosabatini xarakterlovchi xususiyatlar - puxtalik-beparvolik, qimmatli narsalarni behuda sarf qilish yoki tejash (kimniki bo`lishidan qat'iy nazar).

Xarakterning ayrim xususiyatlari shaxsning ijobiy xususiyatlari, boshqalari esa salbiy xususiyatlari bo`ladi. Shu narsani esda tutish kerakki, kishilarga bo`lgan mehr-muhabbatni yaxshi, nafratni yomon deb bo`lmaydi. Hamma narsa kimni yaxshi ko`rish va kimdan nafratlanishga bog'liq. Xarakterning xususiyatlari orasidagi bog'liqdan kelib chiqqan holda muhim pedagogik xulosa chiqarish mumkin. Xarakterning ayrim xususiyatlarini alohida, ajralgan holda tarbiyalab bo`lmaydi. Xarakter xususiyatlarining butun tizimini tarbiyalash lozim. Ammo xarakterning bir butunligi mutlaq emas. Shaxsda xarakterning markaziy, asosiy munosabatlarni belgilab beruvchi xususiyatlar mavjud. Tarbiya jarayonida ana ana shu asosiy xususiyatlarini shakllantirishga e'tibor berish lozim.

Xarakterning ijobiy xususiyatlari orasida axloqiy xususiyatlar, hamda irodaviy xususiyatlar muhim o`rin egallaydi.

Kishi xarakterining barcha xususiyatlari bir-biri bilan bog'langandir, shuning uchun ham xarakter muayyan darajada barqarorligi bilan ajralib turadi.

O`z xarakterini o`zgartirish, salbiy xususiyatlardan xalos bo`lish va o`zida ijobiy xususiyatlarni tarbiyalash - murakkab vazifa bo`lsa ham, lekin amalga oshirib bo`ladigan vazifadir. Buning uchun avvalo o`z ustida ishlashni, xarakterni tarbiyalash (agar lozim bo`lsa) qayta tarbiyalash ustida ishlashni qat'iy va keskin maqsad qilib quyish kerak. Kishida xarakterning irodaviy xususiyatlarini tarkib toptirishning eng muhim shartlaridan biri mehnat hisoblanadi.

XARAKTERNING TARKIB TOPIShI

Xarakterning xususiyatlari qanday shakllanadi. Aynan ikkita bir xil xarakterli ikki kishi uchramasligini qanday tushunish mumkin. Ba'zi olimlar xarakterning shakllanishi, uning hamma xususiyatlari nasliy deb hisoblaydilar. Buning ikkita sababi mavjud. Birinchidan ko`pchilik chet ellik olimlar biologik omillarning rollini oshirib baholaydilar. Ikkinchi tomondan ko`pchilik chet el psixologik nazariyalarida temperament xususiyatlari alohida ajratilib o`rganilmaydi. Bizga ma'lumki temperamentning xususiyatlari asosan biologik xususiyatlarga, shu jumladan nerv tizimining xususiyatlariga bog'liq. Bu yo`nalishdagi psixologlar temperament xususiyatlarini ham xarakter xususiyatlari sifatida qaraydilar. Aslida organizmning nasliy xususiyatlari xarakter xususiyatlarining paydo bo`lishining shartlaridan biri, xolos. Xarakter xususiyatlari irsiyatning biologik qonuniylari bilan emas, balki IJTIMOIY QONUNIYATLAR bilan belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrning isboti sifatida gomozigot (bir tuxum hujayradan paydo bo`lgan) egizaklarni kuzatishlar natijalarini keltirish mumkin. Ularning nasliy xususiyatlari butunlay bir xil. Agar ular turli xil oilalarda tarbiya qilinsalar ularning xarakterlari turlicha bo`ladi. Hatto bir oilada tarbiya topgan gomozigat egizaklarning ham xarakterlari turlicha bo`ladi. Ularning temperament xususiyatlari bir xil bo`ladi.

Xarakter qanday shakllanadi? Xarakterning shakllanishi ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar oiladagi, o`quv jamoasidagi muhit xayrihohlik, zolimlik, badjahllik, ichi qoralik, kamtarinlik, raqobat, o`zaro yordam va boshqalarni o`z ichiga oladi. Shu sababli kishining g`oyaviy yo`nalganligi, o`ziga, boshqalarga, mehnatga munosabati, dunyoqarashining shakllanganli darajasi jamiyatda, oilada, o`quv yurtida tarbiya jarayoni qanday tashkil qilinganiga bog'liq. Ammo xarakterni umumiyligi nazariyalar, nasihatlar bilan shakllantirib bo`lmaydi. Bular shaxsning bilimlarigagina aylanib qolishi mumkin, xolos. Xarakterning shakllanishi, tarkib topishi odamning faqat faol faoliyati jarayonida ro`y beradi. Faol harakatlar jarayonida ma'lum harakatlar tizimi, harakatlar usullari shakllantiriladi va mustahkamlanadi. Bunday harakatlar tizimi ODATLARNI tashkil qiladi. Shaxsda shakllangan odatlarning majmui xarakterni belgilab beradi. Bolalarda foydali odatlarni shakllantirish uchun ular bilan ishslash, bir qancha vaqt davomida takrorlash, hosil bo`lgan odatlarni mustahkamlash kerak.

Xarakter xislatlarining shakllanishida maqsadga yo`nalgan holda odatlarni shakllantirishdan tashqari TAQLID ham o`ziga xos o`ringa ega. Bu borada ota-onalar, pedagoglar yoshlarga namuna bo`lishi kerak, ular o`zlarida yaxshi xislatlarni nomoyon qilishlari kerak. Shu holdagina bola ularga taqlid qiladi, ijobjiy insoniy xususiyatlarni o`zida shakllantiradi.

Xarakterning shakllanishida yuqorida ko`rsatilgan omillar hayotning barcha bosqichlarida ta'sir qilib boradi. Ayniqsa ularning ta'siri maktabgacha va kichik mifik yoshida juda katta. Katta mifik yoshida bola o`zligini anglay boshlaydi, unda o`ziga nisbatan fikr, o`zini baholash o`zgacha o`ringa ega bo`lib boradi. Bu yoshlarda tarbiya jarayoni ko`proq o`z-o`zini tarbiyalashga suyanishi lozim. Avvolmbo`r o`quvchida o`zini tarbiyalash motivi - yaxshi bo`lishga intilish istagi bo`lishi kerak. Tarbiyaning asosiy maqsadi bolada, o`smirda "yaxshi bo`lishga intilish"ni shakllantirishdir. Odam o`zining butun umri davomida o`z ish-harakatlari bilan o`z xarakterini yaratadi.

Ma’ruza 18. QOBILIYATLAR

Reja:

- 1. Qobiliyatlar haqida tushuncha.**
- 2. Qobiliyatlarning sifat va miqdor ko`rsatgichlari.**
- 3. Qobiliyatlarning turlari.**
- 4. Qobiliyatlarning tabiiy shartlari.**

Tayanch iboralar:

Qobiliyat va qobiliyatning sifat va miqdor xususiyatlari. Qobiliyat va layoqat. Qobiliyatilik, talant, geniallik tushunchalari va ularni aniqlash. Qobiliyatlarning turlari.

Umumiy qobiliyat va uning ko`rinishlari: intellekt, kreativlik (ijodiy qobiliyat), psixomotor qobiliyatlar, sensor qobiliyatlar va h.k. Pedagogik qobiliyatlar strukturasi. Talant va uning kelib chiqishi. Qobiliyat va irlsiyat. Talant va qobiliyatning shakllanishida inson faoliyatining roli. O`quvchilarda umumiy va kasbiy qobiliyatlarni shakllantirish. Qobiliyatni o`rganish va kasbga yo`naltirish ishlarining vazifalari va xarakteri.

QOBILIYATLAR HAQIDA TUSHUNCHA.

Qobiliyatlar odamning shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, ko`nikma va malakalarni orttirishning samaradorligi, tezligi shu xususiyatlarga bog`liq bo`ladi, lekin bu xususiyatlarning o`zi bilim, ko`nikma va malakalarga taalluqli bo`lmaydi. Aks holda, imtihonda qo`yilgan baho, doskada qaytarilgan javob, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz bajarilgan yozma ishiga qarab odamning qobiliyatlar haqida qat’iy xulosa chiqarish mumkin bo`lar edi. Ammo psixologik tadqiqotlar va pedagogik tajribalarning ko`rsatishicha, ba’zan dastavval boshda nimalarnidir qila olmaydigan va buning natijasida atrofdagi boshqa odamlardan ajralib qolgan odam ta’lim olish jarayonida tez orada boshqalarni quvlab o`tib ketadi va ish ishining katta ustasi bo`lib yetishadi. Unda boshqalarga qaraganda ko`proq qobiliyatlar nomoyon bo`ladi. Qobiliyatlar bilim, ko`nikma va malakalarni egallahda nomoyon bo`lsa ham, ular bilim, ko`nikma va malakalarga taalluqli bo`lmaydilar.

Qobiliyatlar va bilim, ko`nikma va malakalar biri-biri bilan aynan bir narsalar emas. Bilim, ko`nikma va malakalarga nisbatan odamning qobiliyatları qandaydir IMKONIYAT tarzida nomoyon bo`ladi. Yerga tashlangan urug’ ana shu urug’dan o’sib chiqishi mumkin bo`lgan boshoqqa nisbatan faqat imkoniyat bo`lgani kabi odamning qobiliyatları bilim, ko`nikma va malakalarni egallah uchun faqat imkoniyat hisoblanadi. Bu bilim, ko`nikma va malakalar egallanadimi yoki egallanmaydimi, imkoniyat haqiqatga aylanadimi yoki yo`qmi - bularning hammasi juda ko`p sharoitlarga bog`liqdir. Bolada nomoyon bo`lgan musiqa qobiliyati uning musiqachi bo`lishiga hech bir kafolat bermaydi. Bola musiqachi bo`lishi uchun unga maxsus ta’lim berilishi, qat’iylik, salomatligining yaxshi bo`lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko`p sharoitlar bo`lishi kerak. Bularsiz qobiliyat taraqqiy etmayoq so`nishi mumkin.

Qobiliyatlar faqat FAOLIYATDA nomoyon bo`ladi, shunda ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo`limgan faoliyatlardagina nomoyon bo`ladi. Agar odamni hali rasm solishga o`rgatmagan bo`lsa, agar u tasviriy faoliyat uchun zarur bo`lgan hech qanday malakalarni egallamagan bo`lsa, uning rasm solishga

nisbatan qobiliyatlar haqida hech qanday gap bo`lishi mumkin emas. Rasm chizishga, tasviriy san'atga maxsus o`rgatish jarayonida o`quvchining qobiliyati bor yoki yo`qligi nomoyon bo`lishi mumkin.

Qobiliyat va bilim, ko`nikma va malakalarning birligi nimada ifodalanadi? Qobiliyat bilim, ko`nikma va malakalarning o`zida ko`rinmaydi, balki ularni EGALLASH DINAMIKASIDA nomoyon bo`ladi, ya`ni, boshqacha qilib aytganda, mazkur faoliyat uchun zarur bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirilishida nomoyon bo`ladi. Xuddi mana shu yerda yuzaga chiqadigan farqlar qobiliyatlar bizga haqida gapirish imkonini beradi.

Shunday qilib, qobiliyatlar shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va bilim, ko`nikma hamda malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda nomoyon bo`ladigan individual-psixologik xususiyatidir.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda nomoyon bo`ladi. Idrok etish paytida, masalan, ranglarning tovlanishidagi nozik farqlar, predmetlarning aniq ko`rinishi, proporsional nisbatlarni tushunish (rassomlar ishida), absolyut eshitish (musiqa bilan shug`ullanishda) va hokozolarda ayon bo`ladi. Yozuvchi ixtirochining mehnatida ayniqla zarur bo`ladigan ijodiy xayol ham qobiliyatlar uchun katta ahamiyatga ega.

QOBILIYATLARNING SIFAT VA MIQDOR XARAKTERISTIKASI.

Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyatlar sifatida xarakterlanadi, ya`ni bir odamning boshqa odamdan farq qiladigan sifatlarini ochib beradi. O`z-o`zida ma'lumki kishilar teng emas. Mana shuning uchun qobiliyatlar haqida gapirganda, bu farqlarni xarakterlab o`tish zarur. Ular sifat va miqdor jihatdan xarakterlanishi, farq qilishi mumkin.

Qobiliyat xususiyatlarining sifat tomonidan qaralishi maqsadga turli yo'llar bilan borishga imkon beruvchi "o`zgaruvchan miqdor" to`plami sifatida, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi psixologik xususiyatlarning murakkab kompleksi sifatida ko`rinadi.

Qandaydir faoliyatni bajarishdagi bir xil yoki nimalar bilandir o`xhash yutuqlar asosida juda xilma xil qobiliyatlar birikmasi yotishi mumkin. Bular bizning ko`z o`ngimizda shaxs qobiliyatlarining muhim tomonini ochib beradi: bir xususiyatning o`rnini boshqa bir xususiyatlar bilan to`ldirish (kompensatsiya qilish) ning keng imkoniyatlari bor bo`lib, buni odam o`zida chinakam va qat'iyatlik bilan ishlash orqali rivojlantirish mumkin.

Odamning qobiliyatlarida bor bo`lgan kompensatorlik imkoniyatlari, masalan, ko`rish va eshitishdan mahrum bo`lgan odamlarni maxsus tarbiyalashda nomoyon bo`ladi.

Qobiliyatlarni MIQDOR jihatdan o`lchash muammosi psixologiyada katta tarixga egadir. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridayoq bir qator psixologlar (Kettel, Termen, Spirman va boshqalar) ommaviy ixtisosliklar uchun kasb tanlashni amalga oshirish zarurati bilan uzviy bog`liq bo`lgan talablar ta'siri ostida ta'lim olayotganlarning qobiliyat darajasini aniqlashni talab qilib chiqdilar.

O`sha paytlarda qobiliyatlarni o`lchash usuli sifatida *AQLIY ISTE'DOD TESTLARI*dan foydalanildi. Aqliy iste'dod testlarining yordami bilan bir qator mamlakatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya va boshqalar) qobiliyatlarni aniqlash va

maktablarda o`quvchilarni saralash, armiyada ofitserlik xizmatini bajarish, ishlab chiqarishda rahbarlik lavozimini tanlash va shu kabilar amalga oshiriladi.

Aqliy iste'dod testlari o`zlarining mazmunlariga ko`ra muvaffaqiyatli yechilishi (ko`pincha sarflangan vaqt ni hisobga olib) ball yoki ochkolar yig`indisi bilan hisoblanadigan bir qator savollardan yoki masalalardan iboratdir. Test natijalari maxsus ravishda standartlashtiriladi, maxsus koeffitsientlarga aylantiriladi. Bular "aqliy iste'dod koeffitsienti" (IQ) ni aniqlash imkonini beradi.

O`sha davrdagi ko`pchilik psixologlarning ko`rsatishicha qandaydir o`zgarmas, har tomonlama iste'dodni yoki "umumiyl intellektni" (general intelligence) nomoyon qiladi deb ta'kidlaganlar.

QOBILIYATLARNING TURLARI

Qobiliyatlar umumiyl va maxsus bo`ladi. Umumiyl qobiliyatlar mavjud bo`lganda kishi faoliyatning turli xillari bilan muvaffaqiyatli shug`ullana oladi. Maxsus qobiliyatlar kishiga qandaydir bir muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug`ullanish imkoniyatini beradi. Masalan, matematik, texnikaviy, adabiy, musiqiy, tasviriy va boshqa qobiliyatlar bo`ladi.

Umumiyl qobiliyatlarga ko`p hollarda intellekt, tafakkurning kreativligi va shaxsnинг psixomotor qobiliyatları kiradi deb hisoblaydilar.

INTELLEKT. Yuqorida ko`rsatib o`tganimizdek odamning aqliy rivojlanish darajasini o`rganishga intilish "intellekt" tushunchasini va nazariyasininng yaratilishiga olib keldi. Ko`rsatib o`tganimizdek intellektini o`lchash va baholash uchun turli testlar qo`llaniladi. Ularning barchasi intellekt testlari degan umumiyl nom bilan ataladilar. Biz yuqorida intellektini baholashda ko`p qo`llaniladigan testning mohiyatiga qisqa to`xtalib o`tgan edik. Shuni ta'kidlab o`tish lozimki, ulardagи formulalar bolalar intellektini o`lchashda qo`llaniladi. Katta yoshli kishilar intellektini baholash uchun boshqa mezon, individual natijani biror meyor (ko`pchilikni o`rganish natijasida tajriba yo`li bilan topilgan) bilan taqqoslanadi. Quyida biz shunday jadvallardan birini keltiramiz.

Intellektni baholash jadvali.

Intellekt koeffitsienti IQ	Aqliy rivojlanish darjası	% hisobida taqsimlanganlik ko`rsatgichi
130 va yuqori	Juda yuqori	2,2
120 - 129	Yuqori	6,7
110 - 119	Yaxshi	16,1
90 - 109	O`RTA	50,0
80 - 89	Past	16,1
70 - 79	Chegara ko`rsatgichi	6,7
69 va past	Aqliy zaiflik	2,1

Ko`rinib turibdiki, (jadvalga qarang) yuqori intellektga egalar va aqliy zaiflar 2% ni tashkil qilar ekan. Aqliy rivojlanish darajasini o`lchash ko`proq aqliy zaiflikni, ijtimoiy qarovsizlikni yoki kasbga tanlash maqsadida qo`llaniladi. Hozirgi vaqtda psixologik tadqiqotlar intellektning o`zgarmasligini inkor qiluvchi, uning juda ko`plab omillarga bog`liq (ijtimoiy muhit, oila, irsiyat, motivatsiya) ekanligini ko`rsatmoqda.

Shu sababli intellekt koeffitsienti kishining taqdirini belgilovchi birdan-bir ko`rsatgich sifatida qo`llanilishi mumkin emas.

KREATIVLIK (ijodiy qobiliyatlar). Ko`rsatib o`tganimizdek birgina IQ (intellekt koeffitsienti) asosida kishini ishga qabul qilish, uning imkoniyatlarini baholash noto`g`ri bular edi. Shu sababli 50 yillardan boshlab aqliy rivojlanishni o`rganish bilan bir qatorda kishining ijodiy qobiliyatlarini ham o`rganish va o`lchashga katta e`tibor berib boshlandi. Bu borada maxsus testlar yaratildi.

"Intellekt" tushunchasi ko`proq psixologiyadagi konvergent tafakkur tushunchasiga mos keladi - birdan-bir to`g`ri javobni izlash va unga keltirishga yo`nalgan.

"Kreativlik" tushunchasi esa ko`proq divergent tafakkur tushunchasiga mos keladi. Divergent tafakkur, bu turli tomonlarga tarmoqlanuvchi, bir vaqtning o`zida turli yo`nalishlarga tarqaluvchi, ko`plab yechim variantlarni yaratishga yo`nalgan tafakkur. Shu sababli divergent tafakkur kutilmagan natija va yechimlarga olib keladi.

Ijodiy qibiliyatlarni (kreativlik) baholashda berilgan vazifani yechishning "engilligi", "moslashuvchanligi va egiluvchanligi", "orginalligi"ga e`tibor beriladi.

PSIXOMOTOR QOBILIYATLAR - harakatlar va harakatlar tizimini amalga oshirish va boshqarishning psixologik va motor (harakat) assoslari. Ularga quyidagilar kiradi: statistik kuch; dinamik kuch; keskin harakatlardagi kuch; umumiyy moslashuvchanlik qobiliyati; epchillik; umumiyy chidamlilik; maxsus faoliyatga chidamlilik; muvozanatni tuta olish.

Biror faoliyatning ayniqsa muvaffaqiyatli, mustaqil va original tarzda bajarilishini taqozo qiladigan zo`r qobiliyatlar birikmasi talant deyiladi. Ijodiy faoliyatga qobiliyatli bo`lgan kishilarni talantli kishilar jumlasiga kiritish mumkin.

Talantlilikning yuqori bosqichi geniallik deb ataladi. Ijtimoiy hayotda, fan, adabiyot, san`at va shu kabi sohalarda printsipial ravishda yangi bo`lgan biror narsani yaratgan kishilar geniylar deb hisoblanadilar. Genial kishilar insoniyat taraqqiyotida yo`l ko`rsatuvchi bosqichlar bo`lib xizmat qiladilar, tarixiy shaxslar bo`ladilar.

Qobiliyatlar, masalan, olim, yozuvchi, konstruktor va hokozolar shug`ullanadigan aqliy mehnat bilan mashg`ul bo`lgandagina paydo bo`lib qolmaydi. Faoliyat turlari "oliy" va "quyi" xillarga bulinmaydigan va texnika taraqqiyoti oddiy ishchini yoki kishloq xo`jaligi sohasida ishlayotgan mehnatchini ijod bilan shug`ullanishga, ratsionalizator bo`lishga, ishlab chiqarishda yuqori ko`rsatgichlarga erishishga undayotgan, ayniqsa bizning mamlakatimizda jismoniy ishda ham qobiliyatlar nomoyon bo`laveradi.

QOBILIYATLARNING TABIIY SHARTLARI

Har bir kishida tug`ma layoqat nishonalari, ya`ni miyaning oliy nerv faoliyatining analizatorlarining o`ziga xos xususiyatlari bor bo`ladi, binobarin, kelgusida biror qobiliyatni rivojlantirishga bo`lgan muayyan moyillik ana shunga bog`liqdir. Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalaring majmui kishining iste`dodi deyiladi. Lekin bu tabiiy layoqat nishonalari muvaffaqiyatli faoliyatning to`la-to`kis shart-sharoiti bo`la olmaydi. Layoqat nishonalarni rivojlantirish kerak, bu esa faoliyat jarayondagina ruy berishi mumkin. Layoqat nishonalari ko`p qiymatlidir, yana tegishli sharoitlar mavjud bo`lganda, faoliyatga qarab

layoqat nishonalari asosida turli qobiliyatlar rivojlanishi mumkin. Masalan, yaxshi eshitish va ohangni sezish qobiliyati mavjud bo`lganda bir kishi kompozitor, ikkinchisi yaxshi ijrochi, uchinchisi yaxshi dirijyor, to`rtinchisi musiqa tanqidchisi va hokozolar bo`lib yetishmogi mumkin. Qulay sharoitlar mavjud bo`lganda ayrim kishilarda qobiliyatlar juda erta rivojlanadi. Odatda musiqa va tasviriy san`atga bo`lgan layoqat ancha ertaroq paydo bo`ladi. Masalan, M.I. Glinka 3-4 yoshidayoq shunday o`yinni juda yoqtirgan: u ovoz chiqaradigan turli buyumlarni (mis, tog`oracha, kostrilka) yog`och bilan chalgan. Bunda kattalarni hayron qoldiradigan darajada ohangdosh tovushlar paydo bo`lganki, ularni eshitish maroqli edi. Keyinchalik bu bola buyuk kompozitor bo`lib yetishdi. Biroq shunday ham bo`ladiki, kishilar bolalikda favqulodda qobiliyatlarini nomoyon qilganlar-u, biroq katta bo`lgach, ulardan mahrum bo`lganlar. Lekin bunday hollar nisbatan kam uchraydi.

Qobiliyatlar faoliyat davomida rivojlanadi. Qobiliyatlarni rivojlantirishning birinchi sharti - faoliyatga bo`lgan ehtiyojni tarbiyalashdir. Mehnatga bo`lgan ehtiyojni tarbiyalash uchun ishga qiziqish va unga odatlanish katta ahamiyatga egadir.

Qobiliyatlar shaxsning boshqa sifatlari bilan chambarchas bog`langan. Kishining talantli ekanligi ma`lum darajada uning psixik jarayonlari, shuningdek, ko`pgina psixik xususiyatlarining rivojlanish darajasiga bog`liq bo`ladi. Ayrim qobiliyatlarni rivojlantirishda tegishli bilish jarayonlarining yuqori darajada bo`lishi hal qiluvchi rol o`ynaydi. Masalan, musiqachi uchun eshitish, rassom uchun ko`rish idrokleri katta ahamiyatga ega. Kishi o`z qobiliyatlarini rivojlantirish bilan shug`ullanar ekan, bu rivojlanish quruq maqsaddan iborat bo`lib qolishi kerak emas. Asosiy vazifa jamiyatning munosib, foydali a`zosi bo`lib yetishishdan iboratdir.

MUNDARIJA

SO`Z BOSHI.....	3
MA`RUZA 1. PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI VA FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O`RNI	4
MA`RUZA 2. HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYA FANINING TUZILISHI VA METODLARI	11
MA`RUZA 3. BIOLOGIK EVOLYUSIYADA PSIXIKANING PAYDO BO`LISHI VA RIVOJLANISHI.....	16
MA`RUZA 4. SHAXSNING PSIXOLOGIK XARAKTERISTIKASI.....	22
MA`RUZA 5. SHAXS FAOLIYATI.....	29
MA`RUZA 6. NUTK VA MULOQOT.....	38
MA`RUZA 7. GURUH VA JAMOA PSIXOLOGIYASI	44
MA`RUZA 8. DIQQAT.....	49
MA`RUZA 9. SEZGILAR.....	54
MA`RUZA 10. IDROK.....	58
MA`RUZA 11. XOTIRA	62
MA`RUZA 12. TAFAKKUR	67
MA`RUZA 13. XAYOL	72
MA`RUZA 14. HIS-TUYG'ULAR	75
MA`RUZA 15. IRODA PSIXOLOGIYASI	79
MA`RUZA 16. TEMPERAMENT (MIJOZ).....	83
MA`RUZA 17. XARAKTER.....	87
MA`RUZA 18. QOBILIYATLAR.....	91